O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ATADJANOVA DINARA ULUG‘BEKOVNA

# O‘QUVCHILARDA O‘ZLASHTIRMOVCHILIK SABABLARINI DIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI

**monografiya**

«ILM ZIYO ZAKOVAT»
Toshkent – 2025

**UDK: 341.129.81**
**KBK: 896.027.35**
**A 204**

**Atadjanova D.U.**
**O'QUVCHILARDA O'ZLASHTIRMOVCHILIK SABABLARINI DIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI. [Monografiya]. D.A.Ulug'bekovna. — Toshkent: "Ilm ziyo zakovat", 2025. 160 b.**

**Tuzuvchi:**

D.A.Ulug'bekovna - Urganch davlat pedagogika instituti, "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi dotsenti

**Taqrizchilar:**

**M.X.Djumaniyozova –** UrDu, Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri (DSc)

**L.Taxirovna –** UrDPI, Pedagogika fakulteti "Pedagogika va psixologiya kafedrasi" dotsent v.b

**Monografiya Urganch davlat pedagogika institutining 2025 yil sentabrdagi (№ 2 -bayonnoma) kengashida chop qilishga tavsiya etilgan.**

**ISBN 978-9910-9211-9-3**

**© Atadjanova D.U. 2025 y.**
**© «Ilm ziyo zakovat» 2025 y.**

# Kirish

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. “Jahonda oʻquvchilarda oʻzlashtirmovchilik sabablarini aniqlash, uni kamaytirish boʻyicha samarali psixokorrektsion yondashuvlarni ishlab chiqish, har bir oʻquvchining kognitiv, emotsional va ijtimoiy salohiyatiga moslashtirilgan ta’lim uslublarini joriy etish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. OECD tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga koʻra, oʻquvchilarning past akademik natijalari 25% holatlarda ularning motivatsiyasining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bogʻliq ekanligi, 14-16 yosh oraligʻidagi oʻquvchilarda ta’lim jarayonidagi ruhiy zoʻriqish va emotsional beqarorlik mavjud boʻlganda ularning akademik natijasi 10-20% ga pasayishi aniqlangan. Mazkur statistik natijalardan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda oʻquvchilarda bilim olish motivatsiyasi hamda oʻquv faoliyatiga ongli munosabatini shakllantirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish masalasi dolzarb pedagogik-psixologik muammolardan biri boʻlib qolmoqda”[1]

“Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va ta’lim muassasalarida oʻquvchilarning oʻzlashtirmovchilik sabablarini diagnostikasi va psixokorreksiyasini oʻrganishga alohida ahamiyat berilmoqda. Harvard University Graduate School of Education tadqiqotlarida psixokorrektsion dasturlarni sinfda joriy etish natijasida oʻquvchilarda diqqat, motivatsiya va emotsional barqarorlikni tiklash orqali oʻzlashtirmovchilik darajasi 18–22% ga kamaygani aniqlangan. Oʻquvchilarning dastlabki ta’lim bosqichidanoq asosiy bilimlarni toʻliq oʻzlashtira olmasligi ularning keyingi bosqichdagi akademik muvaffaqiyatiga salbiy ta’sir koʻrsatadi. Shu bois, bu muammoni erta aniqlash va bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, oʻquvchilar oʻzlashtirmovchiligini oldini olish, diagnostikasi va psixokorrektsiyasi boʻyicha ilmiy - nazariy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, yangi pedagogik - psixologik metodlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda”[2]

[1] https://www.oecd.org/ru.html
[2] https://www.gse.harvard.edu

“Respublikamizning so‘nggi yillarida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, avvalo, ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy bilimlarga ega, fikrlash madaniyati rivojlangan, ijtimoiy jihatdan faol yoshlarni tarbiyalashni ko‘zlamoqda. Ushbu islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘quvchilarda chuqur bilim olishga bo‘lgan sharoitlarni yaratish, individual o‘quv ehtiyojlarini hisobga olish, iqtidor va salohiyatni ro‘yobga chiqarish hamda o‘zlashtirmovchilikning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylandi. Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’lim tizimini shakllantirish, ta’limning barcha bosqichlarida mukammal bilim olishni ta’minlash, iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab - quvvatlash va rag‘batlantirish vazifalari ayni jarayonlarda asosiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qilmoqda. Shunga asoslanib, ayniqsa, umumta’lim maktablarida o‘quvchilarda uchrayotgan o‘zlashtirmovchilik holatlarini erta aniqlash, ularning sabablarini chuqur psixologik tahlil qilish va shaxsiy yondashuvga tayangan psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda”[3]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlar, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi”, 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son «Ilm-fan

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” http://lex.uz/docs/3107036

sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorlar hamda faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[4].**

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarda o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini diagnostikasi va psixokorreksiyasiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning quyidagi yetakchi ta’lim tashkilotlari va ilmiy tadqiqot markazlarida, jumladan: Columbia University Medical Center (AQSh), University of East London (Buyuk Britaniya), Pittsburg State University (AQSh), University of Alberta (Kanada), University of Pittsburgh (AQSh), National Center for Learning Disabilities (AQSh), Luxembourg Centre for Educational Testing (Lyuksemburg), UC San Diego (AQSh), King Salman Center for Disability Research (Saudiya Arabistoni), Dyslexia Tanzania (Tanzaniya) va CNLD Neuropsychology Center (AQSh) kabi yetakchi ilmiy markazlarda olib borilmoqda.

Jahonda o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini aniqlash, individual diagnostika vositalarini ishlab chiqish va psixokorreksion yondashuvlarni joriy qilish

[4] https://www.columbiapsychiatry.org, https://www.uel.ac.uk, https://www.pittstate.edu, https://www.ualberta.ca, https://www.lrdc.pitt.edu, https://ncld.org, https://www.uni.lu/fhse-en/research-groups/luxembourg-centre-for-educational-testing-lucet, https://www.ucsd.edu, https://www.kscdr.org.sa/en/about, https://en.wikipedia.org/wiki/Dyslexia_Tanzania, https://www.cnld.org

bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: Columbia University Medical Center huzuridagi NVLD (Non-verbal Learning Disability) markazi tomonidan og‘zaki va noverbal kognitiv nomuvofiqliklar asosida diagnostik indikatorlar ishlab chiqilgan va ular sinf sharoitida moslashtirilgan (Columbia University, AQSh); University of East Londonda joylashgan Rix markazida psixologik yordamga muhtoj o‘quvchilar uchun multimediaviy interaktiv metodikalar asosida o‘quv dasturlarining moslashtirilishi ustida izlanishlar olib borilgan (University of East London, Buyuk Britaniya); Pittsburg State University tarkibidagi Center for Research, Evaluation and Awareness of Dyslexia tomonidan disleksiyani aniqlashda fonologik testlar orqali boshlang‘ich bosqichda 20% aniqlik darajasi qayd etilgan (Pittsburg State University, AQSh); University of Alberta qoshidagi J.P.Das markazida o‘quvchilarda kognitiv salohiyat va diqqatni tahlil qiluvchi psixometrik vositalar yordamida diagnostika algoritmlari ishlab chiqilgan (University of Alberta, Kanada); University of Pittsburghda joylashgan Learning Research and Development Center tomonidan o‘qitishdagi emotsional va kognitiv omillar asosida individual yondashuvni shakllantirish yo‘nalishida tahlillar olib borilgan (University of Pittsburgh, AQSh); National Center for Learning Disabilities tomonidan AQSh miqyosida olib borilgan tadqiqotlarda maktab o‘quvchilarining 6–8% atrofida o‘zlashtirish buzilishlari aniqlanib, ular uchun zamonaviy korrektsion texnologiyalar taklif etilgan (NCLD, AQSh); Lyuksemburgda joylashgan LUCET markazi tomonidan o‘zlashtirmovchilikni baholovchi matematik va til kompetensiyalariga asoslangan maxsus skrining vositalari ishlab chiqilgan (LUCET, Lyuksemburg); UC San Diego universiteti qoshidagi LCHC (Laboratory of Comparative Human Cognition) markazi tomonidan o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy muhitdagi o‘rganish dinamikasi va kognitiv rivojlanishi tahlil qilingan (UC San Diego, AQSh); Saudiya Arabistonidagi King Salman markazi tomonidan arab tilida o‘quv qobiliyatini baholovchi diagnostik vositalar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (KSCDR, Saudiya Arabistoni); Dyslexia Tanzania tashkiloti tomonidan Afrikadagi o‘qituvchilarni tayyorlash, huquqiy normativlarni joriy qilish orqali disleksiyaga qarshi pedagogik va psixologik dasturlar ishlab chiqilgan (Dyslexia Tanzania, Tanzaniya); CNLD Neuropsychology

markazi tomonidan AQShda o‘quvchilarda disleksiya, diskalkuliya, diqqat yetishmovchiligi kabi muammolarni erta aniqlashda psixonevrologik yondashuvlar asosida ishlangan testlar qo‘llanilmoqda (CNLD, AQSh).

Jahonda o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilikni bartaraf etish va ta’lim sifatini oshirish uchun ilmiy-tadqiqotlar asosan quyidagi yo‘nalishlarda olib borilmoqda: kognitiv-emotsional profil asosida diagnostika indikatorlarini ishlab chiqish, sun’iy intellekt yordamida psixometrik tizimlarni ishlab chiqish, shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishlarini shakllantirish orqali individual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, o‘quvchilarda motivatsiya, o‘z-o‘zini anglash va psixologik barqarorlikni oshirishga qaratilgan amaliy psixokorrektsion metodikalarni joriy etish orqali o‘zlashtirmovchilikni kamaytirish va barqaror ta’lim muhitini shakllantirish shular jumlasidandir.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlari tomonidan o‘quv fanlarini o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablari alohida psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, shaxs o‘quv faoliyatining psixologik xususiyatlari masalasi B.S.Abdullayeva, E.A’zamxo‘jaeva, M.G.Davletshin, M.A.Jabborova, K.A.Farfiyeva, V.M. Karimova, Z.T.Nishonova, J.Y.Saydullayev, Z.Sh.Sherimbetova, A.N.Qurbonboyev, A.A.Zokirov va boshqalar va boshqalarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan[5]

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.G. Asmolov, L.I. Bojovich, A.B.Brushlinskiy, L.S.Vigotskiy, A.A.Derkach, E.P.Krupnik, A.B.Orlov, V.F. Perevalov, A.N. Sukhova, Y.V.Sinisina, V.E. Shudnovskiy va boshqalar o‘quvchining o‘zini o‘zi anglash darajasi,

[5] Abdullayeva B.S. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari: Monografiya. – T.: «Bookmany print» nashriyoti, 2021 y. – 162 b.; Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘quvchisining psixologiyasi. T., O‘zbekiston. - 30 bet.; Jabborova M.A. Talabalar akademik o‘zlashtirishining psixologik determinantlari. psixol.f.n. disser avtoreferati:., BuxDU 2024.22 b.; Farfiyeva K.A. O‘spirinlarda ilmiy-innovatsion tafakkur shakllanishining ijtimoiy-psixologik vositalari: psixol.f.d. disser avtoreferati: 19.00.05. – T., TDPU 2022.68 b.; Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. -T.: Sharq, 2000.; Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix.f.dok.dis. - T., 2005. - 391 b.; Saydullayev J.Y. “Talabalarda ilmiy dunyoqarashlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari” nomli dissertatsiya ishi. -Toshkent. 2024. - 67 b.; Sherimbetova Z.Sh. “Talabalarda o’quv fanlarini o’zlashtirishining pedagogik-psixologik xususiyatlari” nomli dissertatsiya ishi. - Toshkent. 2007. - 62 b.; Qurbonboev A.N. O‘quv faoliyatida talabalar o‘zini o‘zi faollashtirishining psixologik xususiyatlari. psixol.f.n. disser avtoreferati: –T., TDPU 2022.20 b.; Zokirov A.A. Ta'lim faoliyatida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlikning xususiyatlari. Diss. Ph.D. psixologiya fanlari.- Toshkent, 2002. – B.56 -57.

oʻzgaruvchan vaziyatlarga moslasha olish layoqati hamda oʻquvchining muvaffaqiyatsizliklarini individual rivojlanish resurslarini aniqlash boʻyicha tadqiqotlar olib borilgan[6].

Xorijiy psixolog olimlardan M.Atkinson, G.Alder, A.Bandura, R.Bendler, R.S.Vaysman, D.Grinder, D.Gilford, E.Erikson, Z. Freyd, A. Maslou, F. Xoppe, D.Xebb va boshqalar oʻquvchilarning oʻquv faoliyatidagi muammolarini psixologik tashxislashda kompleks psixodiagnostik yondashuv, shaxsiy rivojlanishidagi emotsional barqarorlikning oʻquv faoliyatiga ta'siri hamda oʻzlashtirmovchilikka olib keluvchi ichki va tashqi stress omillarni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilishgan[7].

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Yoshlarning ma'naviy qiyofasini yuksaltirishning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy muammolarini oʻrganish" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan (2017-2021-yy.).

Tadqiqotning maqsadi oʻquvchilarda oʻzlashtirmovchilik sabablarini diagnostikasi va psixokorreksiyasi boʻyicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

---

[6] Абульханова-Славская К.А. Социальное мышление личности: проблемы и стратегии мышления // Психологический журнал. – 1994. – №4. – С. 35–39; Асмолов А.Г. Личность как предмет психҳологии. Стратегия вузҳивания, достоинства и смусла // Психҳологичэский зҳурнал. – 1996. – Т.17, №3. – С. 21–33;
Божович Л.И. Проблемы формирования личности: избранные психологические труды. – М.: Институт практической психологии, 1995. – 287 с.; Брушлинский А.В. Психология мышления и сознания. – М.: Изд-во ИП РАН, 1994. – 312 с.; Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 1991. – 480 с.; Деркач А.А. Акмеологические основы развития профессионала. – М.: РАГС, 2004. – 256 с.; Крйпник Е.П. Психологическая помощь детям с трудностями обучения. – М.: Академия, 2011. – 192 с.; Орлов А.Б. Субъективная картина мира: Психологические подходы. – М.: Смысл, 2002. – 248 с.; Перевалов В.Ф. Нейропсихологическая диагностика учебной деятельности младших школьников. – М.: Генезис, 2006. – 206 с.; Сухова А.Н. Проблемы адаптации младших школьников к условиям обучения. – М.: МГППЙ, 2013. – 164 с.; Синисина Ю.В. Психолого-педагогические условия преодоления нейспешности й младших школьников. – М.: Логос, 2010. – 186 с.; Шудновский В.Е. Диагностика и коррекция трудностей обучения й детей: психологический подход. – М.: Речь, 2012. – 208 с.

[7] Atkinson J.W. An Introduction to Motivation. – Princeton: Van Nostrand, 1964. – 386 p.; Adler A. Understanding Human Nature. – New York: Hazelden Publishing, 1954. – 259 p.; Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986. – 617 p.; Bandler R., Grinder J. Frogs into Princes: Neuro Linguistic Programming. – Moab, UT: Real People Press, 1979. – 194 p.; Wiseman R.S. The Luck Factor: The Scientific Study of the Lucky Mind. – London: Arrow Books, 2004. – 292 p.; Grinder J., Bandler R. Structure of Magic I: A Book About Language and Therapy. – Palo Alto, CA: Science and Behavior Books, 1975. – 200 p.; Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967. – 538 p.; Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W. W. Norton & Company, 1968. – 336 p.; Freud S. The Interpretation of Dreams. – London: Hogarth Press, 1953. – 629 p.; Maslow A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954. – 411 p.; Hoppe F. Erfolg und Misserfolg: Psychologie des Leistungsverhaltens. – Leipzig: Barth, 1930. – 158 S.; Hebb D.O. The Organization of Behavior: A Neuropsychological Theory. – New York: Wiley, 1949. – 335

Tadqiqotning vazifalari:

- o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash;
- o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini diagnostikasi va psixokorreksiyasida o‘qishga emotsional munosabat uslubining ahamiyatini tadqiq qilish;
- o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablari sifatida o‘z-o‘zini anglash hamda akademik motivatsiya shkalasining ahamiyatini aniqlash;
- o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini diagnostikasi va psixokorreksiyasin o‘rganishda emotsional zo‘riqish jihatlarini ahamiyatini aniqlash;
- o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini psixokorreksiyasini tashkil etishda psixologik trening dasturini ishlab chiqish va samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini diagnostikasi va psixokorreksiyasi belgilangan bo‘lib, tadqiqotga Xorazm viloyatidan 180 nafar, Buxoro viloyatidan 110 nafar hamda Samarqand viloyatidan 90 nafar, jami 380 nafar maktab o‘quvchilari respondentlar sifatida tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini diagnostikasi va psixokorreksiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish metodlaridan, shuningdek, N.N.Svetlovskayaning “O‘qishga emotsional munosabat” metodikasi, A.Maslouning “O‘z-o‘zini anglash testi”, A.A.Rean va V.A.Yakunin; N.S.Badmaevalarning “O‘quv motivasiyasini diagnostika qilish metodikasi”, T.O.Gordeyeva, O.A.Sechev va E.N.Osin tomonidan ishlab chiqilgan “Akademik motivatsiya shkalasi”, Kondashning “Ijtimoiy vaziyatga bog‘liq bezovtalik darajalarini aniqlash”, Y.A.Sherkovinning “Shaxsiy o‘qishga qiziqish strukturasini aniqlash” metodikasi, A.K.Markova, N.F.Talyzina, T.V.Kudryashovalarning “O‘quv faoliyatida muvaffaqiyatsizlik sabablarini aniqlash metodikasi”dan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlangan;
- o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini diagnostikasi va psixokorreksiyasida o‘qishga emotsional munosabat uslubining ahamiyatini tadqiq qilingan;
- o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablari sifatida o‘z-o‘zini anglash hamda akademik motivatsiya shkalasining ahamiyatini aniqlangan;
- o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini diagnostikasi va psixokorreksiyasin o‘rganishda emotsional zo‘riqish jihatlarini ahamiyatini aniqlangan;
- o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini psixokorreksiyasini tashkil etishda psixologik trening dasturini ishlab chiqish va samaradorligini baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarda fanlarni yaxshi o‘zlashtira olmaslikka olib keluvchi omillarni aniqlashga yo‘naltirilgan metodikalar tizimi takomillashtirilgan;
- o‘quvchilarning o‘zlashtirmovchilik darajasini ularning yosh psixologik xususiyatlari, o‘quv faoliyatiga munosabati va shaxsiy motivatsiyasi bilan bog‘liq holda tahlil qilish mezonlari ishlab chiqilgan;
- o‘quvchilarda emotsional barqarorlik, o‘zini boshqara olish, ichki intizom va shaxsiy javobgarlik kabi psixologik omillar bilan bog‘liq o‘zlashtirish muammolarini differensial tahlil qilish mexanizmi ishlab chiqilgan;
- o‘zlashtirmovchilikka ega o‘quvchilar uchun shaxsiy yondashuvga asoslangan psixokorreksion mashg‘ulotlar kompleksi ishlab chiqilgan;
- o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini psixologik qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan pedagogik-psixologik trening dasturi amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma’lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko‘rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan

psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar “Ms Exsel”, “SPSS 24.0” dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik holatlarini yuzaga keltiruvchi individual, ijtimoiy va pedagogik omillarni chuqur psixologik tahlil qilishga imkon beruvchi ilmiy tasavvurlarni boyitishi bilan ifodalanadi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini belgilovchi psixologik omillarni nazariy asoslash, shuningdek, ularning o‘quv faoliyati va kognitiv jarayonlar bilan bog‘liqligini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, olingan natijalar asosida o‘zlashtirmovchilikni bartaraf etishga qaratilgan psixokorreksion va psixoprofilaktik yo‘nalishdagi ilmiy asoslangan yondashuvlar taklif etildi. Tadqiqotdan kelib chiqqan xulosalardan umumta’lim muassasalarida tashkil etiladigan seminar-treninglarda, ayniqsa, o‘qituvchilar va maktab psixologlari uchun amaliy qo‘llanma sifatida samarali foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, o‘quvchilarda uchraydigan o‘zlashtirmovchilik holatlarini erta aniqlash, ularni psixologik jihatdan to‘g‘ri baholash va bartaraf etish imkonini beruvchi metodikalarni amaliyotga joriy etish bilan belgilanadi. Olingan ma’lumotlardan umumta’lim maktablarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida, ta’lim samaradorligini oshirish, o‘zlashtirishdagi muammolarni hal qilishga xizmat qiluvchi diagnostik va psixokorreksion texnologiyalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, mazkur natijalarga tayangan holda o‘quvchilarning o‘quv faoliyati bilan bog‘liq rivojlanish qonuniyatlari yoritilgan bo‘lib, ular “Umumiy psixologiya”, “Kognitiv psixologiya”, “Pedagogik psixologiya”, “Yosh davrlar psixologiyasi” fanlariga oid darslik, o‘quv qo‘llanmalar va psixologik tushunchalar lug‘atlarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini diagnostikasi va psixokorreksiyasi yuzasidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy natijalari bo‘yicha 1 ta monografiya, 19 ta ilmiy maqola, 10 tasi O‘zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan, 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan. Tadqiqot natijalari bo‘yicha Adliya Vazirligi huzuridagi Intellektual mulk Agentligining 6 ta guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsion ish kirish, to‘rt bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi ilovalarsiz 215 betni tashkil qiladi.

# I BOB. O‘QUVCHILARDA O‘ZLASHTIRMOVCHILIK SABABLARINI O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI.

## § 1.1. O‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini o‘rganish psixologik fenomen sifatida.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishida turlicha natijalar kuzatiladi. Ularning ba’zilarida o‘quv materiallarini tez va mukammal qabul qilish, boshqalarda esa sust yoki cheklangan darajada o‘zlashtirish holatlari mavjud. Ikkinchi holat psixologik fanlarda “o‘zlashtirmovchilik” tushunchasi orqali tavsiflanadi. Bu holat oddiy akademik muvaffaqiyatsizlikdan ko‘ra chuqurroq psixologik, emotsional va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zlashtirmovchilikning sabablari shunchaki darsni tushunmaslik emas, balki ichki va tashqi ziddiyatlar, motivatsion pasayish, shaxslararo munosabatlardagi muammolar yoki psixologik moslashuvning yetishmasligi bilan izohlanadi.

Pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan o‘zlashtirmovchilik ko‘pincha ijtimoiy-psixologik moslashuvning buzilishi, o‘qituvchi va sinfdoshlar bilan o‘zaro muloqotdagi noqulaylik, o‘z-o‘ziga past baho berish, shuningdek, oilaviy muhitdagi ziddiyatlar natijasi sifatida yuzaga chiqadi. Shu bilan birga, emotsional beqarorlik, tashvish darajasi yuqoriligi, o‘qishga nisbatan salbiy munosabat kabi omillar ham o‘zlashtirmovchilikni chuqurlashtiradi. Bu holatni faqat bilim darajasidagi sustkashlik sifatida emas, balki o‘quvchining psixik faoliyatidagi disbalans natijasi sifatida ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

O‘zlashtirmovchilik fenomeni, shuningdek, kognitiv jarayonlardagi individual farqlar bilan ham izohlanadi. Ayrim o‘quvchilarda e’tiborning tarqoqligi, eslab qolishning sustligi, fikrlashning inertligi kabi funksional yetishmovchiliklar mavjud bo‘lib, ular bilimlarni mustahkamlashda qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli o‘zlashtirmovchilikni aniqlashda har tomonlama psixologik tashxis zarur: bu yerda motivatsion soha, emotsional holat, o‘z-o‘zini baholash darajasi, shaxslararo munosabatlar va o‘quv faoliyatining individual uslublari chuqur tahlil qilinishi lozim.

Bundan tashqari, o‘zlashtirmovchilikni ijtimoiy-psixologik kontekstda ham baholash muhimdir. Masalan, maktabdagi psixologik muhit, o‘qituvchining pedagogik yondashuvi, sinfdagi raqobat darajasi, oiladagi axloqiy-ruhiy iqlim ham bularning barchasi o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. O‘zlashtirmovchilik bu shunchaki bilim yetishmovchiligi emas, balki kompleks psixologik holat bo‘lib, uning negizida ko‘p omilli ta’sirlar yotadi.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, o‘zlashtirmovchilik bilan kurashish uchun faqatgina repetitorlik yoki qo‘shimcha darslar yetarli emas. Psixologik yondashuvlar – masalan, individual psixodiagnostika, motivatsion intervyular, ijtimoiy-psixologik treninglar, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘quvchilarning o‘zini anglash darajasini oshiradi, ularga o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va o‘z-o‘zini rivojlantirish yo‘llarini ochadi.

Xorij tadqiqotchilaridan, D. Perkins, H. Levin, L. Darling-Hammond, R. E. Snou va J. Hattie o‘z tadqiqotlarida o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilikning psixologik sabablarini chuqur tahlil qilgan bo‘lib, ular bu holatni ko‘proq shaxsiy motivatsiya, ijtimoiy-emotsional omillar, va o‘qitish usullarining sifati bilan bog‘laydilar. Bu olimlar bilimni amaliyotga tatbiq etish, o‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirish, emotsional barqarorlikni ta’minlash hamda ijtimoiy tenglik muhitini yaratish orqali past o‘zlashtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash mumkinligini isbotlashgan. Ularning ishlari zamonaviy pedagogikada individual yondashuv va psixologik farqlarni hisobga olish muhimligini asoslab beradi [214; 209; 203; 217; 211].

D. Perkins o‘zlashtirmovchilik muammosiga ongli bilimni qo‘llash nazariyasi orqali yondashadi. U ta’lim jarayonida o‘quvchilar nafaqat bilim olishi, balki uni real hayotda qanday qo‘llashni o‘rganishi zarurligini ta’kidlaydi. Perkinsning fikricha, o‘quvchilarning bilimni ko‘nikmaga aylantira olmasligi o‘zlashtirmovchilikning asosiy sabablaridan biridir. D. Perkins “O‘rganilgan bilim va ko‘nikmalarni yangi vaziyatlarda qo‘llash” tushunchasiga tayangan holda, bilimlarni kontekstual moslashuvda foydalana olishni muhim deb hisoblaydi.

Tadqiqotlarida u maktab tizimida amaliyot bilan bog‘liq misollar yetarli bo‘lmasa, bilim passiv qolishini qayd etadi. Perkins ko‘proq o‘rgatuvchi uslublarni

emas, balki o‘rgatuvchi muhitlarni yaratish tarafdori. U o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, yechim izlash qobiliyati va tafakkur darajasi yetarlicha rag‘batlantirilmasa, bu ularda o‘zlashtirmovchilikka olib kelishini ilmiy dalillar orqali ko‘rsatadi. Shuningdek, u individual farqlar va madaniy omillarni ham nazarga olish lozimligini urg‘ulagan [214].

H. Levin past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashda “Teshlashtirilgan maktablar” modeli orqali mashhur bo‘lgan olimdir. Uning yondashuvi, o‘zlashtirmovchilikka faqat psixologik emas, balki ijtimoiy va emotsional omillar ham sabab bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. H. Levinning ta’kidlashicha, ko‘plab o‘quvchilar o‘zlarining kam imkoniyatli ijtimoiy muhitidan kelib chiqib, o‘zlarini muvaffaqiyatsizlikka mahkum deb his qiladilar. Bu holat ularning o‘rganishga bo‘lgan ishonchini buzadi. U psixologik qo‘llab-quvvatlov, teng imkoniyatlar va shaxsiy motivatsiyani kuchaytirish orqali o‘quvchilarning akademik yutuqlarini oshirish mumkinligini asoslaydi. Levin o‘z maktab modelida o‘quvchilarning qadr-qimmati, o‘z-o‘zini hurmat qilish, ijtimoiy integratsiya kabi jihatlarni alohida e’tiborga oladi. U akademik muvaffaqiyatga olib boruvchi omillar orasida emotsional barqarorlikni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Shuningdek, Levin sinfdagi o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari va qo‘llab-quvvatlov muhitining roliga alohida urg‘u beradi [209].

L. Darling-Hammond o‘zlashtirmovchilikni o‘qitish tizimi, resurslar tengsizligi va o‘quv jarayonidagi farqlar bilan bog‘laydi. U pedagogik yondashuvlarning sifati o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini isbotlab bergan. Uning tadqiqotlarida ko‘p hollarda past o‘zlashtiruvchilarga kam e’tibor qaratilishi, ular uchun samarali dars metodikasi tanlanmasligi muammo sifatida ko‘rsatilgan. U ta’limda adolat tushunchasini ilgari surgan va o‘qituvchi malakasi, dars mazmuni hamda resurslar taqsimoti o‘zlashtirish darajasiga kuchli ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi. L. Darling-Hammond fikricha, o‘quvchilarda muvaffaqiyat hissini shakllantirish uchun individual yondashuv va psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim. U, shuningdek, ijtimoiy-emotsional o‘rganish strategiyalarining ahamiyatini asoslab bergan. Uning tadqiqotlari pedagogik amaliyotga chuqur ta’sir ko‘rsatgan va pedagogik strategiyalarni qayta ko‘rib chiqishga undagan. U o‘quvchilarni faqat

bilimlar emas, balki salohiyatli shaxslar sifatida rivojlantirish g‘oyasini ilgari suradi [203].

R. E. Snou akademik muvaffaqiyatga olib keluvchi kognitiv va affektiv komponentlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish bilan mashhur. U o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qobiliyatlari faqat aqliy salohiyat emas, balki hissiy va motivatsion omillar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Snowning fikricha, o‘quvchilarda past o‘zlashtirish ko‘pincha stress, qo‘rquv yoki ichki ishonchsizlik bilan bog‘liq bo‘ladi. U individual farqlarga e’tibor qaratish orqali, har bir o‘quvchining o‘ziga xos psixologik portretini yaratish kerakligini ilgari suradi. Uning “qobiliyat-davolashning o‘zaro ta'siri” modeli o‘quvchilarga mos o‘quv metodlarini tanlash zarurligini asoslaydi. Snow shaxslararo farqlar, hissiy fon va ijtimoiy omillarni kompleks yondashuvda o‘rganadi. U akademik muvaffaqiyatsizlikning psixologik ildizlariga chuqur nazar tashlaydi. R. E. Snou ilgari surgan tushunchalar hozirgi kunda ko‘plab zamonaviy pedagogik yondashuvlarda qo‘llanilmoqda [217].

J. Hattie “Visible Learning” tadqiqoti orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishiga ta’sir etuvchi 250 dan ortiq omilni statistik jihatdan tahlil qilgan. U muvaffaqiyatsizlikning psixologik ildizlarini baholashda “fidbek”, “o‘qituvchi-o‘quvchi munosabati” va “o‘z-o‘zini anglash” kabi omillarga e’tibor qaratadi. Hattiening tadqiqotlarida o‘quvchilarni ruhlantirish, ularga maqsadli fikr bildirish va ijobiy o‘zini anglash hissi akademik muvaffaqiyatning kaliti sifatida baholanadi. U o‘quvchilarning ichki holati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va sinfdagi emotsional muhitga doimiy urg‘u beradi. Hattiening fikricha, sinfdagi faoliyatni psixologik jihatdan sog‘lom tashkil qilish orqali past o‘zlashtirishni kamaytirish mumkin. Shuningdek, u o‘qituvchilarning emotsional ongli yondashuvi (emotional intelligence) o‘quvchilarga katta ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Uning empirik asosli tadqiqotlari maktab tizimini isloh qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. J. Hattie nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilar muvaffaqiyatsiz emas, noto‘g‘ri tashkil etilgan o‘qitish jarayoni bunga sababdir [211].

Bizningcha, o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilikning yuzaga kelishi ko‘p omilli bo‘lib, bu jarayonni faqat bilim yetishmovchiligi bilan izohlab bo‘lmaydi. Ta’lim samaradorligi o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini belgilovchi psixologik, ijtimoiy va emotsional omillarni chuqur o‘rganishni talab qiladi. Bilimlarni real hayotga tatbiq etish, kontekstda anglash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi jihatlar ta’lim jarayonining markazida turishi lozim. O‘quvchilar uchun qo‘llab-quvvatlovchi muhit, shaxsiy yondashuv, ishonch va motivatsiyani shakllantirish – o‘zlashtirish darajasini oshirishdagi muhim komponentlardir. Dars metodikasining sifati, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari va teskari aloqa ta’limdagi muvaffaqiyatni belgilovchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, individual farqlar va hissiy holatlarni inobatga olgan holda, o‘quvchiga mos pedagogik yondashuvni qo‘llash zarur. Shu orqali o‘quvchilarni faqat bilim oluvchilar emas, balki mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy jihatdan uyg‘un shaxs sifatida tarbiyalash mumkin bo‘ladi.

Pedagogik psixologiyada o‘zlashtirmovchilikni chuqur o‘rganish orqali o‘qituvchi o‘z pedagogik strategiyasini qayta ko‘rib chiqish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa differensial yondashuv, individual psixologik portretga asoslangan dars tashkil etish, emotsional muhitni optimallashtirish kabi muhim choralarni talab etadi. O‘zlashtirmovchilikning sabablari har bir o‘quvchida turlicha bo‘lishi mumkin: birida diqqatni jamlay olmaslik, boshqasida o‘ziga ishonchsizlik, yana birida esa maktab muhitiga moslasha olmaslik. Pedagogik psixologiya aynan shunday omillarni aniqlash va ular bilan ishlash usullarini ishlab chiqadi.

Mazkur fenomenni o‘rganish natijasida zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiyalash mumkin bo‘lgan psixodiagnostik vositalar, korrektsion metodlar va o‘quv motivatsiyasini kuchaytiruvchi psixologik trening dasturlari yaratiladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga, ularni maktabga nisbatan ijobiy emotsional munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonining samaradorligi bevosita o‘quvchilarning shaxsiy psixologik holatiga, o‘zini anglash darajasiga, ijtimoiy moslashuvga va stresslarga qarshi kurashish qobiliyatiga bog‘liq.

O‘zlashtirmovchilikni pedagogik psixologiya doirasida o‘rganish, ayniqsa, zamonaviy maktab sharoitida ijtimoiy ongdagi yangilanishlar, axborot oqimining ortishi, o‘zgaruvchan ta’lim muhitiga moslashish zarurati ortib borayotgan bir paytda nihoyatda dolzarb masaladir. Shuningdek, ushbu muammoni o‘rganish o‘quvchilarda ijtimoiy ongni faollashtirish, shaxsiy mas’uliyatni oshirish, o‘z faoliyatiga tanqidiy yondashuvni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Agar o‘zlashtirmovchilik sabablarini aniqlashga ilmiy asosda yondashilsa, u holda har bir o‘quvchi uchun mos psixologik ko‘mak shakllantirilishi mumkin bo‘ladi.

Tadqiqotchilar R. Feuerstein, D. Makkelland, J. Bruner, J. Piaje va B. Blum o‘z tadqiqotlarida o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik holatini nafaqat intellektual daraja, balki psixologik, motivatsion va metodik omillar bilan bog‘lashgan. Ular bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, kognitiv rivojlanish bosqichlariga mos ta’lim, ichki turtki va individual yondashuv orqali o‘quvchini faollashtirish zarurligini ta’kidlab, bu holatni ijobiy tomonga o‘zgartirish mumkinligini asoslab bergan. Ushbu olimlarning yondashuvlari zamonaviy ta’lim tizimida o‘zlashtirmovchilikka qarshi kurashishda samarali psixologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda [205; 213; 200; 201].

R. Feuerstein o‘zlashtirmovchilikni o‘quvchining intellektual salohiyati emas, balki uni rivojlantiruvchi muhit va o‘rgatish uslubidagi nuqsonlar bilan izohlaydi. U o‘quvchilarni “o‘rganishga o‘rgatish” tamoyiliga asoslangan holda o‘zgaruvchan intellekt nazariyasini ilgari surgan. R. Feuersteinga ko‘ra, hatto past baholangan o‘quvchi ham to‘g‘ri kognitiv vositalar orqali yuqori yutuqlarga erisha oladi. U o‘zining “Instrumental Enrichment” dasturi orqali o‘quvchilarni tafakkur strategiyalarini shakllantirishga yo‘naltiradi. Bu yondashuv orqali u o‘zlashtirmovchilikni psixologik jihatdan bartaraf etish mumkinligini amaliy isbotlagan. R. Feuerstein ta’limdagi standart baholash tizimlarini tanqid qilib, individual yondashuv zarurligini ta’kidlagan. Uning yondashuvida o‘quvchilarning o‘rgatuvchi muhit bilan o‘zaro ta’siri alohida o‘rin tutadi. U psixologik rivojlanish va o‘quv motivatsiyasi o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni ishonchli tahlil qilgan [205].

D. Makkelland o‘zlashtirmovchilik sabablarini asosan motivatsion omillar bilan bog‘laydi. U “yutuqqa intilish ehtiyoji” nazariyasi asosida har bir o‘quvchining ichki

turtkilari o‘zlashtirish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. D. Makkellandga ko‘ra, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar ko‘pincha o‘ziga bo‘lgan ishonchning yo‘qligi, tashqi tazyiqlar va ichki demotivatsiya tufayli orqada qoladi. U ijtimoiy muhitdagi baholash, e’tirof va ijobiy turtkilarning motivatsiyaga kuchli ta’siri borligini asoslaydi. D. Makkelland ta’lim tizimida faqat bilim emas, balki o‘quvchining psixologik kayfiyati, maqsadga yo‘naltirilganligi va ichki kuchini ham baholashni taklif qiladi. U o‘quvchilarning mustaqil harakatga bo‘lgan ehtiyojini rivojlantirish zarur deb hisoblaydi. D. Makkelland ijobiy rag‘batlar va o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati orqali past o‘zlashtiruvchilarni faollashtirish mumkinligini isbotlab bergan. Uning yondashuvi bugungi kunda o‘quv motivatsiyasi bo‘yicha asosiy nazariyalardan biri sifatida tan olinadi [213].

J. Bruner o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilikni ularning bilimni qanday olishi va uni qanday shakllantirishi bilan izohlaydi. U “konstruktiv yondashuv” tarafdori sifatida bilimning o‘quvchi ongida faol tarzda tashkil topishini ta’kidlaydi. Brunerning fikricha, o‘quvchilar o‘rgatilayotgan bilimlarni hayotiy tajribalari bilan bog‘lay olmasalar, bu o‘zlashtirmovchilikka olib keladi. U “spiral o‘quv modeli” orqali bir xil kontseptlarni turli yosh bosqichlarida qayta ishlashni taklif qilgan. Bruner uchun ta’limning mazmuni emas, balki uni qanday o‘rganish muhim hisoblanadi. U o‘quvchining qiziqishi va izlanish istagini rag‘batlantirishga alohida e’tibor beradi. J. Bruner o‘quv jarayonida til va madaniyat omillarining ta’sirini ham inobatga olgan. U ta’limni psixologik o‘sishga zamin yaratadigan jarayon sifatida baholaydi va bu bilan o‘zlashtirmovchilikning oldini olishga xizmat qiladi [200].

J. Piaje o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini kognitiv rivojlanish bosqichlari bilan bog‘lab tahlil qilgan. U inson tafakkuri muayyan bosqichlarda shakllanishini nazariy asosda bayon qilgan. J. Piajega ko‘ra, o‘quvchi bilimni o‘zlashtirishi uchun avvalo unga tayyor bo‘lishi kerak, aks holda o‘rgatilayotgan material uning psixik imkoniyatlariga mos kelmaydi. U “assimilyatsiya” va “akomodatsiya” tushunchalari orqali bilimni qabul qilish mexanizmini izohlagan. J. Piaje, ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida o‘qitish mazmuni kognitiv rivojlanish darajasiga moslashtirilmasa, o‘zlashtirmovchilik yuzaga kelishini

ko‘rsatgan. U o‘quvchilarning tafakkur tuzilmasi, muammo hal qilish qobiliyati va sabab-oqibat bog‘liqliklarini tushunish darajasini aniqlashni taklif qiladi. J. Piajening yondashuvi pedagogik psixologiyada yoshga mos ta’limni tashkil etishga asos bo‘lib xizmat qiladi. J. Piaje bilimni tayyor berilgan ma’lumot sifatida emas, balki o‘quvchining faol intellektual faoliyati mahsuli sifatida qaraydi [215].

B. Blum ta’limdagi o‘zlashtirmovchilikni baholash va maqsad qo‘yish tizimlari bilan bog‘laydi. U o‘zining mashhur “Blumning taksonomiyasi” modeli orqali bilimni chuqurlashtirish bosqichlarini aniqlab bergan. Bloom fikricha, o‘quvchilarda o‘zlashtirish muammosi bilimni faqat eslab qolish darajasida cheklab qo‘yish, tahlil qilish va amaliy qo‘llash bosqichlariga o‘ta olmaslikdan kelib chiqadi. U darslarni rejalashtirishda har bir bosqich — tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash — alohida yondashuvni talab qilishini urg‘ulaydi. Bloom o‘qituvchi faoliyati va baholash mezonlarining aniqligi o‘quvchining o‘zlashtirishiga kuchli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. U har bir o‘quvchining o‘qitishga individual javobi borligini e’tirof etgan holda, moslashtirilgan yondashuv tarafdori sifatida tanilgan. Bloomning ta’limga yondashuvi o‘quvchilarning fikrlash darajasini oshirish orqali past o‘zlashtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Uning ishlari global baholash tizimlarida asosiy konseptual model sifatida ishlatilmoqda [201].

Bizning fikrimizcha, o‘zlashtirmovchilik muammosiga oid zamonaviy psixologik yondashuvlar ushbu holatni shunchaki aqliy zaiflik yoki passivlik sifatida emas, balki o‘quv muhitidagi, metodikadagi va motivatsion tizimdagi kamchiliklarning oqibati sifatida izohlaydi. Ilmiy manbalarda o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlari cheklanmagan, balki ularni rivojlantiruvchi omillar ta'sirida shakllanishi mumkinligi ta’kidlanadi. O‘rganishga o‘rgatish, o‘zgaruvchan intellekt, kognitiv strukturani faollashtirish, ichki motivatsiyani uyg‘otish kabi yondashuvlar o‘zlashtirmovchilikni bartaraf etishga xizmat qiladi. Individual farqlarni hisobga olish, moslashtirilgan o‘qitish va baholash tizimlarini yaratish orqali o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shuningdek, konstruktivistik yondashuv, yoshga mos metodlar va amaliy bilimni shakllantirish kabi strategiyalar psixologik va pedagogik jihatdan samarali natijalar beradi. Har bir

o‘quvchi o‘ziga xos kognitiv yo‘lga ega bo‘lib, unga mos uslub va rag‘bat zarurligi ilmiy asoslangan holda isbotlangan. Bu esa ta’limni standart yondashuvlardan chiqib, shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi tizimga aylantirishni taqozo etadi.

O‘quvchilar faoliyatida bilimlarni o‘zlashtirish darajasi har doim ham bir xil bo‘lmaydi. Bu farq, eng avvalo, har bir bolaning individual psixologik xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Diqqat, xotira, fikrlash va emotsiyalar kabi psixik funksiyalar har bir o‘quvchida o‘ziga xos tarzda shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan qaraganda, o‘zlashtirmovchilikni psixologik fenomen sifatida baholashda bu funksiyalarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning rivojlanish darajasi, barqarorligi va moslashuvchanligi o‘quv faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Diqqat — o‘quvchilarda bilim olishning asosiy boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, atrofdagi axborotni tanlab olish, unga jamlanish va uni saqlab turish imkonini beradi. O‘qitilayotgan materialga nisbatan diqqatning tez chalg‘ishi yoki barqaror emasligi, ayniqsa kichik maktab yoshida, o‘zlashtirish jarayonini sezilarli darajada qiyinlashtiradi. Aytish mumkinki, o‘quvchilarning diqqat konsentratsiyasi past bo‘lsa, darslikdagi asosiy tushunchalarni ajrata olmaydi, dars davomida faollikni yo‘qotadi va bu natijada o‘zlashtirmovchilikka olib keladi.

Xotira — bilimlarni saqlab qolish va zarur holatda ularni qayta tiklash jarayonidir. O‘quv faoliyatida xotiraning turli shakllari (mexanik, mantiqiy, qisqa muddatli va uzoq muddatli) muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar orasida shundaylar borki, ular darsda aytilgan ma’lumotni eslab qolishda yoki uni mustaqil tarzda takrorlashda qiynaladilar. Bu holatda xotiraning rivojlanmaganligi yoki noto‘g‘ri o‘quv strategiyasidan foydalanish muammosi mavjud bo‘lishi mumkin. Aynan shu omil tufayli, o‘zlashtirmovchilik doimiy va murakkab tus oladi.

Fikrlash — o‘quvchining mavhumlikdan konkretlikka o‘tishi, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, sabab-oqibatni aniqlash qobiliyatidir. Fikrlashning sust rivojlangan shakli o‘quvchida dars materialini chuqur anglashga to‘sqinlik qiladi. Aqliy operatsiyalarning sekinligi, izchil emasligi yoki mantiqiy bog‘liqliklarni anglab yetishdagi murakkabliklar, ayniqsa matematik va tabiiy fanlarda o‘zlashtirmovchilikni

kuchaytiradi. Shuningdek, verbal fikrlashning sustligi til va adabiyot fanlarida bilimlarni to‘liq anglamaslikka olib keladi.

Emotsiyalar — o‘quv jarayonida o‘quvchining o‘zini qanday his qilishi, darsga bo‘lgan munosabati, o‘qituvchi bilan munosabatlardagi hissiy fonni bildiradi. Emotsional holatning beqarorligi, tashvish darajasi yuqoriligi, qo‘rquv, stress, o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik kabi hissiyotlar o‘quvchining bilimlarni qabul qilish jarayonini sezilarli darajada cheklaydi. Emotsional noqulaylik o‘qishga nisbatan salbiy munosabatni shakllantiradi va bu esa, o‘z navbatida, o‘zlashtirmovchilikning doimiy sababi bo‘lib qoladi [202].

G‘arb psixolog olimlaridan H. Gardner, C. Dvek va Albert Bandura o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilikning psixologik ildizlarini o‘ziga xos nazariyalar orqali yoritgan bo‘lib, ular bu muammoni intellekt turlarining xilma-xilligi, fikrlash uslubining o‘zgaruvchanligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchning yetishmasligi bilan bog‘lashgan. Ushbu olimlar har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari va ichki motivatsiyasiga moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish orqali bilimni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish imkonini kuchaytirish mumkinligini ilmiy asosda isbotlashgan. Ularning yondashuvlari zamonaviy pedagogik amaliyotda differensial ta’lim va psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda [206; 204; 199].

H. Gardner o‘zining mashhur “Ko‘p qirrali intellekt nazariyasi” orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishdagi farqlarini individual intellekt turlari bilan izohlaydi. Unga ko‘ra, o‘quvchilarning muvaffaqiyatsizligi ko‘pincha ularning o‘quv uslubiga mos kelmaydigan yondashuvlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Gardner har bir insonda turli xil intellekt turlari (masalan, musiqiy, mantiqiy, tanaviy, shaxslararo, vizual va boshqalar) rivojlanganligini e’tirof etadi. Shu asosda, maktab tizimida yagona test va baholash uslublarining ustunligi ayrim o‘quvchilarning imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qiladi. U o‘zlashtirmovchilikni bola qobiliyatini to‘g‘ri anglamaslik va tor doiradagi o‘qitish standartlari bilan bog‘laydi. H. Gardnerga ko‘ra, har bir o‘quvchining kuchli intellekt turini aniqlab, unga mos o‘quv muhit yaratish zarur. Bu yondashuv orqali o‘quvchi o‘zini muvaffaqiyatli his qiladi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichi

ijobiy o‘zgaradi.H. Gardnerning yondashuvi zamonaviy differensial o‘qitishning nazariy asosini tashkil etadi [206].

C.Dvek o‘z tadqiqotlarida o‘quvchilarning muvaffaqiyatsizligi va o‘zlashtirmovchilik sabablarini asosan psixologik munosabatlar bilan izohlaydi. U “fikr tarzlari” (mindset) nazariyasida “o‘suvchi” va “qotib qolgan” fikrlash uslublarini farqlaydi. Qotib qolgan fikr tarzidagi o‘quvchilar muvaffaqiyatsizlikni o‘z salohiyatining yetishmasligi bilan bog‘laydi va harakatdan to‘xtaydi. Bunday o‘quvchilar, odatda, yangi chaqiriqlarni qabul qilishdan cho‘chiydi va tanqidni salbiy qabul qiladi. Aksincha, o‘suvchi fikr tarziga ega bo‘lgan o‘quvchilar muvaffaqiyatsizlikni vaqtincha to‘siq deb biladi va undan saboq olishga harakat qiladi. C. Dvekga ko‘ra, o‘quvchilarni o‘rganishga undashda rag‘batlantirish uslublari va baholashdagi til muhim o‘rin tutadi. U harakat va sa’y-harakatni maqtash orqali o‘quvchida ijobiy o‘zgarishlarni keltirish mumkinligini ta’kidlaydi. C. Dvekning bu yondashuvi o‘quvchilarda motivatsiyani kuchaytirish va o‘zlashtirmovchilikni kamaytirishda samarali deb topilgan [204].

A. Bandura o‘zlashtirmovchilikni psixologik o‘ziga ishonch — ya’ni “o‘z-o‘zini samaradorlik” tushunchasi orqali tahlil qiladi. Unga ko‘ra, o‘ziga ishongan o‘quvchi yangi bilimlarni qabul qilishda ijobiy harakat qiladi va qiyinchiliklardan cho‘chimaydi. Aksincha, o‘ziga bo‘lgan ishonchi past o‘quvchilar vazifani bajarishdan oldin muvaffaqiyatsizlikni kutadi va harakat qilmaslikni afzal ko‘radi. Bandura bu holatni ijtimoiy ta’sir va tajriba asosida shakllangan ichki e’tiqodlar bilan bog‘laydi. U nazariy jihatdan 4 asosiy manbani ko‘rsatadi: shaxsiy tajriba, kuzatuv asosidagi o‘rganish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va emotsional holat. Bu omillar o‘quvchining o ‘zini qanday baholashi va o‘qishga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Bandura ijtimoiy o‘rganish nazariyasini asos qilib, o‘quv muhitidagi ijobiy rol modellari orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, pedagogik ta’sir faqat bilim emas, balki ishonch va ijobiy emotsiyalarga ham qaratilishi lozim [199].

Nazarimizda, o‘zlashtirmovchilik masalasiga zamonaviy psixologlar turli nazariy yondashuvlar orqali chuqur izoh berishgan bo‘lib, bu yondashuvlar o‘quvchilar

salohiyatini to‘g‘ri ochish, baholash va rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarda o‘zlashtirishdagi farqlar ularning intellekt turlaridagi individual tafovutlar, psixologik holati va o‘ziga bo‘lgan munosabati bilan bevosita bog‘liq. Har bir o‘quvchining kuchli jihatini aniqlab, unga mos o‘quv uslubini qo‘llash, uning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshiradi. Qotib qolgan fikrlash tarzidan o‘suvchi fikrlashga o‘tish, o‘quvchini harakatga undash va muvaffaqiyatsizlikni vaqtinchalik holat sifatida qabul qilishni o‘rgatish muhim psixologik resurs hisoblanadi. Shuningdek, o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash va o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasini oshirish orqali o‘quv faoliyatiga ijobiy munosabat shakllantirish mumkin. O‘qituvchining roli faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, balki ishonch uyg‘otish, emotsional qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy rol modeli bo‘lish orqali yanada kuchayadi. Shu boisdan, zamonaviy ta’limda differensial yondashuv, ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlov va ichki motivatsiyani shakllantirish vositalari o‘zlashtirmovchilikni kamaytirishning asosiy omillari sifatida qaralmoqda.

Y.E. Torrens tomonidan ishlab chiqilgan metodika o‘quvchilarning javoblaridagi kam uchraydiganlik darajasi orqali ularning original fikrlash salohiyatini baholash imkonini beradi [219]. G. Alder bu borada konvergent tafakkurni alohida urg‘ulab, uni muayyan vazifani faqat yagona to‘g‘ri yechimga olib keluvchi intellektual faoliyat, zarur hollarda esa detallashtirilgan tahlil qilish qobiliyati sifatida talqin etadi. Shu bilan birga, divergent tafakkur esa konvergent tafakkurga zid bo‘lib, ochiq fikrlilik va cheklanmagan javoblar erkinligini taqozo etadi. Bunday tafakkur turida yagona to‘g‘ri yechim mavjud emas, bu esa ijodkorlikning ajralmas ichki xususiyatiga aylanadi. Shunga ko‘ra, kreativlikni o‘lchashda qo‘llaniladigan psixometrik vositalar aynan mana shu noan’anaviy fikrlash asosida shakllantirilgan.

G. Alder fikricha, oldindan aniq natijasi noma’lum bo‘lgan, murakkab va noaniq masalalarni hal etishga tayyorlik, shuningdek, jamiyatda keng qabul qilingan qarashlarga qarshi chiqish — aynan ijodiy shaxsga xos yetakchi fazilatlardandir [197]. D. Gilford esa ilk bor ijodiy tafakkur konsepsiyasini sistematik tarzda ishlab chiqishga harakat qilgan. U o‘z qarashlarida ijodkorlikni to‘rtta ustuvor ko‘rsatkich asosida tavsiflagan:

Yangicha, noodatiy, o‘ziga xos fikrlarni taklif etish orqali intellektual yangilikka intilish. Ijodkor odam har qanday holatda o‘z nuqtai nazarini ilgari surishga intiladi.

Ma’noviy egiluvchanlik — ya’ni mavjud obyektga boshqa ko‘z bilan qarash, uni ilgari ko‘rilmagan usullarda qo‘llash va amaliy foydasini kengaytirish.

Kutilmagan fikr egiluvchanligi — yangi vaziyatda ilgari mavjud bo‘lmagan, mavzuga bevosita aloqasi bo‘lmagan g‘oyalarni izchil sinab ko‘rish.

Ilmiy adabiyotlarda ijodiy tafakkurga ko‘plab izohlar berilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati D. Gilford taklif etgan konseptual doiradan chiqib keta olmagan. Ijodiy muammoni tezkor hal etish jarayonida psixologlar tomonidan bir nechta to‘siqli sharoitlar aniqlangan bo‘lib, ular quyidagicha umumlashtiriladi:

Agar ilgari o‘quvchi biror topshiriqni muvaffaqiyatli hal etgan bo‘lsa, yangi topshiriqqa duch kelganda ham avvalgi usulni avtomatik qo‘llashga harakat qiladi. Bu esa yangi yechim izlashga bo‘lgan ehtiyojni susaytiradi.

Qaysidir topshiriqni bajarish uchun o‘quvchi qancha ko‘p kuch sarflagan bo‘lsa, kelgusida shu yo‘l bilan yechim topishga urinishi shunchalik ehtimollik bilan yuz beradi. Psixologik nuqtai nazardan, avvalgi usulga tayanish inson ongida energiya tejalishiga teng ravishda yuz beradi [46].

Mustaqil fikrlash shakli sifatida qaraluvchi kreativlik — bu yangilik yaratishga, o‘ziga xos, o‘zgaruvchan va me’yordan chiqadigan fikrlar hosil qilishga qaratilgan tafakkur mahsulidir. Jamiyat taraqqiyotini ta’minlaydigan bu jarayon, ayniqsa o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ijodiy faoliyat ayrim hollarda mavjud ijtimoiy me’yorlarga to‘g‘ri kelmasligi mumkin, biroq bu ijodkorning huquqiy va axloqiy normalarni buzayotganini anglatmaydi. Aksincha, bunday yondashuv ijtimoiy guruhdagi yangilanish va rivojlanishning asosi bo‘lishi mumkin.

G‘arb psixologiyasi inson ongida ikkita faol holat mavjudligini tan oladi: biri – hushyorlik, ya’ni faol ong holati; ikkinchisi esa – dam olish holati bo‘lmish uyqu davri. Faol holatda bo‘lgan shaxs atrof-muhitdan uzatilayotgan ma’lumotlarni qabul qiladi, ularni saralaydi va talqin etadi. Bu ma’lumotlarning bir qismi xotirada saqlanadi,

qolganlari esa ilgari shakllangan bilim va ko‘nikmalarga tayanib, shaxsning tegishli yoki nomuvofiq xatti-harakatlari orqali ifodalanadi [90], [116].

O‘quvchi shaxsning qandaydir voqeani idrok etishi ko‘proq uning psixologik holati, ruhiy tarangligi hamda ichki qiziqish darajasi bilan belgilanadi. Agar o‘quvchi ruhiy tushkunlik, emotsional bosim yoki qayg‘u holatida bo‘lsa, bu holat sezgi tizimlarining faoliyatini susaytiradi. Natijada, u tashqi muhitda ro‘y berayotgan aksar hodisalarni anglab yetolmaydi, ijodiy faoliyati va boshqa psixik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada pasayadi.

D. Xebbning ta’kidlashicha, shaxsiy ruhiy taranglik ikki asosiy holatga bo‘linadi. Birinchi turdagi holatlar davriy ravishda takrorlanib turadi va shaxsning odatiy hayot tartibi bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilarda bu holat, odatda, kundalik dars jarayonida yoki baholashlarga tayyorgarlik ko‘rishda yuzaga keladi. Bunday sharoitda o‘quvchi o‘zining mavjud imkoniyatlari doirasida optimal aqliy faollikni namoyon etadi [207].

Ikkinchi turdagi holatlar esa ancha kam uchraydi, kuchli psixik kechinmalar bilan kechadi va ko‘proq favqulodda vaziyatlarda yuzaga keladi. Bunda o‘quvchining individual xususiyatlariga qarab, psixik tizimlar izchil faoliyat yuritmaydi. Natijada, u passivlik, loqaydlik, ishtiyoqsizlik yoki, aksincha, haddan ortiq faollik, ruhiy ko‘tarinkilik holatiga tushishi mumkin. Bunday holat qisqa muddatli bo‘lib, uni yuzaga keltirgan tashqi omil yo‘qolgunga qadar ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat ayrim hollarda o‘quvchining aqliy falajlanishiga sabab bo‘lsa, boshqa holatlarda esa uning maksimal ichki resurslarini safarbar etadi.

Ko‘plab o‘quvchilar uchun ikkinchi guruhdagi holatlar stress manbaiga aylanadi. Ular bo‘lajak voqeaning oqibatlarini oldindan his qilishadi va nazoratga olishga urinadilar. Ammo nazorat imkoniyati bo‘lmaganda, organizmda psixologik himoya tizimi ishga tushadi. Bu himoya mexanizmlari – o‘zlashtirmovchilik holatlarining ortida yotuvchi eng muhim psixik omillardandir.

Shuni unutmaslik lozimki, har bir shaxs o‘ziga xos psixik javob shakliga ega. Shu sababli, bir xil o‘quv muhitida bo‘lgan o‘quvchilar turlicha ruhiy bosqichlardan o‘tadi va ularning faoliyatdagi ishtiroki, o‘rganishga bo‘lgan munosabati ham

farqlanadi. Ushbu jarayonlar, birinchi navbatda, oʻquvchining ichki holati va shaxsiy imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Har qanday psixik holat shaxs ichki dunyosida dominant kuchlarga aylanadi. Bu kuchlar esa bevosita yoki bilvosita ravishda oʻquvchining xulq-atvori, oʻquvga boʻlgan munosabati va oʻzlashtirish darajasi orqali namoyon boʻladi. Shu sababli, oʻquvchilarda oʻzlashtirmovchilik sabablarini tahlil qilishda ularning ruhiy holati, emotsional barqarorligi va stressga chidamlilik darajasi alohida ahamiyat kasb etadi.
Yuqorida tahlil qilingan kontekstdan kelib chiqib, psixik holatlar va psixik jarayonlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar fizika fanida kuzatiladigan tizimlarning holati bilan, hamda ushbu tizimlarni yangilovchi jarayonlar va hodisalar oʻrtasidagi bogʻliqlik bilan ma’lum bir darajada oʻxshashlik kasb etadi. D. Xebb tomonidan izohlangan Yerkes-Dodson qonuni asosida shuni aytish mumkinki, oʻquvchi faoliyatining samaradorligi koʻproq hushyorlik (ya’ni psixik tetiklik)ning optimal darajasiga yaqinlashgan hollarda ortadi. Agar hushyorlik darajasi yetarli boʻlmasa, oʻquvchi faoliyatsiz boʻlib qoladi, haddan ziyod yuqori boʻlsa esa — hissiy zoʻriqish va ruhiy ovoragarchilik holatlari vujudga keladi [207].

Masalan, chet el psixologiyasida A. Maslou va K. Rodjers muvaffaqiyatni insonning oʻzini anglash darajasi va ichki motivatsiyasi bilan bogʻlab tahlil qilganlar [123]. Oʻzlashtirishga erishish, ularning nuqtai nazarida, faqat tashqi ragʻbat bilan emas, balki ichki ehtiyojlar uygʻunligida shakllanadi. Bu fikr Z. Assajioli tomonidan ilgari surilgan psixosintez nazariyasida ham oʻz aksini topgan boʻlib, u psixoterapiya orqali oʻzini anglash va oʻzini rivojlantirish jarayonining nazariy va metodologik poydevorini yaratgan.

Neyrolingvistik dasturlashga asos solgan olimlar R. Bendler va D. Grinder [198] oʻzlashtirishga olib boruvchi ichki manbalarni topishga uringan. Ularning izlanishlari D. Karnegi [202], M. Atkinson [195] kabi amaliyotchilar faoliyatida ham oʻz aksini topgan. Bularning barchasi oʻquvchining oʻz-oʻzini rivojlantirishga intilishida muhim psixologik negiz boʻlib xizmat qiladi.

Mashhur tadqiqotchi F. Xoppe shunday fikr bildirgan: “Har bir inson oʻz ichki idealiga erishishni istaydi va bu intilish uning harakatlarida aniq namoyon boʻladi”. U

laboratoriya tajribalari orqali shaxsning har bir faoliyat harakati ortida qanday ma'no yashiringanini hamda idealga yetishish yo'llarini aniqlashga harakat qilgan. Aynan mana shu jihatlar o'quvchilarda o'zlashtirish darajasining individual tafovutlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

F. Xoppe izlanishlarida shaxs "Men" obrazini eng yuqori darajada barqaror saqlab turish holatlarini chuqur o'rganadi. Gestalt psixologiyasi ham bu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi — bu yo'nalishda o'zlashtirish "ichki ideal" va "Men" darajalari o'rtasidagi uyg'unlik orqali amalga oshiriladi [173].

Amerikalik psixolog E. Eriksonning ontogenez nazariyasi doirasida ishlab chiqilgan zamonaviy ego-psixologiya yondashuvi ham aynan o'zlashtirish mexanizmlarini tushuntirib beradi. Erikson fikricha, ego shaxsning hayotida qarama-qarshi bosqichlar va tajribalarni uyg'unlashtirib, yaxlit sintetik tizimni yaratishda asosiy rolni bajaradi. Buning uchun ego shaxsiy harakatlarni boshqarish, hodisalarni baholash, stress omillariga qarshi psixologik himoya mexanizmlarini faollashtirish kabi vositalarni ishlab chiqadi [84].

Shaxsning o'quv faoliyatidagi ishtirokiga ko'plab tashqi omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy muhit, yaqin doira — do'stlar, va ijtimoiy jamiyat tomonidan ilgari surilayotgan kutishlar, mas'uliyatli yondashuvni shakllantiruvchi kuchli motivatorlar sirasiga kiradi. Aynan shunday tashqi ta'sirlar o'quv jarayoniga jiddiy yondashishga, maqsadli harakat qilishga turtki bo'lishi mumkin. O'rganish davomida olinadigan baholar, reyting tizimi va oraliq natijalar insonning muvaffaqiyatga intilishini rag'batlantiradi. Ko'plab holatlarda shaxs yuqori bahoga erishish istagida bo'lib, yanada ko'proq mehnat qiladi.

Tashqi motivatsiyani kuchaytiruvchi vositalar ichida moddiy rag'bat (masalan, stipendiya yoki grantlar) va ma'naviy rag'bat (pedagoglar tomonidan bildirilgan e'tirof, o'qishdagi yutuqlar uchun beriladigan sovg'a yoki mukofotlar) alohida o'rin tutadi. Bularning barchasi bilimlarni egallash jarayoniga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Z. Freyd motivatsiyani to'liq energiyaga asoslangan ichki kuch sifatida ko'rib chiqadi. Uning qarashlarida motivatsiya insondagi tajriba va unga beriladigan javob

reaksiyasi bilan bog'liq energetik omil hisoblanadi. Braun va Farber esa motivatsiyani faqat energiyaviy emas, balki assotsiativ boshqaruvning alohida dinamik funksiyasi sifatida ham izohlaganlar [86].

Motivatsiya hodisasining ichki tuzilmasi ierarxik xarakterga ega bo'lib, bu holat tizimli hodisalar doirasiga kiradi. Shuning uchun motivatsion sohani har tomonlama tahlil qilishda ierarxiyaga ega bo'lgan tarkibiy qismlar o'rtasidagi aloqadorliklar alohida tahlil etilishi zarur. Bunday yondashuvda eng muhim vazifa — turli psixologik hodisalar o'rtasidagi tizimli munosabatlarni ochib berishdan iborat bo'ladi.

R.S. Vaysman bu borada motivatsion tizimni chuqur o'rganib, uning murakkab va ko'p darajali tuzilmasini tahlil qilgan [169]. Uning fikricha, motivatsion tizimning tuzilmasi — bu motivatsion o'zgaruvchilar o'rtasidagi turli xil munosabatlarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Bunday munosabatlardan biri — bu ierarxik munosabat bo'lib, unda ehtiyojlarning ustuvorlik tartibi belgilanadi. Ikkinchi turdagi aloqa esa "ro'yobga chiqarish" munosabati deb yuritiladi. Bu degani, bir ehtiyojni qondirish jarayonida bir nechta motivlar birgalikda ishga tushadi. Uchinchi ko'rinishdagi munosabat esa shundaki, turli ehtiyojlarni qondirishda bir xil motiv harakatga keladi yoki aksincha, bitta ehtiyojni turli xil motivlar ta'minlaydi. Bu munosabat turi "o'zaro tobelik" deb nomlanadi.

Bizning xulosamizcha o'quvchilarda o'zlashtirmovchilik sabablarini tahlil etishda yuqoridagi ilmiy qarashlar asosida ularning individual psixologik holatlari, ego sintetik qobiliyatlari, idealga intilish darajalari, o'zini anglash motivlari va stressga qarshi barqarorligi kabi omillar chuqur tahlil qilinishi lozim. Bu omillar faqat o'zlashtirish darajasining tashqi ko'rinishlarini emas, balki ularning psixologik ildizlarini ochib beradi.

## § 1.2. O'quvchilarda o'zlashtirmovchilik sabablarini o'rganishning psixologik asoslari

O'quvchilarda o'zlashtirmovchilik holatini psixologik jihatdan tahlil qilish, nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki har bir o'quvchining individual rivojlanishini

ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. O‘zlashtirmovchilik shunchaki bilim yetishmasligi yoki diqqatning pasayishi emas, balki murakkab psixologik omillar tizimining natijasidir. Bu holatni chuqur o‘rganish uchun zamonaviy psixologiya o‘quvchining ruhiy holati, motivatsiya darajasi, aqliy rivojlanish bosqichi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqasini inobatga oladi.

Avvalo, o‘zlashtirmovchilikning psixologik ildizlarini anglash uchun shaxsning kognitiv rivojlanish darajasiga e’tibor qaratish lozim. Kognitiv psixologiya vakillari, xususan, J. Piaje, o‘quvchining bilimni o‘zlashtira olishi uning aqliy rivojlanish bosqichlariga to‘g‘ri mos kelgan taqdirda samarali bo‘lishini ta’kidlaydi. Ya’ni, bola tayyor bo‘lmagan bilimni taqdim etish, uning psixik imkoniyatlari bilan zidlikka olib keladi va natijada o‘zlashtirmovchilik yuzaga keladi. Bu jihatdan, o‘quvchining yoshiga va psixologik salohiyatiga mos metodik yondashuv tanlash pedagogik faoliyatning psixologik asosi sifatida qaraladi.

Shuningdek, shaxsning motivatsion sohasi ham o‘zlashtirmovchilik sabablarini tushuntirishda alohida o‘rin tutadi. Ayrim o‘quvchilar bilim olishga bo‘lgan ichki qiziqish yoki turtkidan mahrum bo‘lishi mumkin. Bu holat psixologik jihatdan «ichki demotivatsiya» deb ataladi va ko‘pincha o‘ziga bo‘lgan past baho, ilgari yuz bergan muvaffaqiyatsizliklar yoki salbiy baholanish tajribasidan kelib chiqadi. Psixolog A. Bandura ilgari surgan “o‘z-o‘zini samarali baholash” nazariyasi asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi yuqori o‘quvchilar qiyin vazifalarda ham faol qatnashadi, ishonchi past bo‘lganlar esa harakatdan cho‘chiydi. Demak, o‘zlashtirmovchilikni kamaytirish uchun o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan munosabatini mustahkamlash zarur [215].

Bundan tashqari, emotsional holat va stressga chidamlilik darajasi ham o‘zlashtirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ruhiy taranglik, emotsional beqarorlik, oilaviy yoki ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq ichki ziddiyatlar sezgi va aqliy jarayonlarning faoliyatini susaytiradi. Bunday holatlarda o‘quvchi tashqi muhitdagi ma’lumotlarga nisbatan loqayd bo‘lib qoladi yoki chalg‘uvchanlik kuchayadi. Psixolog D. Xebb bu jarayonni ikki turdagi ruhiy faollik holati orqali izohlagan: kundalik

taranglik va favqulodda psixik zo‘riqish. Har ikkisi ham o‘quv faoliyatiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi va o‘zlashtirmovchilikning yuzaga kelishida asosiy vositachilardan biri sifatida ko‘riladi [173].

Psixologik yondashuvlar orasida shaxsning ijtimoiy o‘rni, sinfdagi mavqei, o‘qituvchi bilan munosabatlari, tengdoshlar bilan aloqasi kabi omillar ham chuqur o‘rganiladi. O‘ziga bo‘lgan ishonchning shakllanishi ko‘p jihatdan atrof-muhitdagi ijtimoiy baholash va ijobiy turtkilar bilan belgilanadi. Agar o‘quvchi doimiy salbiy fikrlar, befarqlik yoki haddan ortiq tanqid ostida qolsa, u o‘z imkoniyatlariga shubha bilan qaraydi, bu esa o‘zlashtirmovchilikka olib keladi.

Shaxsning o‘zini namoyon etish shakli sifatida mustaqil fikrlash faoliyatini baholashda A.F. Lazurskiy tomonidan ishlab chiqilgan klassifikatsiya asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvda, shaxsning psixik kuchi va tashqi faoliyatdagi qatnashuv darajasi asosiy mezon sifatida qaraladi. Shaxs tipi va uni o‘rab turgan tashqi muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga qarab uch bosqichli tizim shakllantirilgan. Ushbu bosqichlar o‘zlashtirmovchilikning psixologik ildizlarini aniqlashda ham alohida o‘rin egallaydi.

Birinchi bosqichda, past psixik darajadagi individlar tasvirlanadi. Ular tashqi shart-sharoitlar ta’siriga nisbatan zaif moslashadi, ruhiy barqarorlik past bo‘lib, faol o‘rganishga bo‘lgan ichki tayyorgarlik sezilarli darajada cheklangan. Bu holat o‘quv faoliyatida o‘zlashtirishning sust ketishiga olib keladi, chunki tashqi muhit kuchliroq rol o‘ynab, psixik zaiflik o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Ikkinchi darajada, shaxs tashqi muhitga sezilarli darajada moslashadi, ya’ni u o‘zining ichki psixik muvozanatini tashqi talablar bilan uyg‘unlashtira oladi. Bunday holatlarda o‘quvchilar o‘rganishga mos, barqaror va ko‘nikuvchan bo‘lishadi. Bu esa o‘zlashtirishda nisbatan barqaror natijalarga olib keladi.

Uchinchi darajadagi rivojlanish bosqichida esa shaxs tashqi muhitga moslashish bilan chekalanmaydi, balki uni o‘zining ehtiyojlari, qiziqishlari va maqsadlariga ko‘ra o‘zgartirishga harakat qiladi. A.F. Lazurskiy bu bosqichni ijodiy yondashuv, tashabbuskorlik va innovatsion fikrlashning faol namoyoni sifatida baholaydi. Aynan shu darajadagi shaxslar o‘zlashtirmovchilikdan aziyat chekish o‘rniga, mavjud

bilimlarni yangicha yo‘nalishda qayta ishlay olish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bundaylar faoliyatni o‘zlari shakllantiradi, ularda mustaqil fikrlash yuqori, vazifalarga yondashuv esa original bo‘ladi [116].

Ayrim hollarda original fikrlilik, shaxsdagi maqtanchoqlik yoki ruhiy holatdagi muvozanatsizlik bilan adashtirilishi mumkin. Bu esa noto‘g‘ri diagnostika yoki o‘qituvchining noto‘g‘ri yondashuviga olib keladi. Shu bois, ijodiy tafakkurni baholashda mutaxassislar, xususan V.N. Drujinin, divergent tafakkur testlaridan, psixologik so‘rovnomalardan va faoliyat samaradorligining real ko‘rsatkichlaridan foydalanishni taklif qilishadi. O‘quvchilarda yuqori darajadagi orijinallik ba’zida emotsional beqarorlik yoki ichki keskinliklar bilan kechishi ham mumkin, bu esa o‘zlashtirmovchilikni psixologik fenomen sifatida chuqur tahlil qilish zaruratini tug‘diradi [.

Rossiya psixologiya maktabi vakillari F.D. Gorbov, N.N. Naenko, O.V. Ovchinnikova, A.I. Puney, Yu.E. Sosnovikova, O.A. Chernikova va boshqalar psixik holatning shaxs faoliyatiga ta’sirini shifokorlar, sportchilar, operatorlar kabi kasbiy guruhlar misolida chuqur o‘rganishgan. Ularning izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, o‘quv faoliyati psixik mobilizatsiyani talab qiladigan muhit bo‘lib, shaxsning o‘zini anglash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa o‘zlashtirmovchilik muammosining faqatgina tashqi pedagogik muammo emas, balki chuqur individual psixologik mexanizmlar bilan bog‘liq ekanini anglatadi [185].

S.L. Rubinshteyn psixik holatning ahamiyatini chuqur tahlil qilgan holda, uni inson ruhiy hayotining “fon”i sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, aynan mana shu fonli holat doirasida ruhiy jarayonlar faoliyatga kirishadi, shaxsning tashabbuskorlik darajasi, ruhiy quvvati va faolligi aynan shu umumiy psixik fon orqali namoyon bo‘ladi. Bunday holat nafaqat shaxsning harakatga tayyorgarligini belgilaydi, balki faoliyatga o‘tishda yordam berishi yoki, aksincha, uni sekinlashtirib qo‘yishi mumkin. Ruhiy fon, shuningdek, o‘zlashtirish jarayonida shaxsni rag‘batlantiruvchi yoki to‘sqinlik qiluvchi kuch sifatida ishtirok etadi. Ayniqsa, bu holat o‘quv faoliyati va muloqot sharoitlarida kuchliroq namoyon bo‘lib, yangi psixik holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi [141].

O‘zlashtirmovchilik holatida muammo yuzaga kelganida, ya’ni bilimlarni egallashdagi to‘siqlar aniq bo‘lganida, mavjud yondashuvlar ko‘pincha yangi yechimlar ishlab chiqilishiga to‘sqinlik qiladi. Shaxs odatiy fikrlash shakllariga yopishib qolganida, noan’anaviy yo‘llarni qidirish jarayoni cheklanadi. Bu holatda mustaqil tafakkurning o‘rni muhim bo‘lib, muammoning ildizini ochish va uni yangi usullar orqali hal qilish ehtiyoji yuzaga chiqadi. B.M. Kedrovning izlanishlarida keltirilishicha, voqelikdagi chuqur ma’noni anglash, ya’ni yashirin mohiyatni kashf etish faqat mustaqil va erkin fikrlash orqali amalga oshiriladi. Uning fikriga ko‘ra, klassik tafakkur doirasida qolib ketish insonni intellektual taraqqiyotdan cheklaydi. Tadqiqotchi ta’kidlaganidek, izlanish jarayonida fikrlovchi ongga ta’sir etuvchi tasodifiy bir omil tafakkur yo‘nalishini o‘zgartiradi va bu holat muammoning ilgari ko‘rilmagan yechimiga olib kelishi mumkin. Masalan, Nyutonning tajribasidagi mashhur olma voqeasi fikrga yo‘nalish bergan voqealardan biridir [102].

Yangi g‘oyalar aksariyat hollarda turli faktlar yoki bilim sohalari kesishgan nuqtalarda vujudga keladi. Tor mutaxassislik doirasidan tashqariga chiqa olgan shaxslar voqelikni kengroq kontekstdan anglab, istiqbollarni ilg‘ashga muvaffaq bo‘lishadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga ham bevosita ta’sir qiladi. Tashqi turtki va ichki ruhiy holat uyg‘unlashganda, yangicha fikrlashga asoslangan o‘quv strategiyalari shakllanadi. Ana shunday holatlarda o‘zlashtirmovchilik oddiy qiyinchilik emas, balki yangi ijodiy imkoniyatlar uchun signal sifatida qaraladi.

Fikrimizcha, o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik holatini tahlil qilishda shaxsning umumiy psixik holati — ya’ni ichki ruhiy foni hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqadi. Bu fonli holat shaxsning tashabbuskorligi, faolligi va faoliyatga nisbatan tayyorgarlik darajasini belgilaydi hamda o‘zlashtirish jarayonining qanday kechishini aniqlaydi. Agar psixik fon ijobiy bo‘lsa, o‘quvchi rag‘batlangan, faol va erkin fikrlovchi holatda bo‘ladi, salbiy fon esa fikr torayishiga, odatiy yondashuvlarga yopishib qolishga olib keladi. Shunday vaziyatda mustaqil fikrlash, noan’anaviy yechimlarni qidirish va yashirin mohiyatni anglashga bo‘lgan qobiliyat ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quv faoliyatida yangi strategiyalar aynan tashqi va ichki

turtkilarning uyg‘unlashuvi natijasida vujudga keladi. Bunday holat o‘zlashtirmovchilikni muammo sifatida emas, balki intellektual o‘sish va ijodiy rivojlanish uchun imkoniyat sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, o‘zlashtirmovchilik psixologik to‘siq emas, balki yangicha tafakkur va kengroq dunyoqarash uchun zarur bo‘lgan ichki ehtiyoj shaklida namoyon bo‘ladi.

N.S. Leytes tomonidan ilgari surilgan g‘oyaga ko‘ra, insonning ijodiy faoliyati — bu murakkab va ko‘p bosqichli tizim bo‘lib, u o‘z ichiga bir nechta ichki kichik tizimlarni oladi. Jumladan, bu jarayon tarkibida ijodiy harakatlar ketma-ketligi, ijod mahsuli, shaxsning o‘zi, shuningdek, atrof-muhit va tashqi sharoitlar mavjud. Har bir komponent alohida struktura va psixologik asosga ega. Misol uchun, ijodiy jarayon muayyan vazifani ilgari surish, fikrni hosil qilish va uni amalga oshirish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Shaxsiy komponent — bu qobiliyatlar, intellektual daraja, temperament, yosh va xarakter kabi psixologik xususiyatlarga bog‘liq bo‘lsa, tashqi muhit — ijtimoiy guruh, stimul va to‘siqlarni o‘z ichiga oladi [113].

Shaxsda mustaqil fikrlashni shakllantirish va uni namoyon etishga nima turtki beradi? Ushbu savolga javob izlash — ijodkor insonni qanday omillar shakllantirishini aniqlashga xizmat qiladi. Ijodiy faoliyatda motivatsiya muhim rol o‘ynaydi va psixologik izlanishlar ichki omillarning ustuvorligini ko‘rsatmoqda. Quyida bunday ichki omillarning ayrimlari izohlanadi:

Irsiy qiziqish va o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj. Har bir inson, ayniqsa o‘smirlar o‘zlarining atrof-muhitini faol o‘rganishga moyil bo‘ladi. Bu izlanish ehtiyoji — yangi vaziyatlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va muammoni ijodiy yondashuv bilan hal etishga majbur etadi. O‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilikni bartaraf etishda aynan qiziqish orqali mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Saqlanish va yashash instinkti. Inson hayotini davom ettirishga bo‘lgan ehtiyoj ekstremal sharoitlarda kuchayadi. Bu kabi sharoitlarda yangi yondashuv va ijodiy qarorlar orqali hayotiy muammolar hal qilinadi. Tarixiy tajribalar ko‘rsatadiki, kuchli bosim ostida yuzaga kelgan ixtirolar ko‘p hollarda shu instinktga tayanadi.

Moddiy ehtiyojlarni qondirish. Insoniyat tomonidan yaratilgan ko‘plab texnik yangiliklar — oziq-ovqat, boshpana, kiyim-kechak kabi dastlabki ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan. Jahon patent bazasidagi muhim kashfiyotlarning aksariyati aynan bu ehtiyojlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish. Inson hayotida moddiy talablar qondirilgach, o‘zining jamiyatdagi o‘rnini anglash, tan olinishni istash, shaxsiy hurmatga erishish kabi ehtiyojlar kuchayadi. Bu ehtiyojlar mustaqil fikrlashni, o‘zining qadrini anglashni, boshqalar oldida o‘zini ko‘rsatish ehtiyojini kuchaytiradi. Bunday ehtiyoj ijodiy faoliyatga kuchli motivatsion turtki bo‘ladi.

Shaxsiy manfaat, hukmronlik va ijtimoiy mavqeni oshirishga intilish. Ayrim insonlar boylik yoki rahbarlik pozitsiyasini egallash orqali o‘zlarining ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqaradilar. Bu holat ko‘pincha shaxsiy xavfsizlik va mustahkam yashashga intilish ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Dangasalik va energiyani tejashga intilish. Qiziqarli jihat shundaki, ba’zida inson yangi narsani aynan mehnatdan qochish yoki o‘z quvvatini tejash niyatida ixtiro qiladi. Bu holat insoniyat tarixining dastlabki bosqichlarida ham kuzatilgan. Ov qilishdan charchagan odam tuzoq yasagan, piyoda yurishni istamaganlar esa transport vositalarini ixtiro qilgan. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, hattoki passiv holatlar ham ba’zida ijodiy yondashuvlarni keltirib chiqaradi.

Oldingi davrlarda bola tilga erta kirsa, tafakkur belgilari o‘yinda yaqqol sezilsa, texnikaga, san’atga, tabiatga qiziqsa, bu holat ota-onalar tomonidan faxr bilan qabul qilinardi. Ayniqsa, maktabdagi muvaffaqiyatlar intellektual rivojlanishning ishonchli mezoni sifatida ko‘rilgan. Ta’lim tizimining yuqori bosqichlarida, xususan, akademik reytinglar orqali eng iqtidorli shaxslar keyingi ilmiy yo‘nalishlarga tavsiya etilar edi. Biroq, shuni unutmaslik kerakki, erta yoshdagi salohiyatli ko‘rsatkichlar har doim ham qobiliyatlarning chuqur va barqaror shakllanishini kafolatlamaydi [114].

B.M. Teplov ushbu masalada quyidagi fikrni ilgari suradi: agar insonda biror qobiliyat kuchli negizga ega bo‘lsa, u o‘z-o‘zidan, ya’ni maxsus pedagogik vositalar aralashuvisiz yuzaga chiqadi [164]. Bunga zid pozitsiya ham mavjud bo‘lib, unga ko‘ra, erta namoyon bo‘lgan iqtidorlar ba’zan qisqa muddat ichida so‘nib qolishi

mumkin. Bu fikrga ko‘ra, iste’dodli insonlar erta davrda emotsional yoki psixik jihatdan ancha sust rivojlangan bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

Ayrim sohalarda, masalan, musiqiy iste’dod yoki aniq fanlarga qiziqish erta bosqichda yaqqol seziladi. Biroq bu holatlar iste’dodlarni rivojlantirishga oid universal qonuniyatlarni yaratish uchun yetarli asos bo‘la olmaydi. Ayniqsa, o‘zlashtirmovchilik masalasiga psixologik nuqtayi nazardan yondashganda, bu kabi erta ifoda va tashqi muvaffaqiyatlar chuqurroq o‘rganishni talab qiladi.

Psixik rivojlanishni sun’iy tarzda tezlashtirishga qaratilgan avtoritar yondashuvlar ko‘plab hollarda kutilgan samarani bermagan. Ayrim holatlarda rivojlanish ko‘rsatkichlari qayd etilgan bo‘lsa-da, ular tez so‘nuvchi yoki vaqtincha bo‘lgan. Bu esa tajriba davomida bolaning tor yo‘nalishdagi mashg‘ulotlar orqali shakllanib, tafakkurning erkin rivojlanishini cheklaganligini ko‘rsatadi. O‘zlashtirmovchilik holatlari ham shunday noto‘g‘ri yondashuvlar natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Bugungi kunda ta’lim sohasida differensial yondashuvlarga asoslangan maktablar – matematika, biologiya va boshqa fanlarga ixtisoslashgan muassasalar faoliyati kengayib bormoqda. Bu yondashuv shaxsning psixik rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi esa pedagogik va psixologik izlanishlar mavzusi sifatida dolzarbdir. O‘quvchilar orasida ixtisoslashuvga qanchalik erta yo‘naltirish zarur ekanligini aniqlash, ularning psixologik holatiga qanday ta’sir qilishi, o‘zlashtirmovchilikning sabablarini tahlil qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsiy tafakkur, ayniqsa mustaqil va ijodiy fikrlovchi insonlarda, ko‘pincha tanqidiy fikrlash shaklida namoyon bo‘ladi. Bunday shaxs yangilikka ochiqligi bilan birga, mavjud qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqishga tayyor bo‘ladi, zarurat tug‘ilganda esa eski qarashlardan voz kechadi. Ijodiy tafakkurning asosiy belgilaridan biri — fikr egiluvchanligi, qiziqish sohalarining kengligi, yangiliklarga ochiqlik va har qanday vaziyatga psixologik moslashuvchanlikdir.

Pedagogik faoliyatda o‘z fikrini mustaqil himoya qiladigan, yangi g‘oyalarni ilgari suradigan, har qanday yoshda yangilikka qiziqadigan insonlar jamiyatda intellektual o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qiladi. Shuning

uchun o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini tahlil etishda, faqat baho yoki test natijalari bilan cheklanmasdan, ularning psixologik salohiyati, tafakkur darajasi, ijodiy imkoniyatlari, mustaqil fikrlashga moyilligi ham e’tiborga olinishi lozim [165].

Bizningcha, o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini aniqlashda faqat tashqi natijalarga, baholarga yoki dastlabki muvaffaqiyatlarga asoslanish yetarli emas, aksincha, bu jarayonni chuqur psixologik tahlil asosida baholash zarur. Erta ifodalangan qobiliyatlar, tashqi yutuqlar yoki maktabdagi muvaffaqiyatlar har doim ham ichki salohiyatning barqaror shakllanganini anglatmaydi. Shaxsning intellektual rivojlanish jarayoni individual sur’atda kechadi va bunda mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur, tanqidiy yondashuv hamda psixik moslashuvchanlik hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayni paytda, rivojlanishni sun’iy tezlashtirish, qattiq nazorat yoki tor ixtisoslashuv asosidagi ta’lim yondashuvlari bolalarda erkin tafakkurni cheklab, o‘zlashtirmovchilik holatlarini kuchaytirishi mumkin. Shuningdek, har bir o‘quvchining o‘ziga xos fikrlash uslubi, qiziqish doirasi va psixologik barqarorligi mavjud bo‘lib, ta’lim jarayoni ana shu xususiyatlarga mos tarzda tashkil etilsa, ularning salohiyati to‘liq namoyon bo‘ladi. Shu sababli o‘zlashtirmovchilikni tahlil qilishda test natijalari emas, balki o‘quvchining psixik rivojlanish darajasi, ichki motivatsiyasi va tafakkur fleksibiligi asosiy mezon sifatida qaralishi lozim.

Ta’lim samaradorligini ta’minlovchi eng muhim omillardan biri shaxsning o‘qish davomida izchil va barqaror ravishda bilim olish faoliyatini olib borishidir. Ushbu barqarorlik darajasi orqali o‘zlashtirish sur’ati aniqlanib, bilim olish jarayonining dinamikasi — ya’ni psixologik jihatdan faol yoki beqaror kechayotgani haqida xulosa chiqarish mumkin. XX asrning ikkinchi yarmi hamda XXI asr boshlarida o‘quv faoliyatining natijalari miqdoriy ko‘rsatkichlar orqali (baholar, reytinglar va h.k.) ifodalanishi pedagogik va psixologik tadqiqotlar doirasida keng tahlil qilindi. Shunda bilim olish sifati ko‘proq o‘zlashtirish darajasida namoyon bo‘lishi ta’kidlab o‘tildi [91].

“O‘zlashtirish darajasi” atamasi nisbatan yangi bo‘lib, ilmiy muomalada yaqinda mustahkam o‘rin egallay boshladi. B.G. Ananyev [69] bu tushunchani chuqur yoritgan ilk psixologlardan biri bo‘lib, u nafaqat o‘qish jarayonini obyektiv baholash zaruratini

ta'kidlagan, balki ta'lim jarayonidagi individual subyektiv holatlarni ham chuqur tahlil qilishga urg'u bergan.

Mazkur tushuncha – ya'ni o'zlashtirish darajasi – bu inson tomonidan egallangan bilimlarning faqat tashqi (baholar shaklida rasmiylashtirilgan) ko'rinishigina emas, balki shaxsiy idrok va subyektiv ma'nodagi ta'lim yutuqlari yig'indisidir. Ushbu ko'rsatkich:

- bilim olish yo'nalishlarining rang-barangligini o'zida aks ettiradi;
- o'quv faoliyatiga tayyorgarlik va unga erishish jarayonidagi yutuqlarni o'z ichiga oladi;
- o'quv natijalarining ichki barqarorlik yoki beqarorlik darajasini namoyon qiladi;
- erishilgan natijalar ortidagi shart-sharoitlarni yoritadi;
- o'zlashtirish jarayonida shaxsning ichki refleksiyasini, ya'ni ta'limdan qanday ma'no topganini va unga qanday erishganini aks ettiradi.

Jamiyatda va ta'lim tizimidagi islohotlar doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchining psixologik jihatdan uyg'un rivojlanishi uchun zamonaviy va moslashtirilgan o'quv muhiti yaratish zarur. Shuningdek, bu holat ta'limning chiziqli bo'lmagan yo'nalishlarda shakllanishi, kasb egasi, faol va mustaqil fuqarolik pozitsiyasini egallovchi shaxsni tarbiyalashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi [76].

Shaxsning o'zlashtirish sur'atiga ta'sir etuvchi omillar esa ko'p qirrali bo'lib, ularning ba'zilari quyidagilardir: moliyaviy barqarorlik holati, sog'lig'i, oilaviy muhit, o'quvga qadar tayyorgarlik darajasi, o'z-o'zini boshqarish va rejalashtirish qobiliyatlari, o'qishga nisbatan ichki motivlar, tanlangan o'quv muassasasi haqidagi avvalgi tasavvurlar, ta'lim shakli (kunduzgi, masofaviy va boshqalar), to'lov tizimi, o'quv jarayonining tashkiliy darajasi, moddiy-texnik baza, o'qituvchilar malakasi, shuningdek, muassasa obro'si va shaxsga xos psixologik xususiyatlar.

Bundan tashqari, o'quv faoliyatida erishiladigan yutuq, asosan, intellektual salohiyatga tayanadi. Intellektual qobiliyat va faoliyat o'rtasidagi munosabatlar o'zaro dialektik bog'liqlikka ega: har qanday faoliyatga muvaffaqiyatli kirishish, o'z

navbatida, u faoliyat uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlarni talab qiladi. Bunday qobiliyatlar esa o‘sha faoliyat jarayonida shakllanib, takomillashadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o‘zlashtirmovchilikning psixologik ildizlarini tahlil qilishda, insonning o‘quv faoliyatiga nisbatan ichki tayyorgarligi, o‘zini boshqarish salohiyati va intellektual imkoniyatlarini chuqur baholash zarur.

So‘nggi yillarda psixologik adabiyotlarda ijtimoiy intellekt alohida kognitiv-funksional tizim sifatida shakllanmoqda. Bu tushuncha muloqot kompetensiyasi, ya’ni insonlararo munosabatlarni samarali amalga oshirishga yordam beruvchi qobiliyatlar majmuasi bilan bevosita bog‘liq. Aynan ijtimoiy intellekt orqali inson boshqa shaxslarni to‘g‘ri anglaydi, ular bilan munosabat o‘rnatadi, ta’sirchanlikni amalga oshiradi, hamkorlikda harakat qiladi va ijtimoiy jamoalarda o‘z o‘rnini mustahkamlaydi. Y.A. Klimov tasnifiga ko‘ra, “odamdan odamga” turdagi kasblarni egallash uchun aynan yuqori darajadagi ijtimoiy intellekt zarur omildir. Ayni vaqtda, ayrim tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday ijtimoiy intellekt ba’zan umumiy aql yoki ijodkorlik darajasining pastligiga kompensatsiya sifatida ham shakllanadi. Ijtimoiy intellektning baland bo‘lishi ko‘p hollarda akademik o‘zlashtirishning sustligi bilan bog‘liq bo‘lib, ayrim shaxs tipologiyalarida bu holat yaqqol namoyon bo‘ladi. Hatto ayrim hollarda, bunday shaxslar o‘qituvchilarning emotsional reaktsiyalariga mohirona ta’sir ko‘rsatgan holda o‘z bahosini sun’iy ravishda yuqori ko‘rsatishga erishadi [103].

Shu bilan birga, rus psixologik maktabi vakillari ta’lim jarayonida shaxsiy o‘zini qadrlash, o‘ziga ishonch va yuqori intilish motivatsiyasini ijobiy o‘zlashtirish natijalari bilan bog‘liqligini ko‘rsatib berishgan. O‘z salohiyatiga ishonmaydigan va imkoniyatlarini past baholaydigan shaxslar odatda qiyin topshiriqlardan qochadi va muvaffaqiyatsizlikni boshidan kechmasdan ilgari tan oladi. Bu holat ayniqsa o‘zlashtirmovchilik bilan bog‘liq omillarni tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

V.A. Ivannikovning irodaviy jarayonlarga oid tadqiqotlari ta’limdagi yutuqlarni faqat aqliy salohiyat bilan izohlash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Muallifning ta’kidlashicha, shaxsning o‘zlashtirish sur’atini belgilovchi asosiy jihat – bu aqliy imkoniyatlarning qanchalik kuchli ekani emas, balki ular qanday struktura asosida

tashkil topganidir. Irodaviy jihatlar bu tuzilmaning markazida joylashadi. Inson oʻz irodasini koʻpincha kuchli motivatsiyaga ega boʻlmagan harakatlarda namoyon qiladi, ya’ni, “xulq natijasi” uchun kurashish zarurati tugʻilganda, bu jarayon boshqa harakatlarni orqaga surish evaziga amalga oshiriladi. Shunday qilib, ixtiyoriy harakat motivatsiyasining yetishmasligini qoplashga qaratilgan, oʻz mohiyatiga koʻra psixologik tartibga solishdir. Bu holatga yangi ma’no berish orqali erishish mumkin [91].

Oʻrganish jarayonida inson oʻzini kamroq zoʻriqishga majburlashi, balki mazkur faoliyatni ichki qoniqish, zavq va shaxsiy ehtiyoj bilan bogʻlagani ma’qul. Shu sababli, ta’lim motivi shunchaki natijaga emas, balki oʻrganish jarayonining oʻziga yaqinlashtirilishi lozim. Bunga erishish uchun esa oʻquv faoliyatining oʻzini shaxs uchun emotsional jihatdan jozibali qilish, faoliyatga daxldorlik hissini shakllantirish va natijadan qoniqish olishga yordam beruvchi sharoitlar yaratish lozim.

Bundan tashqari, oʻzlashtirishga salmoqli ta’sir koʻrsatuvchi omillardan yana biri – bu oʻquv yuklamalarining bosimidir. Nazorat yoki baholash davrlarida ushbu yuklama haddan tashqari ortib ketadi. Afsuski, pedagogik amaliyotda tez-tez uchraydigan xatolardan biri shundaki, ba’zi oʻqituvchilar ta’lim dasturining natijalarini salbiy baholashni shaxsning oʻziga qaratadilar. Bu baholash verbal, muloqotdagi imo-ishoralar yoki yuz ifodalari orqali amalga oshadi, ya’ni inson “dangasa”, “mas’uliyatsiz”, “oddiy fikrlovchi” sifatida bevosita emas, bilvosita qoralashga uchraydi. Bunday yondashuv esa shaxsda salbiy hissiyotlar uygʻotibgina qolmay, uning jismoniy-ruhiy holatiga bevosita ta’sir koʻrsatadi.

Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti tomonidan oʻtkazilgan statistik tahlillar shuni koʻrsatadiki, yosh guruhlari orasida fiziologik funksiyalarining eng zaif natijalarini koʻrsatgan qatlam – bu oʻqish bilan band boʻlgan yoshlar hisoblanadi. Ularda gipertoniya, yurak tez urishi, qandli diabet va asab-ruhiy buzilishlar boʻyicha yuqori koʻrsatkichlar qayd etilgan. Tadqiqotlar asosida ma’lum boʻlishicha, bu holatlar koʻpincha ta’lim muassasalarida oʻquv jarayoni davomida yuzaga keladigan kuchli psixologik bosim natijasidir.

Mazkur yosh bosqichida nafaqat jismoniy, balki psixik funksiyalar, ayniqsa yuqori darajadagi aqliy faoliyat komponentlari – idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq va emotsional barqarorlik maksimal darajada faol bo‘ladi. B.G. Ananyev ta’kidlaganidek: “Bu hayot davri ta’lim-tarbiya uchun eng maqbul bo‘lgan davr hisoblanadi. Aynan shu pallada individual faoliyat shakllanadi, kognitiv jarayonlarda abstrakt tafakkur ustunlikka erishadi, borliq haqidagi umumlashtirilgan tasavvurlar vujudga keladi, voqelik sohalari o‘rtasida mantiqiy aloqalar o‘rnatiladi” [69].

Shu bilan birga, real holatlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab o‘quvchilar orasida tafakkur faoliyatining rivojlanish darajasi (taqqoslash, tasniflash, aniqlash, sistemalashtirish) yetarli bo‘lmaydi. Bu esa, ko‘pincha, ilgari maktab davrida shakllanib qolgan o‘quvga nisbatan salbiy munosabat va emotsional yondashuvni yengishdagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Shuning uchun ham o‘quv jarayonida faqat bilim natijasini baholash bilan cheklanmaslik, balki tafakkur jarayonining o‘ziga e’tibor qaratish muhimdir.

Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qish davomida faqatgina ishtiyoqi sust yoki o‘rtacha bo‘lgan o‘quvchilar o‘z aqliy salohiyatini rivojlantirishga intilishadi. Yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lganlar esa o‘quv muassasasini aslida o‘zlarida avvaldan mavjud bo‘lgan intellektual imkoniyatlar asosida tugatishadi. Shu bois, o‘zlashtirmovchilikning psixologik asoslarini aniqlashda bu farqlarning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim jarayonida, ayniqsa, kasbga yo‘naltirilgan ta’lim bosqichida bilimlarni mustaqil tarzda, ijodiy yondashuv asosida egallash zarurati yanada ortadi. Chunki aynan shu davrda shaxs turli kasbiy faoliyat shakllari bilan ilk bor to‘qnashadi. “Shaxsiy bilimlar” ko‘chmas xususiyatga ega bo‘lib, odatda ular faqat individual yondashuv asosida – “ustoz va shogird” formatida o‘zlashtiriladi.

Ayni bosqichda emotsional soha ham muayyan barqarorlikka erishadi. Bu holat o‘smirlik davridagi emotsional “portlash”lardan keyingi muvozanat bosqichi sifatida yuzaga chiqadi. Biroq avvalgi hayotiy tajribalar, ayniqsa shaxsiy shakllanishda kechikish bo‘lgan hollar (masalan, infantilizm belgilari) ba’zan salbiy psixologik aks-sado sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Bu esa ba’zida hayotga, o‘ziga yoki

boshqalarga nisbatan irratsional norozilik shakllarida ifodalanadi. Ta’limdagi pedagogik yondashuv yetarli boʻlmaganda esa, bu holatlar buzgʻunchi xatti-harakatlar, destruktiv yoʻnalganlik va oʻzlashtirmovchilik bilan yakun topishi mumkin.

Oʻsmirlik bosqichining eng muhim xususiyati – bu shaxsning oʻz individualligini va “men” obrazini anglay boshlashidir. I.Konning talqiniga koʻra, “men” konsepti – bu insonning oʻziga nisbatan munosabati boʻlib, u uch tarkibiy qismdan iborat: kognitiv, emotsional va xulqiy-komportamental komponentlar bir-birini toʻldiradi. Yaqin oʻn yilliklar kuzatuvlari asosida aniqlanishicha, oʻzini anglash jarayoni 17–19 yosh oraligʻidan boshlab, 23–25 yoshga qadar davom etuvchi chuqurlashgan bosqichda roʻy beradi.

Mazkur davrda oʻzini anglash ehtiyoji eng kuchli motivatsion harakatlantiruvchi omilga aylanadi va u kommunikatsiya, yutuq, yakka qolish istagi kabi oʻzaro qarama-qarshi ehtiyojlarda ifodalanadi. Agar mazkur ehtiyoj ta’lim faoliyati orqali qondirilmasa, shaxs oʻz kuchini boshqa sohalarga – sport, biznes, ijtimoiy faollik, sevimli mashgʻulotlar yoki shaxsiy munosabatlar sferasiga yoʻnaltiradi. Bu esa oʻquv faoliyatidan voz kechish, oʻzlashtirmovchilikni kuchaytirish va kognitiv resurslardan toʻliq foydalanmaslik xavfini keltirib chiqaradi.

“Oʻzlashtirish darajasi” tushunchasi oʻquv faoliyati bilan bogʻliq psixologik tahlillarda murakkab va koʻp komponentli kategoriya sifatida talqin qilinadi. U nafaqat bilim olish natijalarining mezoni, balki insonning oʻrganishga boʻlgan ichki tayyorgarligi va oʻquv faoliyatiga munosabati bilan uzviy aloqadordir. Ilmiy kuzatuvlar asosida aniqlanishicha, oʻquv jarayonidagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikning asosiy sababi – bu motivatsion omillarning kuchi bilan bogʻliq boʻlib chiqadi. Bu holat, ayniqsa, oʻquv jarayoniga munosabat, oʻrganishdagi individual odatlar va intellektual tayyorgarlikka ta’sir koʻrsatadi [47].

Koʻplab psixologik tadqiqotlarda ta’lim dasturlarini samarali oʻzlashtirishda oʻquvchilarning oʻqishga boʻlgan ichki qiziqishi va ehtiyoji hal qiluvchi omil sifatida e’tirof etiladi [42]. Oʻz oldiga aniq ta’limiy maqsadlarni qoʻygan shaxslar, odatda, yuqoriroq darajadagi motivatsiyaga ega boʻlishadi, oʻrganishga ijobiy yondashuv shakllanadi va natijada bilimlarni muvaffaqiyatli oʻzlashtirish ehtimoli ortadi [40].

Ta’lim jarayoni yuqori bosqichga chiqqan sari, ayniqsa oliy o‘quv darajasida, o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya tuzilmasini chuqur tahlil qilish alohida dolzarb bo‘lib qoladi. Bu bosqichda ta’lim jarayoni kasb-hunar faoliyati bilan uzviy bog‘lanadi va shaxsiy hamda professional rivojlanish uchun negiz bo‘lib xizmat qiladi [52]. Shakllangan kasbiy intilish esa, nafaqat o‘qish jarayoniga, balki kelajakdagi ijtimoiy, mehnat va shaxsiy faoliyatga sezilarli ta’sir o‘tkazadi [22].

Pedagogik-psixologik yondashuvda motivatsiyani oshirish maqsadida o‘quv motivlarini o‘rganish va ular asosida samarali texnika va metodlarni ishlab chiqish zarurligi ko‘plab mualliflar tomonidan alohida urg‘u bilan ta’kidlab o‘tiladi [35]. Bu usullar shaxsning bilim olish jarayonidagi emotsional holatini hisobga olgan holda, o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ishtiyoqni faollashtiradi va o‘zlashtirish darajasini barqarorlashtiradi.

Mazkur fikrlar asosida xulosa qilish mumkinki, bugungi o‘quvchilar uchun motivatsiyani shakllantirish, kasb egallash yo‘lidagi zarur kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tizimli yondashuvga asoslangan kompleks pedagogik qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin egallaydi. Bu yordam, avvalo, shaxsning emotsional olamiga sezgir bo‘lishni, o‘qituvchi bilan o‘zaro samimiy munosabatlarni shakllantirishni, shuningdek, past o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lganlarga individual va moslashuvchan strategiyalarni qo‘llashni taqozo etadi.

Shaxsiy salohiyatni to‘g‘ri baholash, o‘z-o‘ziga ishonchni mustahkamlash, amaliy va kognitiv faoliyatda ijodiy yondashuvni rivojlantirish, hamda muloqotdagi yetarli bo‘lmagan ko‘nikmalarni yaxshilash kabi choralarni amalga oshirish motivatsiyani kuchaytirish strategiyasining ajralmas qismidir. Bunday tizimli yondashuv, o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilikni kamaytirish bilan birga, mustahkam shaxsiy va kasbiy rivojlanish asoslarini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Bizning nazarimizda “o‘zlashtirish darajasi” tushunchasi ta’lim psixologiyasida nafaqat bilimlar hajmini aks ettiruvchi indikator, balki o‘quvchining ichki tayyorgarligi, emotsional holati, motivatsion resurslari va faoliyatga bo‘lgan munosabati bilan chambarchas bog‘liq ko‘p qatlamli psixologik kategoriya sifatida qaraladi. O‘quv faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi, birinchi navbatda, shaxsning o‘z

oldiga maqsad qo‘ya olishi, uni anglab yetishi va unga yetishish istagiga ega bo‘lishi bilan belgilanadi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayoniga ijobiy ruhda yondashishni, o‘rganishdan qoniqish olishni va shaxsiy qiziqishlarni rag‘batlantirishni talab qiladi. Ichki motivatsiyaning mavjudligi o‘quvchida faol ishtirok, mustaqil fikrlash va amaliy qo‘llashga asoslangan o‘zlashtirish mexanizmlarini kuchaytiradi. Bugungi ta’lim tizimida ayniqsa kasbiy yo‘naltirilgan motivatsiyani shakllantirish, emotsional holatni barqarorlashtirish va shaxsiy ehtiyojlarga mos o‘quv yondashuvini tanlash zarurati ortib bormoqda. Individual qiziqishlarni e’tiborga olgan holda tashkil etilgan ta’lim muhitigina o‘quvchining shaxsiy salohiyatini to‘liq namoyon etishiga va past o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Shunday qilib, o‘rganishga motivatsiyani mustahkamlovchi kompleks psixologik-pedagogik choralar tizimi o‘zlashtirmovchilikni bartaraf qilishda eng samarali yondashuv hisoblanadi.

B.G. Ananyev o‘zining ilmiy qarashlarida o‘quvchilarning o‘zlashtirish faoliyatiga ta’sir qiluvchi asosiy psixologik omillardan biri sifatida ulardagi intellektual tayyorgarlik darajasining turlicha bo‘lishi va bu bilan bog‘liq ravishda energiya sarfini notekis taqsimlanishini alohida qayd etgan. Uning fikriga ko‘ra, ayrim hollarda murakkab intellektual faoliyat nafaqat yuqori bilim salohiyatini talab qiladi, balki haddan tashqari kuchli aqliy zo‘riqish natijasida tez charchashga olib keladi. U shunday yozgan edi: “Yuksak aqliy faollik faqat yuqori darajadagi intellekt belgisi emas, balki organizmning reaktsion yuklamalarga chidamlilik darajasiga ham bog‘liq. Shunday jihatlarni hisobga olish individual yondashuv uchun o‘ta muhimdir” [69].

Ilmiy tahlillar asosida, o‘quvchilarning o‘zlashtirish muvaffaqiyatini aniqlovchi muhim mezonlardan biri sifatida bilim faolligi, mustaqillik va ijodiy yondashuv ko‘rsatkichlari ajratib ko‘rsatilgan [69]. Ayniqsa, mustaqil faoliyat – o‘z bilish jarayonini o‘zi boshqarish, qarorlar qabul qilish, maqsad qo‘yish va baholash bosqichlarida o‘zini faol subyekt sifatida ko‘rsatish imkonini beradi. Bu jarayonda shaxs o‘zini-o‘zi tashkil etadi, ya’ni bilim olishning tashabbuskori va tartibgohiga aylanadi.

Kognitiv darajadagi mustaqillik – bu shaxs tomonidan bilimlarni mustaqil ravishda izlash, tahlil qilish va o‘z fikrini shakllantirish orqali o‘rganishdagi

murakkabliklarni bartaraf etish qobiliyatini bildiradi. Bu esa o‘quvchining muammoni hal etishdagi tashabbuskorligini, tanqidiy fikrlash malakasini va bilimlarni o‘zlashtirish usullarini izlab topishga bo‘lgan ehtiyojini yuzaga chiqaradi.
Shuningdek, o‘quv faoliyati davomida ijodkorlik alohida rol o‘ynaydi. U vazifalarni bajarishda yangilikka intilish, mavjud bilimlardagi bo‘shliqlarni to‘ldirish hamda yangi g‘oyalarga ochiqlik orqali namoyon bo‘ladi. Mustaqil ish turlarini tahlil qilish orqali ijodiy yondashuvning turli darajalari (reproduktiv, rekonstruktiv, evristik, tadqiqotga asoslangan) shakllari ajratiladi [69].

Ta’lim sifati bilan bog‘liq muammolar ta’lim tizimidagi barcha bo‘g‘inlar o‘rtasidagi uzviylikning buzilishida namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, umumta’lim bosqichidagi sifatsizlik yuqori ta’limda o‘z aksini topmoqda, oliy bosqichdagi o‘quv yutuqlarining pastligi esa oxir-oqibatda mehnat samaradorligi va butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’atlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘quv faoliyatining psixologik asoslarini chuqur o‘rgangan O.S. Ionina esa, bilim samaradorligiga olib boruvchi omillar qatorida quyidagilarni ta’kidlaydi: birinchidan, o‘qituvchining ta’lim texnologiyalarini oqilona qo‘llay olishi; ikkinchidan, o‘quvchi aqliy mehnatining intensivligi va tezligi; uchinchidan, bilim olishdagi faollik darajasi; to‘rtinchidan, aqliy mehnatning davomiyligi va uzluksizligi [93].

Ioninaga ko‘ra, o‘zlashtirish jarayoni shunchaki tashqi baholash darajasi emas, balki o‘z yutug‘idan mamnunlik, ichki ehtiros va o‘zini qadrlash hissi bilan bog‘liq bo‘lgan subyektiv holatdir. Faqatgina o‘z bilim natijalaridan qoniqish hosil qila olgan, o‘zini ijobiy baholay oladigan va o‘z qadriyatiga yuqori baho bera oladigan shaxs haqiqiy samarali bilim olishga erisha oladi [93].

D.M. Grebneva olib borgan izchil kuzatishlar natijasida ta’limdagi o‘zlashtirish va akademik yutuqlarni baholash jarayoni shunchaki formal ko‘rsatkichlardan iborat bo‘lmasligi, balki bu hodisa shaxsning ichki psixologik holati, uning ijtimoiy tasavvurlari va o‘z-o‘zini anglash darajasi bilan bevosita bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Olimaning fikricha, mazkur jarayon nafaqat obyektiv baholash vositalari orqali o‘lchanadi, balki u shaxsning shaxsiy yondashuvi, ijtimoiy motivlari va o‘zini baholash

uslublarini ham o‘z ichiga oladi. Bu nuqtai nazar o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini chuqur anglashda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi [30].

Ushbu tadqiqotlarda, shuningdek, shaxsga “O‘rganishdagi yutuqlaringiz qanday?”, “Bilim darajangizni qanday baholaysiz?” kabi savollar berilganda, javoblar ko‘pincha umumiy va subyektiv xarakterda bo‘lishi kuzatilgan. Masalan, “Hammasi joyida” yoki “Yomon emas” kabi iboralar ishlatilgan bo‘lsa-da, real o‘zlashtirish darajasi va bilish faoliyati samaradorligi o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligi aniq ko‘zga tashlanadi. Bu esa o‘zlashtirishni subyektiv-real muhitda tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi [30].

Grebneva o‘z ilmiy tahlillarida o‘quv faoliyatining asosiy uch tarkibiy qismini ajratib ko‘rsatadi: kognitiv (bilish), emotsional (hissiy) va baholovchi (refleksiv) komponentlar. Bu uchlik o‘quvchining bilim olishi, uni anglash, unga emotsional munosabat bildirish va o‘z faoliyatiga tanqidiy yondashish imkoniyatini yaratadi. Shu orqali o‘zlashtirishga to‘sqinlik qilayotgan psixologik sabablar aniq ko‘rinishga ega bo‘ladi [30].

Mazkur yondashuvda shaxsning bilim olishga sarflaydigan resurslari – aqliy mehnat, ruhiy tayyorgarlik, ijtimoiy-psixologik omillar, moddiy va vaqt cheklovlari kabi bir necha jihatlar bir-biri bilan uyg‘un holda ishlashi kerak. Agar bu muvozanat buzilsa, natijada bilim olish jarayonida qiyinchiliklar, sustlik va oxir-oqibatda o‘zlashtirmovchilik holatlari kuzatiladi.

P. Gor esa o‘zining yondashuvida ta’lim jarayonining samaradorligini aniqlovchi asosiy belgilarni belgilab bergan. Unga ko‘ra, aktiv va tanqidiy fikrlash, bilishga bo‘lgan motivatsiya, intellektual faollik, ta’limdan keyingi o‘rganishga tayyorlik, o‘z-o‘zini qadrlash, umumiy bilim saviyasi, tahliliy fikrlash qobiliyati, muammoni hal etish strategiyalari va o‘zgarishlarga moslasha olish kabilar asosiy mezonlar sifatida qayd etiladi [30].

Ayrim ilmiy manbalarda o‘qitish jarayonida yuzaga keladigan o‘zlashtirish holatlari bevosita akademik muvaffaqiyat bilan bog‘liq tarzda sharhlanadi. Aslida esa, muvaffaqiyat tushunchasi o‘zlashtirish natijasida shakllanuvchi ichki psixologik holat bo‘lib, bu holat shaxsning o‘quviy yutuqlari va bilim olishdan hosil qilgan ruhiy

qoniqishini aks ettiradi. Bunda shaxsning o‘z-o‘zini anglash darajasi, ta’limga bo‘lgan ijtimoiy motivlari va ichki rag‘batlari muhim o‘rin tutadi.

O‘zlashtirish darajasiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qilgan tadqiqotchilardan biri – S.N. Sidorova hisoblanadi. Uning fikricha, bilim olish samaradorligi quyidagi jihatlar bilan chambarchas bog‘liq: iqtisodiy ahvol, jismoniy salomatlik holati, yoshi, oilaviy muhit, ta’limga tayyorgarlik darajasi, o‘z faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilishga oid ichki qobiliyatlar, ta’lim muassasasini tanlash sabablari, ta’lim shaklining (kunduzgi, sirtqi, masofaviy va boshqalar) xususiyatlari, narx va to‘lov bilan bog‘liq omillar, ta’lim muassasasining moddiy-texnik infratuzilmasi, pedagogik tarkibning malakaviy darajasi, muassasa obro‘si, shuningdek, shaxsning psixologik-intellektual resurslari [145].

Zamonaviy ta’lim tizimida bilim berish jarayoni turli uslublar orqali amalga oshirilmoqda. An’anaviy ma’ruza usuli hamon qo‘llanib kelayotgan bo‘lsa-da, bu usulning ayrim kamchiliklari mavjud. Masalan, V.P. Bespalko [80], A.A. Verbitskiy [41], R.F. Jukov va boshqa olimlar an’anaviy ma’ruza usulini faol o‘qitish shakllariga nisbatan sustroq deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, an’anaviy darslarda bilim oluvchilar ko‘pincha tayyor ma’lumotlarni passiv tarzda qabul qiluvchi sifatida shakllanadi. Bu esa ularning bilim uchun mas’uliyat hissini pasaytiradi va o‘zlashtirish yuzaki darajada bo‘lishiga olib keladi [41].

Shu bilan birga, bilim oluvchining individual xususiyatlari, uning faol ishtiroki va shaxsiy qobiliyatlari ko‘plab mutaxassislar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan: shaxsning emotsional va kognitiv imkoniyatlarini rivojlantirish (M.Ya. Adamskiy, B.G. Ananyev, T.G. Andronik, J. Bruner, L.S. Vigotskiy, N.V. Zalesova, N.N. Kosheleva, N.P. Murzina, V.P. Chelyadnik); bilim olish faoliyatining ko‘rsatkichlari (E.M. Boyko, E.A. Sadovnikova, O.V. Galkina, L.A. Kostina, L.M. Milyayeva); o‘z-o‘zini boshqarish va o‘rganish strategiyalarini shakllantirish (N.A. Rototayeva, V.A. Yakunin, O.N. Stipk).

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, o‘zlashtirish – bu bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotga tadbiq etish, o‘quv dasturlarini egallash, shuningdek, fikr yuritish, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini namoyon qilish demakdir.

Shuningdek, T.Yu. Kurapova ta’lim natijalarini baholashda o‘zlashtirishning bevosita ko‘rsatkichlariga alohida urg‘u beradi. Uning nuqtai nazaricha, baholashda nafaqat yakuniy imtihonlar va test natijalari, balki jamoaviy muhokama qilinmagan, mustaqil bajargan nazorat ishlariga berilgan ballar ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Bu yondashuv o‘quvchi faoliyatidagi psixologik mezonlarni aniqlashga imkon beradi [34].

Kurapova psixologik mezonlarni quyidagicha belgilaydi:

a) shaxsiy rivojlanishning ijobiy dinamikasi;
b) o‘rganish motivatsiyasining barqarorligi;
c) ta’lim muassasasiga nisbatan ijobiy munosabat;
d) kognitiv qiziqishning mavjudligi;
e) ijtimoiy muhitga moslashganlik (tengdoshlar va o‘qituvchilar bilan munosabatlar);
f) psixofiziologik salomatlik holati;
g) o‘z-o‘zini adekvat baholash va ijobiy o‘zini hurmat qilish [34].

Shu jihatlar bilim oluvchining o‘zlashtirish faoliyatidagi ichki zaminini tashkil etadi. Bu mezonlar orqali nafaqat o‘zlashtirmovchilik holatlarini aniqlash, balki ularning kelib chiqish sabablari, shaxsiy va tashqi omillar bilan bog‘liqligini chuqurroq tahlil qilish imkoni tug‘iladi. O‘quvchining o‘zlashtirishdagi muvaffaqiyati faqatgina bilim darajasi bilan emas, balki uning psixologik holati, motivatsiyasi, kognitiv ehtiyojlari va o‘ziga nisbatan munosabati bilan belgilanadi.

Fikrimizcha, o‘zlashtirish darajasi o‘quv faoliyatidagi murakkab, ko‘p qirrali va psixologik jihatdan chuqur tahlilni talab qiluvchi holat bo‘lib, uni faqat akademik yutuqlar yoki test natijalari bilan cheklab baholab bo‘lmaydi. Muvaffaqiyatli o‘zlashtirish shaxsning ichki psixologik tayyorgarligi, ijtimoiy va emotsional motivlari, o‘z-o‘zini anglash darajasi bilan uzviy bog‘liq. Bilim olish jarayonining samaradorligi nafaqat pedagogik yondashuvlar, balki o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, salomatligi, oila muhiti, ta’lim muassasasining imkoniyatlari va o‘qituvchining kasbiy malakasi bilan ham chambarchas bog‘liq. An’anaviy dars

shakllari bilan cheklangan ta’lim uslublari o‘quvchining faolligini va mas’uliyat hissini susaytirishi mumkin, shu sababli, faol ishtirok, erkin fikr almashinuvi va individual yondashuvga asoslangan metodikalar afzalroqdir. O‘zlashtirish mezonlarini baholashda faqat yakuniy baholarga emas, balki shaxsiy rivojlanish, motivatsiya barqarorligi, kognitiv qiziqish, ijtimoiy moslashuv va o‘zini hurmat qilish kabi ichki psixologik ko‘rsatkichlarga tayanish zarur. Bunday kompleks yondashuv orqali nafaqat o‘quvchilarni aniq baholash, balki o‘zlashtirmovchilik sabablarini tizimli tarzda aniqlash va ularni bartaraf etish mumkin bo‘ladi.

N.V. Kuzmina va V.A. Yakunin [100] o‘z izlanishlarida ta’lim olish jarayonida muvaffaqiyatga erishishiga bevosita ta’sir etuvchi tashqi shart-sharoitlarni sanab o‘tadilar. Ularning ta’kidlashicha, bu omillar o‘quv faoliyatini muvofiqlashtirish darajasi, mustaqil bilim olish ko‘nikmalari, o‘qishni tugatgandan so‘nggi kasbiy moslashuv jarayoni, kasbiy barqarorlikka erishish, malaka oshirish dinamikasi, mehnat faoliyatidagi o‘sish va o‘zini tarbiyalash ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek, insonning kasbiy malaka bosqichlari, bilimlarini chuqurlashtirishga bo‘lgan ichki intilishi va atrofdagilarning baholari ham alohida e’tiborga loyiq omillardandir.

Bu nuqtai nazarni davom ettirgan holda, S.D. Stolyarenko [98] o‘quv faoliyatidagi yutuq mezonlarini ko‘rsatkichli baholash tizimi orqali aniqlashni taklif etadi. U o‘z tahlilida o‘quv natijalarini faqat baholar bilan cheklab bo‘lmasligini, balki bilim olishga bo‘lgan qiziqish, motivatsion tayyorgarlik, aqliy mehnat sifati va texnikasiga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi. Bunda intellektual faollik, fikrlash sur’ati, emotsional taranglik, o‘rganish jarayonining davomiyligi va samaradorligi kabi jihatlar muhim ahamiyatga ega.

M.R. Shabalina [186] esa o‘quv yutuqlarining shaxsiy fazilatlar bilan qanday bog‘liq ekani bo‘yicha o‘tkazgan izlanishlarida bir necha asosiy ko‘rsatkichlarni ajratadi. Birinchidan, rasmiy statistik natijalar orqali o‘lchanadigan o‘quv samaradorligi. Ikkinchidan, ijodiy yondashuv, mustaqil fikrlash va o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashga asoslangan sifat mezonlari. Uchinchidan, bilim olishga bo‘lgan

ichki turtki va dominant motivlarning o‘rni, shuningdek, bilimlarni amalda qo‘llashga bo‘lgan tayyorgarlik darajasi.

Ushbu tadqiqot doirasida olima akademik o‘zlashtirishni uch xil darajada baholash mumkinligini ilgari suradi. Birinchi bosqich – amaliy faoliyatga asoslangan bo‘lib, asosiy ta’limiy maqsadlarga erishishga qaratilgan. Ikkinchisi – psixologik bosqich bo‘lib, shaxs o‘quv jarayonidan subyektiv tarzda qanday qoniqish hosil qilayotganini aks ettiradi. Uchinchi daraja esa – aqliy-aksiologik xususiyatga ega bo‘lib, bilim olishda axloqiy va qadriy yondashuvlarning mavjudligini anglatadi.

Umumiy o‘rta ta’lim bosqichidan oliy ta’lim tizimiga o‘tish davrida yuzaga keladigan psixologik moslashmovchilik holatlari, ya’ni disadaptatsiya, bevosita o‘quv yutuqlari va o‘zlashtirish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ushbu bosqichdagi o‘zgarishlarning mazmuni psixologik nuqtai nazardan tahlil etilishi muhim ahamiyatga ega. Moslashuv atamasi va uning ilmiy asoslari T.V. Daxina tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda keng yoritilgan bo‘lib, u bu tushunchani shaxsning ijtimoiy muhitga faol moslashuvi sifatida izohlaydi [27]. Ijtimoiy psixologiya doirasida “moslashuv” faqat passiv jarayon emas, balki faol harakat bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishdir.

G.X. Boronova va N.V. Prusova tomonidan keltirilgan tahlillarga ko‘ra, moslashuv nafaqat yangi muhit talablarini qabul qilish, balki rol va maqom o‘zgarishlariga psixologik tayyorlik, ta’lim muhitining qadriyatlari, me’yor va madaniy jihatlarini ichki ong bilan o‘zlashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Bu holatda o‘zini kasbiy jihatdan baholay olish qobiliyati ham asosiy omilga aylanadi. Shaxs o‘zini mutaxassis sifatida anglash, tanlagan yo‘nalishiga bo‘lgan ishonchi, motivatsion ustuvorliklari orqali akademik samaradorlikka muayyan tarzda ta’sir o‘tkazadi [71].

Moslashuv holatini baholashda, ayrim psixologlar shaxslarni moslashish darajasiga ko‘ra kichik guruhlarga ajratish zarur deb hisoblaydi. Bu ajratish orqali o‘quvchi faoliyatini individual yondashuv asosida muvofiqlashtirish imkoni paydo bo‘ladi. Mazkur yondashuvda har bir shaxsning psixologik xatti-harakatlari, emotsional holatlari va muhitga nisbatan reaksiya shakllari hisobga olinadi [38].

Oliy ta'limning boshlang'ich davrida kuzatiladigan "moslashmovchilik" holatlari eng murakkab bosqichlardan biri sifatida baholanadi. Bu jarayon ko'plab tadqiqotchilar tomonidan "noadaptiv davr" deb nomlanadi. Ushbu murakkablik odatda ta'lim jarayonining birinchi yilida eng yaqqol ko'rinadi va shaxsning o'zlashtirish darajasiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Bu masalaga doir qimmatli ilmiy mulohazalar rus psixologi N.V. Zalesova tomonidan ilgari surilgan [182].

Moslashuv jarayoni tabiiy yo'sinda kechishi mumkin bo'lsa-da, aynan boshlang'ich bosqichdagi pedagoglar, tyutorlar va psixologik xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislar o'quvchini yangi muhitga tayyorlashda faol ishtirok etishi zarur. Bu jarayon orqali o'quv faoliyatida yuzaga keladigan muammolar yumshatiladi va moslashuv inqirozining salbiy oqibatlari kamayadi.

Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilimlarni egallashi, ya'ni o'zlashtirishi bilan bog'liq murakkabliklar pedagogik va psixologik tahlilga muhtoj dolzarb masalalardan biridir. I.I. Ilyasov, V.P. Trusov, N.B. Nesterova kabi mutaxassislar olib borgan ilmiy izlanishlarda qayd etilishicha, o'quv jarayonining ilk bosqichida ishtirok etayotgan shaxslar hali ijodiy yoki hattoki oddiy qayta ishlab chiqish (reproduktiv) darajasidagi vazifalarni to'laqonli bajarish ko'nikmalariga ega emaslar. Bu esa ta'lim olishdagi qiyinchiliklarning dastlabki manbai sifatida yuzaga chiqadi. Shuningdek, ko'pchilikda o'zlashtirishni rag'batlantiruvchi ichki motivlar, bilishga qiziqish, mustaqil nazorat qilish, shaxsiy natijalarni tahlil qilish ko'nikmalari yetarlicha shakllanmagan bo'ladi.

Bilish faoliyatini shakllantirish faqatgina ma'lumotlarni o'zlashtirish emas, balki ta'lim subyektining psixologik rivoji, o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi shunchaki bilim berish emas, balki o'quvchi ishtirokini faollashtiruvchi, uning psixik imkoniyatlarini inobatga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil qilishdan iborat [92]. Bizningcha, o'quvchilarda ta'limga bo'lgan ichki motivatsiyani shakllantirish, umumta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish va reflektiv fikrlashni kengaytirish bu muammoning amaliy yechimlari sirasiga kiradi.

So‘nggi yillarda o‘qitish samaradorligini oshirish va ta’limdagi natijalarni aniq baholashga qaratilgan ko‘plab ilmiy ishlanmalar amalga oshirildi. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo bo‘lgan mamlakatlarda ta’limni samarali tashkil qilishning turli nazariy modellari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularda V.I. Lyalikova, G.A. Xatskevich, V.N. Sosnitskiy, N.I. Potanin, V.A. Shevchenko, I.M. Xaritonov, Ye.G. Krushel, O.O. Privalov, I.V. Stepanchenko va O.V. Stepanchenko kabi olimlarning ishlari alohida e’tiborli hisoblanadi.

Masalan, V.I. Lyalikova va G.A. Xatskevich o‘z izlanishlarida o‘quv yutuqlarini bashorat qilishda kirish imtihonlari natijalarini asosiy mezon sifatida ko‘rsatganlar. I.M. Xaritonov, Ye.G. Krushel, O.O. Privalov va boshqalar esa regression tahlil orqali ta’lim sifatini oldindan baholash metodikasini ishlab chiqqanlar. V.A. Shevchenko tomonidan esa o‘zlashtirish jarayonini klasterli tahlil usuli asosida bashorat qilish yondashuvi ishlab chiqilgan.

Pedagogik psixologiyada ta’lim natijasi o‘zlashtirish darajasi orqali baholanadi. Bu jarayon – tashqi ta’sirlar va ichki faollik o‘rtasidagi uzviy munosabat asosida shakllanadigan psixik o‘zgarishlardir. Bilim va ko‘nikmalarni ongli ravishda o‘zlashtirish – pedagogik jarayonning eng muhim ko‘rsatkichidir. Bu borada P.Y. Galperin [29] va N.F. Talizina [100] tomonidan ilgari surilgan bosqichma-bosqich aqliy faoliyatni shakllantirish nazariyasi alohida o‘rin tutadi.

Ushbu nazariyaga ko‘ra, dastlabki bosqichda aqliy harakatlar vizual shaklda — rasm, sxema, diagramma yoki boshqa belgilar orqali ifodalanadi. Ikkinchi bosqichda bu tasavvurlar ovoz chiqarib aytiladi, ya’ni aqliy faoliyat tashqi nutq shaklida namoyon bo‘ladi. Uchinchi bosqich esa — fikrlar orqali ichki psixik model shakllanadigan, tushuncha va qonuniyatlar o‘zlashtiriladigan bosqichdir. To‘rtinchi bosqichda esa aqliy faoliyat ovoz chiqarilmasdan, ichki rejada amalga oshiriladi. Nihoyat, beshinchi bosqichda esa harakat faqat fikr orqali, ichki aqliy operatsiyalar orqali bajariladi.

Bugungi kunda ta’lim tizimidagi muhim muammolardan biri — axborotlar hajmining juda katta sur’atlarda oshib borishi va ularning qisqa muddatda eskirib qolishidir. Shuning uchun o‘quvchilarning faqat ma’lumotni qabul qiluvchi emas, balki

uni qayta ishlab, shaxsiy bilimga aylantira oladigan psixik qobiliyatlarini shakllantirish dolzarb hisoblanadi.

Bizningcha, bugungi ta’lim tizimida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi ularning shaxsiy psixik imkoniyatlari, ichki motivatsiyasi va bilimni qayta ishlashga qodir reflektiv tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. O‘zlashtirish — bu oddiy bilim yod olish emas, balki bilim va ko‘nikmalarni psixik jihatdan ongli, faol tarzda o‘zlashtirish jarayonidir. Dastlabki ta’lim bosqichlarida o‘quvchilarda hali reproduktiv fikrlash, muammoli vazifalarni hal qilish, mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalari to‘laqonli shakllanmaganligi sababli o‘zlashtirishda muammolar yuzaga kelishi tabiiy. Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati shunchaki tashqi baholarga emas, balki o‘quvchining emotsional holati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi va psixik rivojlanish bosqichlariga bog‘liqdir. Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quv faoliyatining samaradorligi o‘qitish uslubining mosligi, o‘quvchining individual qobiliyatlari va ongli aqliy faoliyatga o‘rgatish bosqichlari bilan aniqlanadi. Aynan shu sababli, ta’lim jarayonida o‘quvchining nutqiy, vizual, aqliy va reflektiv imkoniyatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish, o‘zlashtirish muammolarining samarali oldini olishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’limning eng dolzarb vazifalaridan biri – o‘quvchini faqat tayyor bilim oluvchiga emas, balki mustaqil fikr yurituvchi, izlanishga qodir faol ta’lim subyektiga aylantirishdir.

Umumiy psixologik yondashuvlardan foydalanib olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda G.M. Andreeva, Sh.A. Nadirashvili, A.B. Orlov, V.F. Perevalov kabi olimlar ta’kidlaydilar: o‘zlashtirish jarayoni psixologik barqarorlik, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, tasavvur va nutq kabi asosiy kognitiv hamda hissiy-komponentlar bilan chambarchas bog‘liqligini ilmiy asos bilan ko‘rsatgan [64].

G.V. Grachev esa o‘zlashtirish darajasining asosiy sharti sifatida nazariy bilimlarning umumlashtirilgan shakllarini shakllantirishni bilishning dialektik usuli orqali chuqurlashtirib o‘rganishni ilgari suradi. Bunga ko‘ra, o‘rganish jarayonida individual faktlardan umumiy qonuniyatlarni ajratib olishga intilish yuzaga keladi. Uning fikricha, bu usul platonik bilimlar, umumiy ilmiy tushunchalar va

nazariyalarning amaliy ta’lim jarayoniga tizimli integratsiyasini ta’minlaydi. Bu jarayonda miqdoriy o‘zgarishlar sifatli natijalarga olib keladi [88].

Psixologik tadqiqotchilar (L.I. Bojovich, A.N. Leontiev, D.B. Bogoyavlenskaya va boshq.) shaxsning oddiy, kundalik tushunchalarini ilmiy bilimlar bilan bo‘lishgan holda almashuv jarayonini o‘rganadilar. Ularning fikricha, yoshlar ayniqsa fanlarga nisbatan qiziqish bilan kirishganda tashakkul topgan qiyosiy bilimlar orqali psixologik rivojlanish kechadi [74]. Bu jarayonda shaxs hayotiy tushunchalarni ilmiy tasavvurlar bilan bog‘lab, qarashlarni yangilaydi, shu bilan birga o‘zini tarbiyalash va izlanishdagi intilishlar kuchayadi.

Yana bir guruh psixologlar — A.N. Sukhova, A.A. Derkach va boshqalar — shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarish, psixologik barqarorlik, metakognitiv ko‘nikmalar, fikrlash tarzini shakllantirish, motivatsion tasavvurlar, shaxsiy “men” konsepsiyasini rivojlantirish kabi holatlarni chuqur o‘rgandilar [26]. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, shaxs ruhiy barqarorlikda bo‘lmasagina, o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila olmaydi va stressli vaziyatlarda himoya mexanizmlarini o‘ng qila olmaydi — bularning barchasi o‘zlashtirish samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi [86].

Bu tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, shaxsning o‘ziga xos psixologik barqarorligi va bilim oluvchisifatida faol bo‘lishi uchun quyidagi pedagogik-psixologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

Kognitiv funktsiyalar integratsiyasi – sezgi, idrok, xotira va tafakkur kabi barcha komponentlar muvofiqlashtirilgan asosda ishlashi zarur.

Dialektik yondashuv – individual faktlardan umumlashtirish va nazariy bilimlarni hayotiy kontekstga qo‘llash orqali bilim olishning sifatli darajasiga erishiladi.

Metakognitiv rivojlanish – o‘zini-o‘zi boshqarish va barqaror nazorat orqali o‘quv faoliyatining ichki mexanizmlarini anglash kuchayadi.

Psixologik barqarorlik – stressli holatlarga moslashish, negiziy motivatsiya va ijtimoiy muloqotni boshqarish o‘zlashtirish jarayonini samarali qiladi.

O‘zlashtirish darajasining psixologik mohiyatini tahlil qilgan taniqli olimlardan biri E.P. Krupnik hisoblanadi. U o‘z ilmiy qarashlarida ushbu hodisani shaxsning xulq-atvorini ongli nazorat qilish qobiliyati va aqliy kuchlarning ma’lum darajadagi susayishi bilan bog‘liq murakkab psixologik jarayon sifatida talqin etadi [106]. Krupnikning fikricha, o‘zlashtirish darajasi shaxs tuzilishidagi dinamik muvozanatni barqarorlashtiruvchi asosiy psixologik tarkibiy unsurdir. Bu holat, o‘z navbatida, shaxsning o‘z harakatlarini nazorat qilish, ichki tartibni saqlash, yangi vaziyatlarga tez moslashish va o‘zgarishlarga mos qadam tashlash qobiliyatlari orqali namoyon bo‘ladi [106].

Muallif o‘z izlanishlarida shaxsning psixologik barqarorligini psixokibernetik tamoyillar bilan izohlab beradi. Unga ko‘ra, insondagi o‘zlashtirish salohiyati – bu nafaqat tashqi axborot oqimlariga mos ravishda harakat qilish, balki ichki holatlarni barqaror tutish, vaziyatni oldindan his qilish va bunga ongli ravishda tayyorgarlik ko‘rish qobiliyatidir. Aynan mana shu murakkab ichki tizimlar o‘zlashtirish darajasini belgilar darajasida namoyon qiladi.

Shuningdek, Krupnik o‘z konsepsiyasida dinamik qobiliyatlarni shaxsning o‘z ongida oldindan yaratilgan obrazlar va ularning asosida yuzaga kelgan axborotlar orqali faollashtirish mexanizmlari sifatida tushuntiradi. Bu jarayon, ayniqsa, muammoli vaziyatlarda shaxs harakatini muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi ichki ko‘rsatmalarning shakllanishiga asos bo‘ladi. Demak, o‘zlashtirish – bu nafaqat bilim olish, balki shaxs tomonidan o‘z psixik faoliyatini boshqarishning murakkab tizimli shaklidir [106].

O‘quvchilar bilan olib borilgan psixologik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zlashtirmovchilik holatlari ko‘pincha aynan mana shu ichki dinamik tizimlarning yetarlicha shakllanmaganligi, psixologik barqarorlikning zaifligi yoki kognitiv stresslarga bo‘lgan past moslashuvchanlik bilan izohlanadi. Shu boisdan ham o‘quv jarayonlarida o‘zlashtirish muammolarining ildizini aniqlashda E.P. Krupnik ilgari surgan psixodinamik yondashuv alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

V.E. Shudnovskiy psixologik barqarorlikni axloqiy asoslar nuqtai nazaridan tahlil qilgan. U xulq-atvorda ikki asosiy strategiyani ajratadi: muhitga moslashish va shart-

sharoitlarni o‘zgartirish. Uning fikricha, axloqiy normalar asosida “Men” konsepsiyasini buzmasdan va mavjud qoidalarni hurmat qilgan holda faol bo‘lish zarurligi ta’kidlanadi. Xulqdagi nomuvofiqliklar esa ko‘pincha motivatsiya va ichki nazoratning zaifligi bilan izohlanadi [191].

A.N. Leontyev shaxsiyatning ichki tuzilishi va kontekstda barqarorligini o‘rganadi. U asosiy masalani – motivlar paydo bo‘lishi va ularning barqaror holatga aylanish statusini o‘rganishga bag‘ishlaydi. Uning nazarida, shaxsiyatning o‘tmishi va kelajagi ijtimoiy munosabatlarning o‘lchovi sifatida aniqlanadi. Shuningdek, shaxs ichki dinamik konfiguratsiyasini yaratishda motivatsiyalarning ierarxik tarkibi rol o‘ynaydi [114].

Shuningdek, A.N. Leontyevning nuqtai nazariga ko‘ra, o‘zlashtirish darajasi “Men” konsepsiyasiga asoslangan emas, balki jamiyat bilan uzviy munosabat orqali shakllanadi – ya'ni shaxsning “Men”i ijtimoiy kontekstdagi o‘zaro aloqalar orqali kuchayadi.

Gruzin psixologi D.N. Uznadze va uning shogirdlari (A.S. Prangishvili, Sh.A. Nadirashvili va boshqalar) tadqiqotlarida barqarorlikni shaxslararo munosabatlarda mustahkamlangan qotib qolgan munosabatlar bilan bog‘laydi. Ular ta’kidlagandirlarki, bunday tarzda shakllangan barqarorlik kelajakdagi faoliyatning psixologik tayanchiga xizmat qiladi [167].

Bundan tashqari, o‘zlashtirish tezligi va muvaffaqiyati shaxsning himoya mexanizmlari, kognitiv strategiyalari, emotsional va intellektual qobiliyatlari asosida shakllanishi pedagogik-psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi.

A.G. Asmolov o‘z izlanishlarida faoliyatning uch pog‘onasini (faoliyat, harakat, operatsiya) ajratib ko‘rsatgan. U harakat motivi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik tayyorgarlikni aniqlab bergan. Bu tayyorgarlik faoliyatni muvofiqlashtirish va ichki tartibni saqlashni ta’minlaydi [63].

Bizning xulosamizcha, psixologik barqarorlik o‘quvchining o‘zlashtirish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan asosiy ichki omillardan biri bo‘lib, u shaxsning axloqiy qarashlari, motivatsion tuzilmasi, ijtimoiy aloqalari va psixik tayyorgarligi

bilan chambarchas bog‘liq. Axloqiy tamoyillarga asoslangan holda xulq-atvorning moslashuvchan va konstruktiv shaklda namoyon bo‘lishi shaxsiy barqarorlikning asosi bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida, shaxsda motivlar ierarxiyasi, ichki tartib va maqsadli faoliyatga tayyorlik darajasi yuqori bo‘lsa, u murakkab shart-sharoitlarda ham o‘zini barqaror tutadi, bu esa o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zlashtirish jamiyat bilan o‘zaro munosabatlar orqali, ya’ni shaxsning “Men”i ijtimoiy kontekstda shakllanib va kuchayib boradi. Barqarorlikning shakllanishi shaxsning intellektual va emotsional resurslaridan tashqari, uning himoya mexanizmlari va kognitiv strategiyalariga ham bog‘liq. Faoliyatning muvofiqlashtirilgan va ichki tartibga solingan shakli, ayniqsa harakat motivlari bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirilganida, pedagogik-psixologik barqarorlik mustahkamlanadi va o‘quvchining bilimni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish ehtimoli ortadi.

## § 1.3. O‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini o‘rganishning psixologik adabiyotlarda yoritilishi

Psixologik adabiyotlarda o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini o‘rganish masalasi murakkab va ko‘p omilli tizim sifatida talqin qilinadi. Bu muammo nafaqat bilim darajasining pastligi bilan, balki o‘quvchining ichki psixologik holati, motivatsion faolligi, ijtimoiy moslashuvi va emotsional barqarorligi bilan ham bevosita bog‘liq. Adabiyotlarda o‘zlashtirmovchilik faqat tashqi baholar yoki test natijalaridagi salbiy ko‘rsatkichlar bilan izohlanmaydi. Aksincha, bu holat o‘quvchining shaxsiy rivojlanish sur’atlari, bilimga bo‘lgan qiziqishi, o‘zini anglash darajasi va ijtimoiy muhitga moslashuvchanlik darajasining pastligi bilan bog‘liq deb tushuntiriladi.

Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, o‘quv faoliyati muvaffaqiyatli kechishi uchun nafaqat bilim berish uslublari, balki o‘quvchining ichki ehtiyojlarini qondiruvchi psixologik shart-sharoitlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bilimni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun o‘quvchi o‘zini ruhiy jihatdan barqaror his qilishi, dars jarayonida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovni sezishi va shaxsiy faolligini namoyon qila olishi lozim. Adabiyotlarda o‘zlashtirish jarayonining uzluksiz va samarali kechishi

o‘quvchining mustaqil fikrlash ko‘nikmasi, refleksiv tafakkuri, motivatsion barqarorligi va psixologik tayyorgarligi bilan izohlanadi.

Psixologik manbalar o‘zlashtirmovchilik sabablarini tahlil etishda quyidagi omillarga alohida e’tibor qaratadi: o‘quvchining psixik rivojlanish bosqichi, emotsional fon, ichki motivatsiya darajasi, ijtimoiy muloqotdagi muvaffaqiyati, oilaviy muhitdagi ruhiy atmosfera, shaxsiy qiziqishlar va o‘z-o‘zini anglash darajasi. Bu omillar o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ulardan biridagi muvozanatsizlik butun o‘quv faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Zamonaviy psixologik adabiyotlar o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik muammosini bartaraf etishda individual yondashuv, differensial ta’lim, emotsional qo‘llab-quvvatlov va motivatsiyani mustahkamlovchi strategiyalarni qo‘llashni tavsiya etadi. Bunday yondashuv nafaqat o‘quvchining bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlab, o‘rganishga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Psixologik adabiyotlarda bu holat ko‘proq kompleks tahlilni talab qiluvchi shaxsiy rivojlanish vazifasi sifatida qaraladi.

Yurtimizda ta’lim tizimining sifatini oshirish va yoshlarning bilim egallash jarayonini chuqur tahlil qilish borasida bir qator yetuk psixolog olimlar tomonidan izchil ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu ilmiy faoliyatlar ayniqsa o‘quvchilarning o‘zlashtirish salohiyatini psixologik jihatdan chuqur o‘rganishga, ularning barqarorlik darajasini aniqlashga va shaxsiy imkoniyatlarni ochishga qaratilgan. Ushbu yo‘nalishda B.S. Abdullayeva, Sh.R. Baratov, M.G. Davletshin, K.A. Farfiyeva, A.M. Jabborov, G.N. Ibragimova, V.M. Karimova, Z.T. Nishonova, B.R. Qodirov, F.A. Choriyev, E.G‘. G‘oziyev, A.M. Nazarov, O‘.U. Shukurova, E. A’zamxo‘jaeva, D.G. Muhammadova, A.A. Zokirov kabi olimlarning ishlari alohida o‘rin tutadi [129].

B.S. Abdullayeva olib borgan amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida ishtirok etayotgan shaxslarning ichki faolligi, ilmiy qiziqishlari va ruhiy moslashuv darajalari o‘zlashtirish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. U o‘z tadqiqotlarida zamonaviy psixologik vositalarni joriy etish, psixodiagnostika va psixokorreksiya jarayonlarini takomillashtirish orqali o‘quv faoliyatini individual qamrab olish usullarini ishlab chiqqan. Xususan, bilim olish motivatsiyasi va ongsiz

darajadagi ta’sir etuvchilarni aniqlash orqali o‘quvchi shaxs qadriyatlarini saqlab qolish mexanizmlariga e’tibor qaratilgan [59].

Z.T. Nishonovaning tadqiqotlari mustaqil tafakkur va ijodiy salohiyatni shakllantirish, shuningdek, kognitiv jarayonlarni psixodiagnostika vositasida o‘rganishga qaratilgan. U interfaol o‘qitish metodlari orqali faoliyatga jalb etuvchi yondashuvlarni, ayniqsa, bihevioristik va kognitiv psixologiya asosida yondashuvlar yordamida o‘zlashtirish darajasini oshirish usullarini ishlab chiqdi. Mustaqil fikr va ijodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar orqali o‘quvchilarning ruhiy faolligi va darsga bo‘lgan ichki ehtiyoji kuchaytiriladi [128].

V.M. Karimova esa insonlarning o‘quv, mehnat va ijodiy faoliyatlarida namoyon bo‘ladigan xususiyatlarni o‘rganishda qobiliyat omiliga alohida urg‘u beradi. Uning fikriga ko‘ra, jamiyat rivoji uchun zarur bo‘lgan kuchli salohiyatli shaxs – bu intellektual jihatdan yetuk, aqliy mehnatga tayyor va ichki motivatsiyaga ega bo‘lgan insondir. Qobiliyat – bu insonning mavjud bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga tayyorligi va irodaviy kuchini ishga solgan holda izchil harakat qilishi natijasida shakllanadi. Ayniqsa, kasbga tayyorgarlik ko‘rayotgan yoshlarda bu salohiyat psixologik rivojlanishning asosiy mezonlaridan biri sifatida ko‘riladi [99].

E.G‘. G‘oziyev o‘z ilmiy faoliyatida o‘zlashtirishni faqatgina baholash mezonlari asosida emas, balki uning ichki rivojlanish dinamikasi, shaxsning intilishlari va qobiliyati bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, dastlabki baholarda o‘rtacha yoki past natijalar ko‘rsatgan o‘quvchi keyinchalik boshqa yo‘nalishlarda yuqori yutuqlarga erishishi mumkin. Hatto, ba’zi holatlarda ixtisosligi bo‘yicha emas, balki unga yaqin sohaga o‘tish orqali o‘zining ichki salohiyatini to‘liq namoyon qilishi ehtimoldan holi emas. Shuningdek, uning fikricha, bilim, ko‘nikma va malaka egallash jarayonida qobiliyatlar doimo faol bo‘lsa-da, ular bilim va ko‘nikmalarga bevosita bog‘liq emas. Shu sababdan, bilimlar va qobiliyatlar o‘rtasidagi o‘zaro nisbatlar va farqlar har tomonlama psixologik tahlil talab etadi [191].

Qobiliyatlar shaxsning individual-psixologik jihatlariga tegishli bo‘lib, ularni boshqa xususiyatlardan alohida holda qarash to‘g‘ri emas. Ya’ni, ularni xarakter fazilatlari, hissiy kechinmalar yoki boshqa shaxsiy holatlarga zid tarzda qarama-qarshi

qo‘yish asossiz hisoblanadi. Shu bilan birga, bu elementlarni qobiliyat bilan aynan tenglashtirish, ularni bir yo‘nalishda tasvirlash metodik xatoliklarni keltirib chiqaradi. Agar ushbu individual jihatlar faoliyatning asosiy talablariga mos kelsa va ular natijasida sezilarli yutuqlar namoyon bo‘lsa, bu holatlarda ular qobiliyat sifatida baholanishi mumkin [191].

Psixologik tadqiqotlarda emotsional intellekt masalasi chuqur tahlil qilingan bo‘lib, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni alohida urg‘u bilan ko‘rsatib o‘tiladi. Ushbu intellekt shakli shaxsning o‘z ichki kechinmalarini tartibga solishi, o‘zini anglash va o‘zini rivojlantirishga qaratilgan faol harakatlari orqali bilim olish jarayonini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Tajribalarda emotsional barqarorlik holatining stressli vaziyatlarni yengib o‘tish va o‘quvdagi muvaffaqiyatni oshirishdagi roliga alohida e’tibor berilgan. Mutaxassislar bunday ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus psixologik treninglar va mashg‘ulotlar o‘tkazilishini tavsiya etganlar.

Yana shuni aytish joizki, shaxsda ijobiy hissiy yondashuvni shakllantirish, uning bilim olishga bo‘lgan munosabatini kuchaytiradi va natijada o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi. Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar emotsional intellekt bilan intellektual faoliyatlar, ya’ni bilim o‘zlashtirish salohiyati o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ilmiy dalillar orqali ko‘rsatib bergan. Bu esa o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishida asosiy shartlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

M.G. Davletshin O‘zbekiston psixologiya sohasida qobiliyatlarni chuqur o‘rgangan nufuzli olimlar sirasiga kiradi. U qobiliyat deganda shaxsning psixik xususiyatlaridan tarkib topgan, uni faoliyatga yaroqliligini va muvaffaqiyatli natijalarga erishish salohiyatini aniqlovchi sifatlar yig‘indisini tushungan [83]. Olim klassik yondashuvdan kelib chiqib, qobiliyatlarni ikki asosiy turga ajratgan va ularning negizini fikrlash hamda tasavvur qilish qobiliyatlari tashkil qilishini ta’kidlagan.

Davletshinning asosiy yutuqlaridan biri, bu sohaga oid baholash mezonlarini yangicha nuqtai nazardan yoritganligidir. U o‘zining original yondashuvida eksperimental topshiriqlarning to‘qqiz xil shaklidan foydalanib, qobiliyat darajasini diagnostika qilish tizimini ishlab chiqqan. Uning ilmiy faoliyati 1950-yillarda boshlanib, dastlabki bosqichda o‘quvchilarda qiziqishlarni shakllantirish masalalarini

tahlil qilishga bag‘ishlangan. 1957 yilda Moskvada u 5–7-sinf o‘quvchilarida qiziqishlarni shakllantirishga oid nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan [83].

Davletshin qobiliyatlar muammosini tadqiq qilishda tizimli va kompleks yondashuvga asoslangan bo‘lib, bu yo‘nalishda ko‘plab muhim natijalarga erishgan. Uning fikricha, har bir faoliyat turi uchun qobiliyatlar alohida o‘rganilishi zarur, bu esa ularning mazmunini to‘liq anglashga imkon beradi. Kuzatuvchanlik qobiliyatlar uchun tayanch sifat bo‘lib xizmat qiladi, u insonning idrok faoliyati orqali texnik qurilma yoki mashinalar strukturasi va ular orasidagi aloqalarni tushunish qobiliyatini ifodalaydi.

M.G. Davletshin o‘z tadqiqotlarida qobiliyatlar faqatgina insonning ichki salohiyatini ifodalovchi omil emasligini, balki ular faoliyatda muvaffaqiyatga erishishni kafolatlamasligini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, ijtimoiy foydali harakatlar samaradorligi faqatgina qobiliyatga emas, balki bu qobiliyatlarning boshqa shaxsiy sifatlar bilan uyg‘unligiga ham bog‘liqdir. Shu jihatdan olim o‘z tadqiqotlarida insonda faoliyatga yuksak darajada moslashish imkonini beruvchi bir nechta asosiy sifatlarni ajratadi: birinchidan – faoliyati bo‘yicha ichki qiziqishning mavjudligi; ikkinchidan – mehnatga nisbatan ijobiy munosabat, mustaqil fikrlay olish, muammoli sharoitlarda bardavom bo‘lish; uchinchidan – psixik holatlarning faoliyatga mosligi, masalan: fikrni jamlash, intellektual qoniqish, ijodiy ruhning sezilishi va yangilikdan zavq olish holatlari.

Garchi olimning qobiliyatlar haqidagi nazariy qarashlari o‘sha davrda hali rasmiy doktorlik darajasida rasmiylashtirilmagan bo‘lsa-da, uning nazariy izlanishlari hozirgi zamon tadqiqotchilari uchun asosiy metodologik manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu holatni bugungi kunda ilmiy izlanish olib borayotgan ko‘plab mutaxassislarning Davletshin qarashlariga tayanuvchi fikrlarida ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, buyuk allomalarning ilmiy merosi bugungi kun talablari uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, M.G. Davletshinning qobiliyatlar psixologiyasiga oid ilmiy xulosalari hozirgi kunda zamonaviy o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini tahlil qilishda foydali nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. U

ilgari surgan g‘oyalar bugungi ta’lim jarayonining psixologik komponentlarini chuqur o‘rganishda metodologik poydevor bo‘lib qolmoqda.

Bugungi tadqiqotchilarning ishlari ham Davletshin g‘oyalarining zamonaviy talqini asosida davom ettirilmoqda. Masalan, psixolog K.A. Farfiyeva o‘zining “O‘spirinlarda ilmiy-innovatsion tafakkur shakllanishining ijtimoiy-psixologik vositalari” nomli tadqiqotida o‘quvchilarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish orqali ularning tasavvurini boyitish va bilim egallash darajasini oshirishga xizmat qiluvchi psixologik muhitni shakllantirish zarurligini isbotlaydi. U, shuningdek, oila, ustozlar va ijtimoiy guruhlarning namuna sifatidagi ta’sirini alohida tahlil qilib bergan [85].

Bundan tashqari, O‘.U. Shukurova olib borgan tadqiqotlarda informatsion tolerlik, ijodiy yondashuv, o‘ziga ishonch, hamkorlik, qaror qabul qilish qobiliyati kabi xususiyatlarning o‘zlashtirishga qanday ta’sir qilishi empirik ravishda o‘rganilgan va natijalar asoslangan [183].

Yana bir e’tiborga molik tadqiqotchi F.A. Choriyev o‘z izlanishlarida kreativ tafakkurni o‘lchash, uning psixologik mexanizmlari, dars jarayonida bu tafakkur turiga ta’sir etuvchi omillar va uslublarni tahlil qilib bergan. Uning fikricha, o‘quvchilarda kreativlik darajasining shakllanishi va rivojlanishi o‘zlashtirish samaradorligini belgilovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi [187].

A.M.Nazarov olib borgan ilmiy izlanishlarida talabalarning ilmiy-innovatsion faoliyatga tayyorlash tamoyillari va komponentlarini ochib berish bilan talabalarni ilmiy innovatsion faoliyatga yo‘naltiruvchi yangicha fikrlash, g‘oyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq masalalarning farqli jihatlari va uning faoliyat davomida namoyon bo‘luvchi darajalarini tizimli tahlil qilib o‘rgangan. Uning fikricha, talabalarda pedagogik-psixologik barqarorlik xususiyatlari ularning o‘z hissiyotlari, g‘oyalari, xatti-harakatlarini to‘g‘ri boshqara olish, o‘zini-o‘zi tartibga solish, aqliy qobiliyatlarining rivojlantirish natijasida o‘quv va ilmiy- innovatsion faoliyatning samadorligini yaxshilash imkoniyatlari takomillashib boradi. Demak, talabalar ilmiy - innovatsion faoliyatini shakllantirib borish uchun ushbu faoliyatga xos tamoyillar va komponentlarga amal qilish, pedagogik-psixologik barqarorlikni yaxshilash oliy

o‘quv yurtlarida ta’lim samaradorligini oshirishda ijodiy innovatsion faoliyatni yuzaga keltiruvchi determinant sifatida muhim ahamiyat kasb etadi» [129].

E.A’zamxo‘jaevaning «Ilmiy ishlarida ijodiy-innovatsion faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan muomala maromining yosh xususiyatlari va dinamikasi o‘rganilgan. Shuningdek, shaxslararo munosabatga kirishmasdan, o‘zaro ichki moslik, mutanosiblikni yuzaga keltirmasdan turib, hech qanday ruhiy faoliyat (faoliyat, xulq, muomala) muvaffaqqiyatli amalga oshmaydi. Muomala – shaxslararo innovatsion faoliyat (muloqotga kirishish, xulq-atvorni idora qilish) ehtiyojlari mohiyatidan kelib chiqadigan, ob’ektiv va sub’ektiv omillarga asoslanadigan, muayyan mexanizmlar ta’sirida harakatlanadigan ichki hamda tashqi bog‘lanishlarning ierarxiyasi dinamikasining ko‘p qirrali majmuasidan iboratdir. Ushbu yondashuvdan shuni anglash mumkinki, ijodiy-innovatsion faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishini yaxshilashda, o‘qituvchi bir qator ijtimoiy – psixologik omillarga ham, alohida e’tibor qaratishi maqsadga muvofiq hisoblanadi» [61].

Fikrimizcha, o‘quvchilarda o‘zlashtirish darajasini aniqlash va tushuntirishda faqat qobiliyatlarning mavjudligi bilan cheklanmasdan, ularning faoliyat bilan uyg‘unligi, shaxsiy fazilatlar bilan birgalikda namoyon bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Qobiliyatlar o‘z-o‘zidan muvaffaqiyat kafolati emas, balki shaxsdagi ichki qiziqish, mustaqil fikrlash, barqaror emotsional fon va intellektual faollik bilan birgalikda samarali faoliyatga aylanishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, o‘zlashtirish samaradorligi ko‘plab psixologik omillar, jumladan, kreativ tafakkur, o‘ziga ishonch, muammoli sharoitlarda bardavomlik, hamkorlik, oila va ustozlarning namuna ko‘rsatishi kabi jihatlar bilan belgilanadi. Ta’lim jarayonida bu omillar uyg‘unlashganda, bilimlarni egallash faqat passiv qabul qilish emas, balki ongli, mazmunli va ijodiy faoliyatga aylanadi. Bu esa o‘quvchining ichki salohiyatini to‘laqonli namoyon qilishiga imkon yaratadi. Bugungi zamonaviy tadqiqotlar ham aynan mana shu yondashuvlarni asos qilib olgan bo‘lib, shaxsning ijtimoiy-psixologik resurslari orqali o‘zlashtirishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, qobiliyatlarni to‘g‘ri yo‘naltirish va ularga mos psixologik muhitni yaratish o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirishda asosiy metodik mezon bo‘lib xizmat qiladi.

A.A.Zokirov (2002) tadqiqotida o‘quv faoliyatida o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning o‘ziga xos ijodiy-innovatsion hamkorlik xususiyatlari o‘rganilgan. Natijalarga ko‘ra, ta’limning turli vaziyatlarida o‘ziga xos vazifa va tuzilish ijodiylik xususiyatlariga ega bo‘lgan, o‘zgaruvchan shakllarda namoyon bo‘luvchi o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarining determinant sifatida -dinamik jarayon ekanligi isbotlangan [180].

J.Y.Saydullayevning “Talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” nomli dissertatsiya ishida talabalar o‘zlashtirish darajasiini rivojlanishiga emotsional intellektning bevosita ta’siri, shaxslararo munosabatlardagi hissiy holatlarni nazorat qilish va boshqarish sifatlarini estetik hislarga bog‘liq holda ijodiy faoliyatga integrativ shakllanishi tufayli «natijalarni baholash» xususiyatini ustuvor namoyon bo‘lishiga olib kelishi hamda talabalardagi aqliy xususiyatlarning differensial namoyon bo‘lishiga ko‘ra faoliyat natijasini adekvat baholash, o‘z ustida kognitiv, emotsional jihatdan ishlashning «rejalashtirish», «mustaqillik» sifatlariga bog‘liq holda xulq-atvorda ustuvorligi tufayli talabalarning o‘zlashtirish darajasii ijtimoiy qadriyatlarda identiv rivojlanishi to‘liq yoritilgan [98].

Z.Sh.Sherimbetovaning “Talabalarda o‘quv fanlarini o‘zlashtirishining pedagogik-psixologik xususiyatlari” nomli dissertatsiya ishida talabalarda o‘quv fanlarini o‘zlashtirishining pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlangan. Ta’limda individuallikni rasmiy-dinamik xususiyatlari, o‘quv faoliyati motivlari bilan bog‘liq o‘zlashtirish determinantlarini psixologik tahlil qilingan. Talabalarning o‘quv fanlarini o‘zlashtirishda tafakkur uslubining ahamiyatini tadqiq qilingan [185].

Shaxs tomonidan bilimlarni egallash darajasi — ya’ni o‘zlashtirish jarayoni — uning xatti-harakati va ichki psixologik holatlari bilan bog‘liq holda, bir necha o‘ziga xos omillar asosida shakllanadi. Bu jarayonda, avvalo, shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan ichki rag‘batlari (motivlari), faoliyatni amalga oshirish uchun zarur kuch-quvvat darajasi, muayyan harakat strategiyasi va ruhiy to‘siqlarni yengish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, salbiy emotsiyalarni nazorat qila olish, ya’ni ichki iztirobni pasaytirish, aqliy mehnatdagi samaradorlikni orttirish va hissiy qo‘zg‘alishni muvozanatda ushlash – bu holatlar psixologik tayyorgarlik va barqarorlikning ajralmas qismidir.

Psixologik barqarorlikning mazmuni o‘zlashtirish natijalarining yakuniy sifat ko‘rsatkichlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu barqarorlikni ta’minlovchi mezonlar ikki toifaga ajratiladi: statik va dinamik omillar. Statik ko‘rsatkichlar – bu faoliyatda belgilangan vazifalarga erishishdagi muvaffaqiyat ko‘rinishlari bo‘lib, aniq maqsadlarni bajarish sifati, faoliyatga nisbatan ishonch, murakkab topshiriqlarni mukammal ado etish salohiyati, atrof-muhitga, jamiyatga yoki tabiiy resurslarga zarar yetkazmaslik ehtimolini kamaytirish qobiliyati kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Bu ko‘rsatkichlar psixologik jihatdan ijobiy intensivlikni kuchaytiradi va bilimlarni samarali o‘zlashtirish uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Bizning xulosamizcha, o‘zlashtirish holatining dinamik tomonlari ham mavjud. Bunga quyidagilar kiradi: ko‘ngilchanlik, ijobiy ruhiy holatni saqlab qolish, salbiy tuyg‘ularni yenga olish, xatti-harakatni boshqarish va o‘zini nazorat qilish, vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga bo‘lgan layoqat. Bu dinamik xususiyatlar orqali o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi ijtimoiy-psixologik muhitda shakllanadi. Mazkur jarayonda individual fazilatlarning — ya’ni «yangilikni qidirish», «kreativlik», «amaliy tafakkur», «mantiqiy fikrlash», «muvaffaqiyatsizlikdan qochish», «ijodiy tafakkur» kabi integrativ va kognitiv imkoniyatlarning uyg‘unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu fazilatlar o‘zlashtirishga salmoqli ta’sir o‘tkazadi va psixologik-pedagogik barqarorlikning mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

## I bob bo‘yicha xulosa

1.O‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik hodisasi psixologik-pedagogik adabiyotlarda murakkab va ko‘p omilli tushuncha sifatida qaraladi. Bu holat o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklari bilan tavsiflanadi. O‘zlashtirmovchilik doimiy ravishda o‘quv motivatsiyasi, emotsional holat, psixik jarayonlar va shaxsiy xususiyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois, o‘zlashtirmovchilik sabablari birgina intellektual salohiyat bilan emas, balki keng ijtimoiy-psixologik omillar tizimi orqali aniqlanadi.

2.O‘quvchilarning shaxsiy psixologik holati, masalan, diqqatni jamlay olish, xotira sig‘imi, tafakkur darajasi va emotsional barqarorlik darajasi o‘zlashtirish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Diqqatning tarqoqligi yoki hissiy beqarorlik

o‘quv materiallarini o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, o‘z-o‘zini baholash darajasi va o‘ziga bo‘lgan ishonch ham o‘quvchilarning bilim olishdagi faoliyatini rag‘batlantiruvchi yoki to‘sqinlik qiluvchi omil bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, o‘zlashtirmovchilikni tushuntirishda har bir o‘quvchining shaxsiy psixologik portretini inobatga olish muhimdir.

3.O‘zlashtirmovchilik holatiga oila muhiti va ijtimoiy atrof muhitning ta’siri ham sezilarli darajada kuchli bo‘lishi mumkin. Oiladagi psixologik iqlim, ota-onaning ta’limga bo‘lgan munosabati, o‘quvchiga nisbatan ko‘rsatiladigan e’tibor darajasi uning bilim olishga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Shuningdek, ijtimoiy muhit – ya’ni tengdoshlar bilan bo‘ladigan munosabatlar, o‘qituvchining pedagogik yondashuvi va maktabdagi psixologik muhit ham o‘zlashtirishga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillar bevosita yoki bilvosita tarzda o‘quvchining o‘quv faoliyatini belgilaydi.

4.Dars mazmunining murakkabligi, didaktik vositalarning noto‘g‘ri tanlanishi yoki o‘qituvchining metodik xatolari o‘quvchilarda o‘zlashtirishda qiyinchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Dars jarayonida individual yondashuvning yo‘qligi, faqat frontal yondashuvga urg‘u berilishi ko‘p hollarda o‘zlashtirmovchilikka olib keladi. Bunga qo‘shimcha ravishda, baholash tizimining ob’ektiv emasligi yoki haddan tashqari bosim o‘quvchilarning psixologik tayyorligini susaytiradi. Shuning uchun, samarali ta’lim strategiyalari va didaktik moslashuv o‘zlashtirmovchilikning oldini olishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

5.Nazariy manbalar o‘zlashtirmovchilik muammosini hal qilish uchun tizimli va integrativ yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kognitiv strategiyalarni rivojlantirish va psixologik yordam choralarini amalga oshirish orqali bu holatni ijobiy tomonga o‘zgartirish mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarni motivatsion jihatdan qo‘llab-quvvatlash va emotsional ongni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Har bir o‘quvchining individual rivojlanish trayektoriyasini tahlil qilish orqali samarali psixopedagogik strategiyalar ishlab chiqilishi kerak. Shu tariqa, nazariy asoslar amaliy choralarni belgilashda yo‘l xaritasi vazifasini bajaradi.

# II BOB. O‘QUVCHILARDA O‘ZLASHTIRMOVCHILIK SABABLARINI O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

## § 2.1. O‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini o‘rganishning o‘ziga xos psixologik jihatlari

O‘quv fanlarini mukammal egallash — bu oddiy mexanik yodlash emas, balki murakkab va ko‘p bosqichli psixologik jarayondir. Har bir insonning o‘quv materialini qabul qilish, tahlil qilish va eslab qolish qobiliyati turlicha bo‘lib, shunga mos yondashuv talab etiladi. Har bir shaxsda mavjud bo‘lgan bilimlarni egallash sur’ati, qiziqish darajasi, psixologik xususiyatlar, emotsional holatlar va o‘zini anglash darajasi o‘zlashtirishga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Shaxsga mos o‘qitish uslublarini tanlash, o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayrimlar uchun vizual taqdimotlar samaraliroq bo‘lsa, boshqalar amaliy topshiriqlar yoki tahliliy masalalar ustida ishlash orqali o‘rganishda yuqori natijalarga erishadi. Ana shunday xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni individual yondashuv tamoyiliga asoslanadi. Ushbu yondashuv, o‘z navbatida, o‘quvchilarning o‘zlashtirish imkoniyatlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

O‘qitish jarayonida faol metodlardan foydalanish, masalan, guruhli muhokamalar, rol o‘yinlari, muammoli vaziyatlar asosidagi mashg‘ulotlar, shaxsning mavzuga faol aralashuvini ta’minlab, materialni chuqurroq o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu metodlar, nafaqat bilimlar hajmini, balki tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Har qanday pedagogik strategiyada emotsional holatning hisobga olinishi zarur: yuqori xavotir yoki psixologik bosim ostidagi o‘quvchi nafaqat past natijalar ko‘rsatadi, balki o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini ham yo‘qotishi mumkin.

Ichki va tashqi motivatsion omillar o‘quv faoliyatida turtki vazifasini bajaradi. O‘rganuvchining o‘z maqsadiga ishonishi, natijani his eta olishi, rag‘batlantirilishi yoki ijtimoiy qadriyatlar orqali ruhlantirilishi — bularning barchasi ongli ravishda bilimlarni o‘zlashtirishga olib keladi. Shuning uchun ham motivatsiyani rivojlantirish,

nafaqat jarayonga daxldorlik hissini, balki o‘zlashtirishga doimiy ichki tayyorlikni shakllantiradi.

O‘qituvchi tomonidan beriladigan mulohazali va tizimli fikr-mulohaza (feedback) esa o‘zlashtirishda kuzatilgan xatoliklarni aniqlash, to‘g‘rilash va bilimni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, shaxsning o‘z faoliyatiga baho berish qobiliyatini shakllantirishda ham bu jarayon ajralmas bo‘g‘in sifatida qaraladi.

Yana bir muhim jihat — bu o‘quv materialining zamonaviy, tushunarli va qamrovli shaklda taqdim etilishi, hamda metodologiyaning o‘zgaruvchan ta’lim ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lishidir. Shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan kontent o‘zlashtirish darajasining ortishiga xizmat qiladi, bu esa umumiy ta’lim sifati uchun muhim omildir.

Shu jihatdan qaraganda, bilim olish davri – bu shaxsning o‘zini anglash, o‘z qadrini his qilish va mustaqil qaror qabul qilish bosqichidir. Bu bosqichda inson o‘z maqsadini belgilaydi, turmush tarzi va qadriyat yo‘nalishlarini shakllantiradi, hayot mazmunini anglashga harakat qiladi. Bu esa o‘z navbatida motivatsion va reflektiv jihatlar orqali barcha o‘quv faoliyatining psixologik poydevorini tashkil qiladi. O‘zini anglash – bu faqatgina bilim olish emas, balki hayotiy ustuvorliklarni shakllantirish, ongli harakatlar tizimini barpo etish va intellektual ijtimoiy yetuklikka intilish demakdir.

Yoshlikda o‘z hayot yo‘lini tanlashga intilish, ayniqsa o‘quv faoliyatining markazida turgan bosqichlar davrida, insonning eng dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Bu davrda har bir o‘rganuvchi o‘z ichki salohiyatini to‘liq anglashga, turli ijtimoiy hamda kasbiy rollarni sinovdan o‘tkazishga va keyingi hayot yo‘nalishini aniq belgilashga kirishadi. Bunday holat, o‘zlashtirish darajasining turlicha bo‘lishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, shaxsiy va ijtimoiy yetilish, maqsadga yo‘naltirilganlik va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Taniqli psixolog K.A. Abulxanova-Slavskaya fikricha, o‘z hayoti va kasbiy faoliyat yo‘lini ongli tanlash — bu o‘z taqdirini belgilashning markaziy masalasidir [59]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga to‘sqinlik

qiluvchi omillarni aniqlash hamda shaxsning ichki qobiliyatlari, motivatsiyalari va emotsional foniga tayangan holda uni yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega.

V.A. Petrovskiy esa shaxsning o‘z yo‘lini tanlash jarayonini uch bosqichga ajratadi: avvalambor, mavjud imkoniyatlarni baholash; so‘ngra o‘zini ana shu imkoniyatlar bilan bog‘lab ko‘ra olish; nihoyat, muhim, atributiv jihatlarni tan olish — bu esa o‘zini anglashning yetuk bosqichidir [132]. Ushbu jarayonlarda bilimlarni o‘zlashtirish sifati bevosita shaxsning o‘zini baholash mezonlariga tayanadi. Dastlabki bosqichda, inson o‘zida mavjud intellektual va irodaviy resurslar asosida qaror qabul qilishga tayyormi, degan savolga javob izlaydi. Bu bosqichda yutuqdan ko‘ra, harakatga layoqatlilik muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi bosqichda shaxs o‘zida muayyan qobiliyatlarni ko‘ra boshlaydi, bu esa o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatni shakllantiradi. Oxirgi bosqichda esa inson “men” obrazining asosiy qismlarini mavjud bo‘lgan imkoniyatlar bilan bog‘laydi — bu psixologik jihatdan muhim qadam hisoblanadi.

O‘zlashtirmovchilik sabablari bilan bog‘liq ravishda, o‘zini anglashning individual shakllari va mazmuni, shaxsning hayotda nimaga intilishi, nimalarga qodirligi, va o‘zini qanday qabul qilishi kabi holatlarga bog‘liqdir. Bu esa o‘z-o‘zini rejalashtirish va mustaqil qaror qabul qilish salohiyati bilan chambarchas aloqador. Psixologik nuqtai nazardan, o‘z yo‘lini ongli tanlaydigan shaxs — bu o‘zining ichki istaklari, hayotiy pozitsiyasi va ijtimoiy kutishlar asosida yo‘nalishni shakllantiradigan kishi hisoblanadi.

Ilmiy yondashuvdan kelib chiqib aytganda, o‘zlashtirish darajasi o‘zini anglashning asosiy komponentlariga tayanadi: motivatsion bazis, maqsadga yo‘naltirilganlik, ijtimoiy rollarning anglanishi, shaxsiy kompetensiyalar va hayotiy ustuvorliklarni belgilash. Bilim olish faoliyatida qiyinchilikka duch kelayotgan o‘quvchi yoshlar, aynan ushbu omillarni o‘z vaqtida anglay olmagani sababli o‘zlashtirishda sustkashlik namoyon qiladi. Shu boisdan, o‘rganuvchi uchun mavjud bo‘lgan barcha imkoniyatlar haqida real, asoslangan tasavvur shakllanishi, bu jarayonda metodik yondashuvlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash zarur hisoblanadi.

Mazkur bosqichda shakllanadigan o‘z-o‘zini anglash faoliyati, nafaqat bilim olish, balki shaxsiy qobiliyatlar va kasbiy tayyorgarlikni aniqlash bilan bog‘liqdir. O‘zlashtirish salohiyatini chuqur tahlil etish orqali shaxs, o‘z ehtiyojlari, o‘tmishdagi holatlari va kelajakdagi rejalarini uzviy bog‘lab boradi. Bu jarayon ichki refleksiya mexanizmlarining faollashuvi, hayotiy rejalarning aniqlashtirilishi va shaxsiy yondashuvni takomillashtirish orqali sodir bo‘ladi.

R.Bern o‘z nazariyasida o‘zini anglashni, inson tomonidan ishlab chiqilgan va unga tegishli bo‘lgan ichki psixik mexanizmlar majmuasi sifatida ko‘radi. Uning ta’kidlashicha, bu ichki tizim shaxsning mavjud holatlarini, atrofdagilar bilan bo‘lgan munosabatlarini, harakatlarini va kelajakdagi faoliyatini rejalashtirishiga asos bo‘lib xizmat qiladi [75]. Bu jarayon o‘rganuvchining o‘zini anglashga, kelajakka doir qarorlar qabul qilishga va ijtimoiy rolga moslashishga yo‘naltirilgan psixologik poydevor vazifasini bajaradi.

Bilim egallash jarayoni ko‘plab yoshlar hayotining markaziy o‘rnini egallaydi. Aynan shu davrda shaxs o‘z imkoniyatlarini aniqlashga harakat qilib, o‘rganishga bo‘lgan ichki tayyorgarlikni shakllantira boshlaydi. Bu jarayon o‘z-o‘zini baholash va real imkoniyatlarni anglash orqali shakllanadigan murakkab, moslashuvchan “Men” konsepsiyasining yuzaga kelishiga olib keladi. Natijada, shaxsda shaxsiy, ijtimoiy va professional rollar paydo bo‘ladi.

Ichki ehtiyojlarning yetilish darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar o‘zini faol ishtirokchi sifatida ko‘ra boshlaydi va murakkab, muammoli holatlarni hal qilishda muvozanatli harakat qilishga intiladi. Ular noxush vaziyatlarni oldindan sezish, ehtimoliy stress manbalarini aniqlash va ularning salbiy ta’sirini yengish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bu guruhdagi shaxslar, shuningdek, ichki intuitsiyasi va bilimga bo‘lgan ishtiyoqi orqali ruhiy barqarorlikni saqlashga intiladi va o‘z fikrlarining poydevorini ilmiy asosda quradi.

Bilim olishga yo‘naltirilgan faoliyat faqatgina shaxsiy o‘sishni emas, balki intellektual imkoniyatlarni kengaytirish, ijodiy salohiyatni yuzaga chiqarish uchun ham xizmat qiladi. Shuning uchun ham, ilmiy fikrlash va tafakkurni rivojlantirish nafaqat ijtimoiy moslashuvni, balki psixologik farovonlikni ham ta’minlaydi. Shu

tarzda shakllangan faoliyat insonning asosiy ehtiyojlarini, aniq belgilangan maqsadlarini qondirishga, o‘z-o‘zini tartibga solish, muloqot madaniyati, hissiy barqarorlikni mustahkamlashga zamin yaratadi.

Shaxsning o‘zlashtirish salohiyati uning qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va ruhiy holati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jihatlar bir vaqtning o‘zida ham himoya obyekti, ham himoya vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Inson salomatligini, manfaatlarini, ruhiy barqarorligini saqlab qolish uchun turli psixologik mexanizmlardan foydalanadi.

O‘zini anglashni o‘rganishga qaratilgan yondashuvlar, ya’ni shaxsiy qiyofani to‘g‘ri shakllantirish, dunyo va jamiyat haqidagi tasavvurlarni uyg‘unlashtirish orqali o‘zaro bog‘liq bilimlar tizimini yaratadi. Shu jihatdan, o‘zini anglash nafaqat ilmiy dunyoqarash obyekti, balki uni shakllantiruvchi ichki hodisa sifatida ham qaraladi.

Faoliyat davomida insonda kuzatiladigan asosiy belgilar – intellektual qiziqish, ilmga rag‘bat, o‘z fikriga ishonch va mas’uliyat hissi, ayniqsa noodatiy vaziyatlarda yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rivojlanish yo‘li har doim ijtimoiy shart-sharoitlar, stereotiplarga qarshi turish va muqobil fikrlashni talab qiladi. Ayniqsa, yangi ijtimoiy muhitga o‘tishda, mavjud tasavvurlar yangilanadi va ularga yangi talqin beriladi.

O‘rganilgan modelga asoslanib, inson shaxsining bilim egallash jarayonidagi faoliyati subyektiv yondashuv asosida baholanadi. Bu yondashuv, o‘z navbatida, o‘zini rivojlantirish uchun zarur psixologik sharoitlarni aniqlash va shakllantirish imkonini beradi. Shaxsning voqelikdagi ishtiroki va unga bo‘lgan munosabati asosiy rivojlanish manbai sifatida qaraladi.

Mazkur yondashuv doirasida inson faoliyatini tadqiq qilishda birinchi navbatda, “ehtiyoj”, “munosabat”, “tajriba”, “his-tuyg‘u” va “maqsad” kabi omillarning o‘zaro ta’siri tahlil qilinadi. Rus olimi A.G. Asmolovning fikricha, harakatga undovchi ichki omillar kelajakdagi natijalarni kutish va ularga tayyorlanish bilan bog‘liq bo‘ladi [63].

V.A. Alekseyevning tadqiqotlarida esa faoliyatni boshlash va uni mustaqil amalga oshirish, mas’uliyatni zimmasiga olish, ijodkorlik va o‘zini o‘zi anglash kabi

sifatlar faoliyatni rivojlantiruvchi vositalar sifatida qayd etilgan [18]. Bilimni amaliyotga tatbiq etish orqali mazkur jihatlar mustahkamlanadi va faoliyat davomida yuqori intellektual ko‘rsatkichlarga erishiladi.

O‘quvchilarda kelajakka yo‘naltirilgan fikr yuritish, mustaqil faoliyat yuritish, tanqidiy tahlil qilish, qat’iyatli qarorlar qabul qilish, ijodiy yondashuvni shakllantirish asosida bilimni o‘zlashtirish salohiyati ortadi. Bu jarayonda salbiy hissiy holatlar – xavotir, qo‘rquv, ijtimoiy yakkalanish, stress – kamayadi. Aynan shuning hisobiga pedagogik va ilmiy dunyoqarash yuqori kognitiv darajada rivojlanadi va barqarorlashadi.

Fikrimizcha, bilim egallash jarayoni shaxsning ichki ehtiyojlari, emotsional holati va o‘zini anglash darajasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kompleks tizimdir. Bu tizimning shakllanishida shaxsning o‘z imkoniyatlarini idrok qilishi, faoliyatga bo‘lgan munosabati va voqelikka nisbatan mustaqil pozitsiya egallashi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shunday yondashuv shaxsda intellektual faollikni rivojlantiradi, ichki muvozanatni saqlashga yordam beradi hamda mustahkam psixologik iqlimni shakllantiradi. O‘zini anglash bilan bog‘liq jarayonlar bilimga bo‘lgan munosabatni mustahkamlab, shaxsning ijtimoiy muhitdagi faolligini oshiradi. Mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash, hissiy barqarorlikni saqlash kabi ko‘nikmalar esa bilimni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Faoliyat davomida shakllangan ijobiy psixologik mexanizmlar o‘quvchining stressga qarshi chidamliligini kuchaytirib, uni ijtimoiy jihatdan barqaror shaxsga aylantiradi. Shu sababli, har bir o‘quvchining bilim olishdagi yondashuvi ichki ongiy holatlar bilan

Shaxsning mavjud jamiyatdagi odamlarga nisbatan tutgan xulqi va o‘zini qanday tushunishi – bu nafaqat individual ruhiy jarayonlarning aksidir, balki axloqiy-tarbiyaviy mazmunga ega ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Bu jarayonni tahlil qilishda ikki asosiy yo‘nalish ajratib ko‘rsatiladi [74]. Birinchisi, shaxsning ichki dunyosiga tegishli bo‘lib, u subyektiv omillar – ehtiyojlar, qiziqishlar, istaklar, maqsadlar, motivlar kabi psixologik xususiyatlarga tayangan holda izohlanadi. Ikkinchi yo‘nalishda esa shaxsning tashqi muhitga bo‘lgan munosabati va konkret holatga asoslangan tashqi ta’sirlar, ya’ni stimullar asos qilib olinadi [74].

Shuni ta’kidlash joizki, inson harakati ortida yotgan har qanday ichki turtki o‘z manbasini ehtiyojlardan oladi. Ya’ni, faoliyatning boshlanishida albatta qandaydir ehtiyoj yuzaga keladi, va aynan shu ehtiyojning turi, mazmuni va ahamiyati faoliyatning qanchalik barqaror va samarali bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, bilim olish ehtiyoji bo‘lmagan o‘quvchi ma’lum o‘quv topshiriqlarini bajarayotganda ichki rag‘batni his qilmasligi oqibatida motivatsiyaning pasayishi, shunga monand o‘zlashtirish darajasining susayishi kuzatiladi.

R.Nemov [186] o‘zining izlanishlarida insonning motivatsion sohasini tuzilmaviy nuqtai nazardan ikki asosiy guruhga ajratadi. Ulardan birinchisi biologik ehtiyojlar bo‘lib, ular organizmga xos tabiiy holatlarni o‘z ichiga oladi: masalan, uyqu, ochlik, chanqoqlik yoki fiziologik qulaylikni ta’minlash ehtiyoji. Ikkinchi guruh esa insoniy faoliyatning ijtimoiy tomoniga tegishlidir: mehnatga bo‘lgan intilish, bilimga qiziqish, estetik va ma’naviy qadriyatlarni anglash ehtiyoji kabi omillar bu yerda aks etadi. Nemovning fikricha, har ikki turdagi ehtiyojlar o‘z mohiyatida ijtimoiylashgan bo‘lib, ular jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy normalar, madaniyat, qadriyatlar va atrofdagilarning ta’siri bilan shakllanadi [99].

A.K.Markova [119] esa motivatsiyani ikki asosiy guruhda tasniflaydi. Ulardan birinchisi o‘quv faoliyati va uning mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan bilishga yo‘naltirilgan ichki motivlardir. Ikkinchisi esa shaxsning boshqalar bilan o‘zaro munosabatini ifodalovchi ijtimoiy motivlardir. Ushbu tasniflar o‘quv faoliyati davomida shaxsning rag‘batlanish mexanizmlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi va psixologik adabiyotlarda keng yoritilgan [119].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv motivatsiyasi faqat ijobiy turtkilar bilan emas, balki salbiy omillar bilan ham ifodalanadi. Ijobiy motivatsiya – bu shaxsning bilimga bo‘lgan ongli intilishi, yangi usullarni o‘zlashtirishga qiziqishi, atrofdagi ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli va qadrlangan bo‘lish istagidir. Salbiy motivlar esa aksincha, o‘qishdan bo‘yin tovlash oqibatida yuzaga keladigan noqulayliklardan, jazo yoki tanbehdan qochish istagidan kelib chiqadi. Bu holatlarda faoliyatga bo‘lgan munosabat shaxsiy emas, balki tashqi zo‘riqish orqali shakllanadi [119].

O‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini o‘rganishda aynan yuqorida ko‘rsatilgan motivatsion mexanizmlarni tahlil qilish zarur. Chunki o‘zlashtirish darajasi ko‘pincha motivatsiya kuchi va sifatiga bevosita bog‘liq. Agar psixologik ehtiyojlar ongli, barqaror va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lsa, bilim olishga bo‘lgan qiziqish o‘quv faoliyatida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday holatlarda o‘quvchilar faolligi, o‘zlashtirish salohiyati va mustaqil fikrlash darajasi ortadi. Aksincha, ichki motivatsiyasi past, faqat tashqi omillarga qarab harakat qiladigan o‘quvchilarda esa, chuqur o‘zlashtirish emas, balki yuzaki, formallikka asoslangan yondashuvlar kuzatiladi.

Z.T. Nishonovaning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida hissiy omillar o‘zlashtirish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, ta’lim – bu faqat axborot uzatish emas, balki emotsional aloqani ham o‘z ichiga olgan murakkab jarayon. Agar berilgan ma’lumotda ruhiy uyg‘unlik bo‘lmasa, u tezda unutiladi. Insonning kayfiyati ma’ruza tushunish va eslab qolishga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Masalan, optimistik va quvonchli ruhdagi darslar yanada samaraliroq bo‘ladi.

Olimaga ko‘ra, mazkur natijalar ikki omilga bog‘liq: bir tomondan, dars mazmuni, ta’limiy reja hamda darsliklar va qo‘llanmalar sifati; boshqa tomondan esa o‘qituvchining pedagogik mahorati hamda o‘qish guruhining psixologik xususiyatlari, masalan, individual sezgirlik va hissiy intellekt darajalari.

N.S. Safayev milliy o‘zlikni anglash psixologik mexanizmlari haqida izlanib, uni to‘rt asosiy tarkibiy element – kognitiv, affektiv, diniy va xulq-atvorlik komponentlar orqali tahlil qiladi. Bu komponentlar birgalikda “vijdon” kategoriyasini hosil qiladi. Umumiy e’tiqodga ko‘ra, bu subyektning ichki ijtimoiy xulq-atvori sifatida rivojlanadi va kasbiy pedagogik jarayonlarda barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

A.I. Rasulov esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik psixologiyasiga e’tibor qaratadi. Uning fikricha, bu aloqalar ijtimoiy-psixologik rollar asosida shakllanadi. Chunki dars jarayonida yetakchi va izlovchi o‘rtasidagi aloqalar birinchi bo‘lib izlovchiga – o‘qiyotgan shaxsga – sezdiriladi. Natijada, uni qanday baholash ta’lim samaradorligini tahlil qilishda asosiy mezonga aylanadi.

A.I. Rasulovning tadqiqotlaridan kelib chiqadiki, bu shaxslar ego stabil, konformizmga moyil, yuqori darajada vijdonli va muloqotga ochiq bo‘lish bilan bir qatorda, hissiy intuitiv fikrlash va nazokatlilik xususiyatlariga ega bo‘lishadi. Ushbu profiling pedagogik munosabatlarning samarali tashkil etilishida muhim omil hisoblanadi.

O‘quv faoliyatining muvaffaqiyatli kechishida psixik jarayonlarning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, diqqat va tasavvur kabi bilish funksiyalari o‘rgatilayotgan fanlarning mazmunini puxta egallashga imkon yaratadi. Bu funksiyalar bilim olishning asosiy poydevoridir, chunki ular orqali tashqi axborot ichki ong tizimida qabul qilinadi, qayta ishlanadi va mustahkamlanadi.

Sezgi va idrok kishi ongida bilimlarni shakllantirishning boshlang‘ich nuqtasidir. Axborot atrof-muhitdan sezgi a’zolari orqali olinadi va keyinchalik idrok vositasida ma’noli tushunchalarga aylantiriladi. Idrokning sifatli ishlashi bevosita o‘rganilayotgan mavzularni to‘g‘ri anglash, faktlarni muhim va noaniq jihatlaridan ajratish, konseptual strukturalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Shu sababli idrokdagi kamchiliklar o‘quv materiallarini noto‘g‘ri tushunishga olib kelishi, bu esa o‘zlashtirishda qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Xotira esa bilish jarayonlarining mustahkamlovchi bosqichi bo‘lib, olingan axborotni uzoq vaqt eslab qolish va kerakli vaqtda faol tarzda eslash imkonini beradi. O‘rganilgan bilimlar vaqt o‘tishi bilan yangilari bilan bog‘lanib, murakkab kognitiv tuzilmalarga aylanadi. Xotiraning kuchi va barqarorligi ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini belgilovchi muhim omildir.

Tafakkur – ong faoliyatining asosiy mexanizmi bo‘lib, u orqali o‘zlashtirilgan bilimlar tahlil qilinadi, umumlashtiriladi, yangi holatlarga nisbatan qo‘llanadi. Muammolarni hal qilish, sabab-oqibat aloqalarini anglash va muayyan qarorga kelish – bularning barchasi tafakkurning faoliyatiga bog‘liq. Agar tafakkur mexanizmi yaxshi shakllangan bo‘lsa, o‘zlashtirishda mantiqiylik, tizimlilik va yangicha fikrlash yuzaga keladi.

Diqqat esa bilim olish jarayonining ruhiy markazida turadi. Undagi barqarorlik va kuchlilik shaxsning o‘quv materiali bilan faol aloqasini ta’minlaydi. Diqqat tarqoq

bo‘lsa yoki boshqarilmasa, e’tibor chetga chiqadi va o‘zlashtirish jarayoni susayadi. Shuning uchun uni muvozanatli tarzda yo‘naltirish va boshqarish malakalari zarurdir.

Tasavvur va ijodkorlik esa bilish jarayonlarining kreativ tarkibiy qismi sifatida, mavjud bilimlar asosida yangi tasvirlar, g‘oyalar va tushunchalarni shakllantirish imkonini beradi. Tasavvur orqali inson qiyosiy fikrlashga, alternativ yechimlar topishga va mavzularni kengroq qamrab olishga intiladi. Ijodkorlik esa o‘rgangan bilimlarni turli kontekstlarda qayta ishlab chiqish va yangicha yondashuvlar orqali amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Mazkur psixik jarayonlarning har biri – o‘zlashtirmovchilikning psixologik asoslarini anglashda asosiy komponentdir. Chunki o‘zlashtirmovchilik faqat bilim yetishmovchiligi bilan emas, balki bilish jarayonlarining buzilishi, noyetarliligi yoki noto‘g‘ri boshqarilishi bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, o‘quvchilar o‘rtasida o‘zlashtirmovchilik sabablarini tahlil qilishda ushbu psixik funksiyalarning darajasi, holati va o‘zaro bog‘liqligi chuqur o‘rganilishi kerak.

Refleksivlik prinsipining asosiy mohiyati shundan iboratki, u shaxsning o‘z ta’lim faoliyatini mustaqil tahlil qilish va natijalar asosida to‘g‘ri xulosalar chiqara olish malakasini shakllantiradi. O‘quv faoliyati jarayonida inson o‘zining bilim darajasini baholash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi. Bunday yondashuv orqali o‘zlashtirishdagi samaradorlik ortadi, psixologik jihatdan ongli yondashuv shakllanadi. Natijada, o‘z-o‘zini anglash, o‘zgarishga tayyorlik va kelgusidagi o‘quv rejalarini tuzish qobiliyati oshadi. Refleksiya orqali shaxs o‘zining o‘quv jarayonidagi holatini aniqroq tushunadi, bu esa o‘zlashtirmovchilik sabablarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Fanlararo bog‘liqlikni ta’minlovchi integrativ yondashuv esa bilimlarni mustahkamlashda samarali natijalar beradi. Turli sohalar o‘rtasidagi mantiqiy aloqalarni anglash, psixologik jihatdan bilimlarni umumlashtirish va muayyan tizimga solish orqali o‘zlashtirish kuchayadi. Bu esa o‘quv materialini faqat yodlash emas, balki tahlil qilish, real hayotda tatbiq etish va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Bunday integratsiyalashgan o‘rganish shakli, ayniqsa, o‘zlashtirmovchilikka moyil

o‘quvchilarda fikrlar zanjiri va tushunchalar tarmog‘ini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish — bu shunchaki texnik vositalarni qo‘llash emas, balki didaktik yondashuvlarning o‘zgarishi, o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantirish demakdir. Elektron platformalar, masofaviy ta’lim modullari, interaktiv usullar orqali bilimlarni taqdim etish, o‘zlashtirishga doir muammolarni kamaytiradi. Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, innovatsion uslublar o‘quvchilarni rag‘batlantiradi, ular o‘quv materiallarini individual tezlikda o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayonning moslashuvchanligi, ayniqsa, o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keluvchi o‘quvchilarda motivatsiyani oshiradi.

Jamoaviy ishlashga asoslangan kooperativ ta’lim tamoyili o‘quvchilar orasida o‘zaro axborot almashinuvi, fikrlar bilan boyitilish va kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishini ta’minlaydi. Guruhiy topshiriqlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrini asoslash, boshqalarning nuqtai nazarini tinglash va o‘zlashtirishda muloqot orqali yangi yondashuvlarni kashf etadi. Bunday kooperativ muhitda o‘zlashtirmovchilik holatlari sezilarli darajada kamayadi, chunki bilimlar birgalikda ishlash orqali chuqurroq anglanadi.

Har bir o‘quvchining shaxsiy jihatlari, qobiliyat darajasi va bilish sur’atini inobatga olgan holda tashkil etilgan individual yondashuv tamoyili — o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilikni oldini olishda samarali vosita hisoblanadi. Psixologik jihatdan bu yondashuv shaxsiy ehtiyojlarni qondirish, ijtimoiy muvofiqlikni oshirish va ichki motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. O‘quvchi o‘z imkoniyatlariga mos o‘quv yuklamasi bilan shug‘ullanganida, o‘zlashtirish jarayoni barqaror va samarali kechadi.

Yuqoridagi tamoyillarni uyg‘unlashtirilgan holda amaliyotga tadbiq qilish, o‘quvchilarning bilim olishdagi passivlik darajasini kamaytiradi, mustaqil fikrlashga yo‘naltiradi va ularni kelgusidagi kasbiy faoliyatga ruhiy jihatdan tayyorlaydi. Ayniqsa, o‘zlashtirmovchilik sabablari psixologik omillar — diqqat yetishmasligi, xotiraning zaifligi, motivatsiyaning pastligi bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarda, bu tamoyillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Diqqat psixik faoliyat sifatida o‘quv materialiga yo‘naltirilgan e’tiborning miqdori va sifati bilan bevosita bog‘liq. Ixtiyoriy diqqatning uzoq muddat saqlanishi ko‘pincha insonning iroda kuchini talab qiladi. Natijada bu holat tez charchashga olib keladi. Aksincha, ixtiyorsiz diqqat paytida ong iroda kuchisiz ham ma’lumotga qaratiladi, bu esa psixologik jihatdan kamroq energiya sarflashni ta’minlaydi. Shuning uchun o‘quv jarayonini tashkil etishda ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatni navbatma-navbat faollashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv orqali o‘quvchida fikrni uzoq muddat jamlash, ma’lumotni to‘g‘ri qabul qilish va uni esda saqlash imkoniyati oshadi. Aynan diqqat mexanizmlarini psixologik nazorat qilish orqali o‘zlashtirmovchilikning oldini olish mumkin bo‘ladi.

Agar insonning ongli faoliyati mazmunan va jarayon jihatdan o‘ziga ma’qul bo‘lsa, diqqat ixtiyoriy tarzda jamlangan bo‘lsa-da, uni faqat ixtiyoriy diqqat deb emas, balki ixtiyoriydan keyingi diqqat shakli deb atash mumkin. Bunday holatda, kishi irodaviy kuch ishlatmasdan ham e’tiborini faoliyatga qaratadi, chunki jarayonning o‘zi uni qiziqtirib yuboradi. Masalan, yuqori sinf o‘quvchilari orasida imtihon oldidan kitobni tahlil qilish jarayonida dastlab o‘zini majburlash orqali diqqatni safarbar qiladi, biroq bir muddatdan so‘ng shu faoliyatga shu darajada berilib ketadiki, uni tashqi omillar chalg‘itishi qiyinlashadi. Dastlab ixtiyoriy tarzda yuzaga kelgan diqqat holati asta-sekin ixtiyoriydan so‘nggi shaklga o‘tadi. Bu turdagi diqqat uzoq davom etuvchi, barqaror yo‘naltirilgan e’tibor bilan ifodalanadi va yuqori darajadagi fikriy mehnat samaradorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

E’tibor barcha bilish jarayonlarining barqaror, samarali va uyg‘un kechishida asosiy shart bo‘lib xizmat qiladi. Har qanday sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq va xayol kabi psixik jarayonlarning faol ishlashi e’tibor tufayli amalga oshadi. Barqaror va kuchli e’tiborning zamirida esa qiziqish va iroda yotadi. Agar diqqat sust va beqaror bo‘lsa, bilish faoliyati natijasida olinadigan ma’lumotlar sifatsiz va kam samarali bo‘ladi. Shu sababli, e’tiborning barqaror bo‘lmasligi holatida uni ongli boshqarish va iroda orqali faoliyatga yo‘naltirish psixik jarayonlarning sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

E’tibor boshqa bilish jarayonlaridan farqli o‘laroq mustaqil mazmunga ega emas. U har doim sezgi, tafakkur, idrok, xotira kabi jarayonlara bog‘liq ravishda yuzaga keladi va ularning kechishiga ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur jarayonlar bilan integratsiyalashgan holda e’tibor inson faoliyatining muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Diqqatni jalb qiluvchi sabablar uch toifaga bo‘linadi. Birinchi toifa — tashqi qo‘zg‘atuvchilarning kuchi, yangiligi va o‘ziga xosligi asosida refleksiv tarzda e’tiborni jalb etuvchi omillar. Ikkinchi toifa — insonning ehtiyojlari va qiziqishlari bilan bog‘liq ichki sabablar. Uchinchisi esa faoliyat va maqsadga yo‘naltirilgan ongli sabablar bo‘lib, e’tibor orqali faoliyat samaradorligi ta’minlanadi.

Diqqat, o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini aniqlashda psixologik asos sifatida muhim o‘rin tutadi. Faoliyat davomida e’tiborning yuqori darajada bo‘lishi muvaffaqiyatga, aks holda sustligi esa muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Agar biror vazifa muvaffaqiyatli yakunlansa, e’tibor jarayoni avtomatik tarzda to‘xtaydi, ammo bajarilmay qolgan ishlar e’tiborni davom ettiradi. Vaqtni idrok etish ham e’tibor bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bir xil davom etgan vaqt oraliqlari odamlar tomonidan turlicha sezilishi diqqatning ob’ektga qaratilganlik darajasiga bog‘liqdir. Masalan, hayajonli darsni tinglash vaqtning tez o‘tishiga, sabrsizlik bilan kimnidir kutish esa vaqtning cho‘zilishga sabab bo‘ladi.

E’tibor idrokning sifatlari — tezlik, to‘liqlik, ravshanlik va aniqlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Idrokning tezligi sezgi organlariga ta’sir etayotgan obyektni anglashgacha bo‘lgan jarayonni bildiradi va bu oraliqda e’tibor qanchalik kuchli bo‘lsa, idrok shunchalik tez shakllanadi. To‘liqlik esa obyektga oid belgilarni e’tibor yordamida to‘liq qamrab olish bilan ifodalanadi. Diqqat barqaror bo‘lsa, idrokda aniq tasvirlar hosil bo‘ladi. Agar e’tibor zaif bo‘lsa, voqelikdagi obrazlar notekis idrok etilib, mavjud bo‘lmagan belgilar ham aks etishi mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini to‘g‘ri va samarali qabul qilishida e’tiborning holati va barqarorligi markaziy o‘ringa ega.

Bizning xulosamizcha, o‘quvchilarda o‘zlashtirish darajasining pastligi ko‘pincha e’tiborning beqarorligi, diqqatning tez chalg‘ishi va ongli faoliyatga

qiziqishning yetarli emasligi bilan bog‘liqdir. Agar o‘quv faoliyati mazmunan o‘quvchiga ma’qul bo‘lsa, u holda diqqatni irodaviy kuch sarflamasdan faoliyatga yo‘naltirish mumkin, bu esa barqaror va sifatli o‘zlashtirishning asosi hisoblanadi. O‘quvchilar tomonidan ta’lim jarayonida sezgi, idrok, xotira va tafakkur jarayonlarining optimal ishlashi uchun diqqat holati markaziy rol o‘ynaydi. Agar diqqat ixtiyoriy tarzda boshlangan bo‘lsa-da, faoliyat mazmuni o‘quvchini qiziqtirib yuborishi natijasida u ixtiyoriydan keyingi shaklga o‘tadi, bu esa yuqori samaradorlikka olib keladi. Bunday holat o‘quv jarayonining tabiiy va mustahkam kechishini ta’minlaydi, ayniqsa yuqori sinf o‘quvchilari uchun bu muhim omildir. Vaqtni anglash, idrok aniqligi, obrazlarning ravshanligi va tafakkurning chuqurligi – barchasi e’tiborning sifati bilan bog‘liq bo‘lib, bu jihatlar ta’lim samaradorligini belgilovchi psixologik determinantalardir. Shu bois, ta’limda diqqat va e’tiborni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralishi lozim.

## § 2.2. O‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini o‘rganishning metodik vositalar tasnifi

O‘zlashtirmovchilik muammosi nafaqat ta’lim sifati va samaradorligiga ta’sir qiluvchi holat, balki o‘quvchi shaxsining psixologik rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri taalluqli ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida qaralmoqda. Shu sababli, bu muammoni ilmiy asosda o‘rganish uchun aniq metodologik yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur. O‘zlashtirmovchilikning psixologik mohiyatini to‘liq ochib berish, uni keltirib chiqaruvchi sabablar, ichki va tashqi omillar tizimini aniqlash hamda individual shaxsiy xususiyatlar bilan bog‘liq jihatlarni tahlil qilish mazkur tadqiqotning metodologik poydevorini tashkil etadi.

Avvalo, o‘zlashtirmovchilikni o‘rganishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosiy tamoyil sifatida belgilanadi. Bu yondashuv har bir o‘quvchining individual psixik holatini, qobiliyatlar darajasini, emotsional-irodaviy sohasini, motivatsion ehtiyojlarini inobatga olgan holda tahlil qilishga asoslanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvda o‘quvchining bilimlarni o‘zlashtirishdagi muammolari – nafaqat bilim yetishmovchiligi yoki o‘qitish sifati bilan, balki ichki psixik to‘siqlar, o‘z-o‘zini past

baholash, tashqi muhitdan ajralganlik, o‘zini boshqarishdagi muammolar bilan bog‘liq holda ko‘riladi.

Tadqiqotda foydalanilgan ikkinchi asosiy metodologik mezon bu – kompleks yondashuvdir. O‘zlashtirmovchilik sabablarini faqat bir tomonlama, masalan, faqat motivatsiya yoki faqat kognitiv imkoniyatlar asosida talqin qilish bu murakkab muammoning mohiyatini to‘liq qamrab olmaydi. Shu sababli, kompleks yondashuv asosida biz bilimlarni qabul qilish, motivatsion holat, emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, o‘z-o‘zini boshqarish kabi bir qator psixologik komponentlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga harakat qildik. Har bir omil alohida o‘lchanadi, lekin umumiy tizimda ularning o‘zaro ta’siri asosida o‘quvchilardagi o‘zlashtirmovchilik darajasi aniqlanadi.

Metodologik yondashuvlar orasida muammo-mazmunli yondashuv ham alohida o‘rin tutadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, o‘zlashtirmovchilik holati muayyan o‘quv muammosiga o‘quvchi tomonidan berilgan psixologik javob sifatida qaraladi. O‘quv topshiriqlari mazmuni va shakli, ular berilayotgan shart-sharoitlar, vaqt chegaralari va baholash mezonlari o‘quvchida turlicha stress, emotsional bosim, psixologik to‘siq yoki motivatsion reaksiya uyg‘otadi. Ushbu omillar muvozanatli va differensial o‘rganilmasa, sabablar chuqur anglanmaydi.

O‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini o‘rganish jarayonida tanlangan metodologik yondashuvlar tizimli, kompleks va shaxsga yo‘naltirilgan tamoyillarga asoslanadi. Tadqiqotning umumiy metodologik asoslarini aniqlashda, avvalo, o‘quvchining individual psixologik xususiyatlari, emotsional holati, motivatsion ehtiyojlari va ijtimoiy moslashuv darajasini chuqur tahlil qilish muhim o‘rin tutdi. Bu esa o‘zlashtirmovchilikning yuzaki emas, balki ichki psixik ildizlariga kirib borishga imkon berdi.

Metodologik yondashuvlar ichida shaxsga yo‘naltirilgan, ya’ni har bir o‘quvchining psixologik holatini alohida o‘rganishga qaratilgan tamoyil yetakchi o‘rinda bo‘ldi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ichki munosabatini, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini, emotsional barqarorligini hamda o‘zlashtirishdagi subyektiv to‘siqlarini aniqlashda yordam berdi. O‘zlashtirmovchilik

sabablarini o‘rganishda shaxsiy faktorlarni hisobga olish o‘quvchining emotsional muammolarini tashxislashga zamin yaratdi.

Shuningdek, tadqiqot davomida o‘zlashtirmovchilikni keltirib chiqaruvchi omillar murakkab va ko‘p qatlamli ekanligi e’tiborga olinib, kompleks yondashuv tatbiq etildi. Bu yondashuv orqali nafaqat motivatsiya, balki bilish jarayonlari, o‘zini anglash darajasi, ijtimoiy aloqalardagi qiyinchiliklar, psixologik to‘siqlar kabi bir qancha omillar o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Bunday qarash bizga o‘zlashtirmovchilik sabablarini faqat bitta mezon asosida emas, balki o‘zaro ta’sir etuvchi omillar majmuasi sifatida tahlil qilishga imkon berdi.

Tadqiqot metodologiyasida muammo-mazmunli yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etdi. Bu yondashuv asosida o‘quv faoliyatida uchraydigan psixologik to‘siqlar, o‘quvchining emotsional reaksiya shakllari, stressga chidamlilik darajasi hamda individual moslashuv imkoniyatlari o‘rganildi. Bu orqali o‘quvchining o‘zlashtirishdagi muvaffaqiyatsizlikka qanday psixologik javob qaytarayotgani aniqlab olindi. Metodologik asoslar qatorida psixodiagnostik vositalar muhim rol o‘ynadi. Turli psixologik metodikalar orqali o‘quvchilarning motivatsion fonlari, stressga moyilligi, diqqat-xotira holati, o‘z-o‘zini baholash darajasi va kitobxonlikka nisbatan emotsional munosabatlari aniqlandi. Bu esa o‘zlashtirmovchilikni aniqlashda chuqur, empirik asoslangan ma’lumotlar olishga imkon berdi.

O‘zlashtirmovchilikni chuqur tadqiq etish zaruriyati haqida so‘z borganda, birinchi navbatda, L.S.Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga tayaniladi. Uning fikricha, o‘quvchi bilimni egallay olmayotgan bo‘lsa, bu uning individual rivojlanishidagi psixologik tayyorgarlik darajasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu yondashuv metodologik jihatdan o‘zlashtirmovchilikni bolaning ichki salohiyatini va tashqi ta’sirni uyg‘unlashtirib o‘rganishni taqozo etadi. B.F.Lomov esa o‘zining tizimli-aktivlik yondashuvi orqali shuni ko‘rsatadiki, o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatsizliklar individual psixik jarayonlar (xotira, fikrlash, diqqat) bilan bir qatorda, shaxsiy motivatsiya, axloqiy pozitsiya va tashqi muhit bilan o‘zaro munosabatlar natijasida shakllanadi. Shu bois, o‘zlashtirmovchilikni faqat akademik yetishmovchilik deb emas, balki murakkab psixik, shaxsiy va ijtimoiy omillar

yig‘indisi sifatida o‘rganish lozim. S.L.Rubinshteyn shaxs faoliyatining birligi tamoyiliga asoslanib, o‘quvchidagi o‘zlashtirmaslik holatlari uning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati va bu munosabatning ijobiy yoki salbiy ko‘rinishlarini tahlil qilish orqali aniqlanishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv, shuningdek, psixologik tashxisda o‘quvchining ichki motivatsion zaminini aniqlash zarurligini ko‘rsatadi.

A.V.Petrovskiy ijtimoiy psixologik yondashuvi orqali o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan emotsional munosabati, tengdoshlar bilan munosabatlar sifati, ijtimoiy maqomi va o‘zini sinf jamoasida qanday his qilishi o‘zlashtirish darajasiga kuchli ta’sir ko‘rsatishini asoslab bergan. U o‘quvchilarda ijtimoiy ong shakllanishiga, ijtimoiy rollarning qabul qilinishiga alohida urg‘u beradi. A.A.Bodalev esa shaxsni o‘rganishda emotsional-fikr yuritish faoliyatining individual xususiyatlariga e’tibor qaratadi. Uning nuqtai nazariga ko‘ra, ba’zi o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik — bu ularda o‘qish jarayonida yuzaga kelayotgan salbiy emotsional fon va ichki zo‘riqish holatining natijasidir. Bu esa shaxsning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir etadi va undan chiqish uchun psixokorreksion yondashuv zarur bo‘ladi. V.V.Davidovning rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasi asosida o‘quvchilar bilimlarni tayyor shaklda emas, balki mustaqil izlanish va refleksiv yondashuv orqali o‘zlashtirgandagina chuqur va samarali o‘zlashtirish yuz beradi. Bu yondashuvda o‘zlashtirmovchilik muammosi ko‘proq passiv, reproduktiv o‘quv faoliyati natijasi sifatida ko‘riladi.

Yurtimiz olimlaridan E.G‘.G‘oziyev o‘z tadqiqotlarida o‘quvchilarda bilish jarayonlarining (fikrlash, idrok, tafakkur) yetarli rivojlanmagani o‘zlashtirmovchilikning asosiy sabablaridan biri ekanligini aniqlagan. U diagnostikada kognitiv omillarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratadi. G‘.B.Shoumarov esa o‘zlashtirmovchilik sabablarini aniqlashda empirik asoslangan kompleks yondashuvdan foydalanish zarurligini, bunda motivatsiya, emotsional fon, ijtimoiy munosabatlar va refleksivlik darajasi bir butun holda ko‘rib chiqilishi kerakligini ilgari suradi. Z.T.Nishanova esa o‘z tadqiqotlarida ijtimoiy moslashuv, shaxslararo munosabatlar va psixologik muhit o‘quvchilarning darsdagi faolligi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir qiluvchi omillar ekanligini ta’kidlab o‘tgan. Bu metodologik yondashuv psixokorreksion choralarni samarali rejalashtirish uchun

muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik sabablarini aniqlash — bu nafaqat tashxis, balki ta’limiy muhitni va shaxsning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ichki munosabatlarini qayta tashkil etishga yo‘naltirilgan murakkab va ko‘p bosqichli metodologik faoliyatdir.

Shuningdek, tadqiqot usullari sifatida “O‘qishga emotsional munosabat” (N.N.Svetlovskaya), O‘z-o‘zini anglash testi (A.Maslou), O‘quv motivasiyasini diagnostika qilish metodikasi (A.A.Rean va V.A.Yakunin; N.S.Badmaeva modifikasiyasi), “Akademik motivatsiya shkalasi” metodikasi, Kondashning “Ijtimoiy vaziyatga bog‘liq bezovtalik darajalarini aniqlash uslubi”, Y.A.Sherkovin – “Shaxsiy o‘qishga qiziqish strukturasini aniqlash” metodikasi hamda “O‘quv faoliyatida muvaffaqiyatsizlik sabablarini aniqlash metodikasi” (A.K.Markova, N.F.Talyzina, T.V.Kudryashova) dan foydalanildi.

1-metodika. “O‘qishga emotsional munosabat” (N.N.Svetlovskaya )

N.N.Svetlovskaya tomonidan ishlab chiqilgan “O‘qishga emotsional munosabat” metodikasi, o‘quvchilarning o‘qish jarayoniga nisbatan emotsional holatlarini aniqlashga, ularning mutolaaga bo‘lgan hissiy yondashuv darajasini o‘lchashga xizmat qiluvchi muhim psixodiagnostik vosita hisoblanadi. Ushbu metodika mutolaaviy faoliyatga nisbatan o‘quvchining ichki psixologik munosabati qanday shakllangani, o‘qish jarayonida qanday emotsiyalarni boshdan kechirishi, o‘qishga doir ehtiyoj va salbiy hissiyotlarning o‘zaro nisbatini ochib berishga yo‘naltirilgan. Metodikaning asosiy mazmuni shundan iboratki, unda o‘qishning nafaqat bilish faoliyati sifatidagi jihati, balki emotsional-psixologik tajriba shaklida namoyon bo‘ladigan holatlari ham tahlil qilinadi. Bu esa o‘quvchining mutolaa jarayoniga doir shaxsiy qiziqishlaridan tortib, o‘qishga nisbatan stress, zo‘riqish yoki ichki ehtiyoj kabi omillarni aniqlash imkonini beradi.

Mazkur metodika to‘rt asosiy psixologik omilga tayangan holda tuzilgan bo‘lib, ular o‘quvchining o‘qishdan zavqlanish holati, o‘qish bilan bog‘liq salbiy his-tuyg‘ular, o‘qishga ehtiyoj darajasi hamda kitob tanlashdagi hissiy impulslilikni o‘z ichiga oladi. Ushbu omillar yordamida o‘qish faoliyatining emotsional komponentlari

puxta tahlil qilinib, har bir o‘quvchining mutolaaga bo‘lgan shaxsiy munosabati, uni rag‘batlantiruvchi yoki to‘xtatuvchi psixologik faktorlar aniq ko‘rsatib beriladi. Metodika test shaklida bo‘lib, har bir savolga o‘quvchi shaxsiy holatiga mos darajadagi javob variantlarini tanlaydi, bu esa keyinchalik ballar tizimi orqali emotsional profilni aniqlash imkonini beradi.

Bu metodika o‘quvchilarning emotsional-intellektual rivojlanish darajasini baholashda, shuningdek, kitobxonlik faoliyatini chuqur o‘rganish, mutolaaviy madaniyatni rivojlantirish, motivatsion pasayish yoki stress holatlarini aniqlash va korreksion ishlarni tashkil etishda psixologlar, pedagoglar hamda ilmiy tadqiqotchilar uchun muhim tashxisiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv kitobxonlikka qiziqishni shakllantirishda faqat tashqi xatti-harakat emas, balki ichki holat, hissiy ehtiyoj va shaxsiy kayfiyat kabi omillarning chuqur tahlil qilinishini ta’minlaydi. Shu bois, metodika amaliyotda o‘quvchilarning o‘qishga nisbatan emotsional munosabatini o‘rganish va uni rivojlantirish yo‘llarini belgilashda samarali psixologik vosita sifatida qo‘llaniladi.

“O‘qishdan zavqlanish holati” o‘quvchining o‘qish faoliyati davomida hosil qilgan ijobiy emotsiyalari, estetik hislari va ichki qoniqish holatini ifodalaydi. O‘quvchi asarni o‘qib chiqayotgan paytda unga berilgan e’tibor, hissiy rezonans va mazmuniy boylik, o‘qish jarayonidan huzur olishni ta’minlaydi. Bu holat o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi, balki o‘quvchining avvalgi mutolaa tajribasi, qiziqish obyekti va ichki ehtiyojlari bilan uyg‘un holda shakllanadi. O‘qishdan zavq olish o‘quvchining asarga nisbatan shaxsiy ishtirokini oshiradi, qahramonlar taqdiriga befarq bo‘lmaslik, ularning ruhiy his qilishga intilish orqali chuqur hissiy tajriba beradi. Kitob o‘qish jarayonida yuzaga kelgan ruhiy yengillik, hayrat, quvonch va xayoliy safar holatlari, o‘quvchining fikrlash jarayonini faol holatga keltiradi. Aynan ushbu holat – zavq, o‘qishga ichki intilishning barqarorligini ta’minlaydi, mutolaani rasmiy faoliyatdan ichki zaruratga aylantiradi. O‘qish davomida yuzaga keladigan emotsional rag‘bat, shaxsda bilim olish jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. O‘quvchi o‘qishdan zavq olishni his qilgan sari, mutolaa jarayoni undan kuch emas, aksincha, energiya manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu emotsional fonda shakllangan

kitobxonlik ko‘nikmalari, faqatgina bilim olish emas, balki hissiy barqarorlik va shaxsiy o‘sishga ham xizmat qiladi. Natijada o‘quvchi o‘qishdan qochmaydi, balki u orqali o‘zini anglash, o‘zini ifoda etish va o‘z shaxsiyatini boyitishga harakat qiladi.

“O‘qish bilan bog‘liq stress yoki salbiy hislar” o‘quvchining mutolaa jarayonida yuzaga keladigan ichki zo‘riqish, xavotir, e’tiborsizlik, tushunmovchilik va charchoq holatlarini anglatadi. Bu holatlar ko‘pincha o‘qilayotgan matnning murakkabligi, mavzuning qiziqarsizligi yoki shaxsiy ehtiyojga mos kelmasligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Salbiy hissiyotlar kuchaygan sayin o‘quvchi mutolaadan uzoqlasha boradi, kitobni faqat majburiyat sifatida qabul qiladi va o‘qish jarayoni unga ruhiy og‘irlik tug‘diradi. Bunday psixologik fon o‘quvchining o‘qish sur’atini sekinlashtiradi, diqqatni tarqoq holatga keltiradi va mazmunni tushunishni qiyinlashtiradi. O‘quvchi salbiy hislar sababli matnga chuqur kira olmaydi, qahramonlar bilan ruhiy aloqa o‘rnata olmaydi 86ntell sababli mutolaa jarayoni zerikarli, ma’nosiz va samarasiz bo‘lib tuyuladi. Bunday holatda o‘qish faoliyati shaxsiy zavq manbai emas, balki psixologik to‘siqqa aylanadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchining o‘z-o‘ziga ishonch darajasini pasaytiradi, uni o‘qishga qodir emasman degan noto‘g‘ri ishonchga olib keladi. Salbiy hissiyotlar o‘z vaqtida aniqlanmasa, ularni yengish strategiyalari shakllantirilmasa, o‘quvchining butun o‘quv faoliyati izdan chiqishi mumkin. Shu bois mutolaada paydo bo‘ladigan stress holatlarini psixologik yondashuvlar orqali tahlil qilish, unga individual yordam ko‘rsatish kitobxonlikka qiziqishni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qishdagi salbiy emotsiyalarni bartaraf qilish – o‘quvchining o‘z imkoniyatlarini qayta anglashiga, ichki ijobiy motivatsiyani shakllantirishiga va o‘qish faoliyatini foydali mashg‘ulot sifatida qabul qilishiga yo‘l ochadi.

“O‘qishga ehtiyoj” o‘quvchining ichki intilishi, bilimga chanqoqligi va shaxsiy rivojlanish istagi asosida o‘qish faoliyatini ongli ravishda tanlashi holatidir. Bunday ehtiyojning mavjudligi o‘quvchini o‘qishga shunchaki zarurat deb emas, balki maqsadli, ixtiyoriy va foydali faoliyat deb qarashga undaydi. O‘qishga ehtiyoj shakllanganda, o‘quvchi mustaqil ravishda mavzuga oid asarlarni izlaydi, o‘zining bilim doirasini kengaytirish uchun kitob tanlaydi va mutolaani odatga aylantiradi. Bu ehtiyoj ichki ruhiy ehtiyojga tayangan holda yuzaga keladi va doimiy turtki sifatida

xizmat qiladi. O‘quvchi shaxsiy savollariga javob 87ntelle, hayotiy holatlarni tahlil qilish yoki o‘z dunyoqarashini shakllantirish maqsadida kitobga murojaat qiladi. Bu holatni yuzaga keltirish uchun o‘quvchiga shunchaki kitob berish emas, balki o‘sha kitobning uning ichki savollariga javob bera olish ehtimolini his ettirish kerak bo‘ladi. O‘qishga ehtiyoj kuchli bo‘lgan o‘quvchi, har qanday manbadan foyda chiqarishga harakat qiladi, mutolaadan quvvat oladi va kitob orqali o‘zini anglashga intiladi. Bunday ehtiyoj mutolaa madaniyatini shakllantiradi, o‘qishga barqarorlik, ixtiyorlilik va shaxsiy ahamiyat bag‘ishlaydi. Ichki ehtiyojga asoslangan o‘qish jarayoni, shaxsning bilim olishdan tashqari ma’naviy qoniqish olishiga, dunyoqarashini mustahkamlashga va psixologik o‘sishga sabab bo‘ladi. Shunday qilib, o‘qishga ehtiyojning mavjudligi o‘quvchini mustaqil, 87 intellectual va o‘ziga mas’ul kitobxon shaxsga aylantirishning asosiy psixologik omilidir.

“Kitobni tanlashda hissiy impulslilik” – bu o‘quvchining asarni tanlashda rasionallikka emas, balki ayni damdagi emotsional holatga, tasodifiy turtkiga yoki ko‘zga ko‘ringan ta’sirchanlikka asoslanib qaror qabul qilishi holatidir. Bunday tanlov ko‘pincha muqovaning jozibadorligi, nomning qiziqarliligi yoki reklamaning ta’sirida yuzaga keladi va natijada asar o‘quvchining ichki ehtiyojiga to‘g‘ri kelmay qoladi. Hissiy impulslilik asosida tanlangan kitob, ko‘pincha yuzaki o‘qiladi, yarim yo‘lda to‘xtatiladi yoki umuman tugatilmaydi. Bunday holatda mutolaa faoliyati tizimlilik va davomiylikdan yiroq bo‘ladi, o‘quvchida barqaror qiziqish shakllanmaydi. Hissiy asoslangan tanlovlar tez-tez o‘zgargan sari o‘qish odat emas, vaqtinchalik mashg‘ulot sifatida qabul qilinadi. Shu sababli bu impulslilikni ongli, reflektiv yondashuv bilan muvozanatlash muhim psixologik vazifadir. Kitob tanlashda shaxsiy ehtiyoj, ntellektual holat va ruhiy tayyorgarlik hisobga olinsa, o‘qish natijasi ancha samarali bo‘ladi. Trening mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilarga rasionallikka asoslangan tanlov strategiyalari, asar haqida oldindan axborot olish, tavsiyalar asosida qaror qabul qilish texnikalari o‘rgatiladi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchi o‘z hissiyotlarini anglaydi, ularni tahlil qiladi va tanlovni shaxsiy maqsadlarga moslashtirishni o‘rganadi. Natijada kitobni tanlashdagi hissiy impulslilik o‘rnini ongli ehtiyoj, izlanish va mas’uliyat egallaydi.

2-metodika. O‘z-o‘zini anglash testi (A.Maslou)

Amerikalik psixolog A.Maslou, o‘zining ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi muallifi sifatida, rivojlanish jarayonida inson bir necha bosqichlarni bosib o‘tadi: o‘zini ifodalash — o‘zini tasdiqlash — o‘zini amalga oshirish — o‘z-o‘zini rivojlantirish — o‘z-o‘zini aktualizatsiya qilish. Maslouning tasnifida «o‘z-o‘zini aktualizatsiya qilish» bu insonning o‘z potensialini ro‘yobga chiqarish, o‘z qobiliyatlarini imkon qadar to‘liq ochish va rivojlantirish istagi sifatida ta’riflanadi. Psixologning so‘zlariga ko‘ra, «inson bo‘lishi kerak bo‘lgan narsaga aylanishi kerak». O‘z-o‘zini aktualizatsiya qilishga sinonim sifatida ko‘pincha «psixologik sog‘liq», «shaxsiy o‘sish/rivojlanish» tushunchalari ishlatiladi.

So‘nggi omil bo‘lgan “agressiyani qabul qilish” bo‘yicha, 9-sinf o‘quvchilarida yuqori natijalar qayd etildi ($t=-2,3$; $p \leq 0,05$). Bu ko‘rsatkich o‘quvchilarning tajovuzkorlikni anglash, uni ichki tarzda qabul qilish va ijtimoiy me’yorlar bilan muvofiqlashtirish darajasini bildiradi. Agressiyani qabul qilish, uni ijtimoiy jihatdan xavfsiz yo‘nalishga burish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, o‘smirlik davridagi emotsional ziddiyatlarning konstruktiv tarzda bartaraf etilishiga xizmat qiladi. Bu omilning yuqoriligi o‘quvchilarda o‘z emotsiyalarini nazorat qilish, o‘zini tutish va ijtimoiy mas’uliyatni anglash darajasining ortganligini bildiradi. Bu yoshda psixologik to‘qnashuvlar tabiiy holat bo‘lsa-da, ularni qanday qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Agressiyani adekvat tarzda qabul qilgan o‘quvchi uni ichki muvozanatni yo‘qotmasdan nazorat ostida ushlay oladi. Bunday o‘quvchilar konflikt vaziyatlarida vazminlikni saqlab, jamoa ichida ijobiy ijtimoiy o‘rin egallashadi. Bu holat dars jarayonida ham o‘z ifodasini topadi: ular jizzakilik yoki impulsivlikdan ko‘ra, tahliliy yondashuvni afzal ko‘rishadi. Shu sababli, agressiyani qabul qilish omili yuqori bo‘lgan o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik darajasi nisbatan past bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich psixologik mustahkamlik, murosaga moyillik va ichki barqarorlik mezoni sifatida ta’limiy jarayonlarda alohida o‘rin tutadi. Ular o‘z salbiy his-tuyg‘ularini konstruktiv faoliyatga yo‘naltira olishadi, bu esa o‘quv samaradorligini oshiradi.

Navbatdagi Y.A.Sherkovinning “Shaxsiy o‘qishga qiziqish strukturasini aniqlash” metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga to‘xtalamiz.

2.4-jadval.

Y.A.Sherkovinning “Shaxsiy o‘qishga qiziqish strukturasini aniqlash” metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=380)

| Shkalalar nomi | O‘rtacha(M) | | Farqlar |
|---|---|---|---|
| | 7-sinf | 9-sinf | t |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | n=210 | n=170 | |
| Kognitiv motivlar | 21,5 | 19,6 | -2,2* |
| Ijtimoiy motivlar | 18,4 | 21,7 | -2,6* |
| Kommunikativ motivlar | 18,7 | 20,2 | -2,4* |
| Emotsional motivlar | 20,4 | 17,6 | -2,7* |
| Instrumental motivlar | 18,5 | 19,4 | -1,4 |

Y.A.Sherkovinning “Shaxsiy o‘qishga qiziqish strukturasini aniqlash” metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga ko‘ra, «kognitiv motivlar» (t=-2,2; p<0,05), «kommunikativ motivlar» (t=-2,6; p<0,05), «emotsional motivlar» (t=-2,4; p<0,05) hamda «instrumental motivlar» (t=-2,7; p<0,05) omillari bo‘yicha ahamiyatli tafovutlar kuzatildi.

Metodikaning dastlabki «kognitiv motivlar» omili bo‘yicha, 7-sinf o‘quvchilarida yuqori natija qayd etildi (t=-2,2; p<0,05). Mazkur natijalar bu yosh guruhida bilim olishga tabiiy ehtiyoj va qiziqish nisbatan faolligini ifodalaydi. O‘quvchilarning bu bosqichda yangi ma’lumotlarni qabul qilishga nisbatan ochiqligi va bilim olishdan zavq olish darajasi, kognitiv motivatsiyaning tabiiy ravishda shakllanayotganini ko‘rsatadi. Kognitiv motivlar, odatda, o‘quv materialining mazmuniy qiymatini anglash va uni ongli ravishda o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan ichki turtki sifatida yuzaga chiqadi. 7-sinf o‘quvchilari bilimlarni idrok qilish jarayonida emotsional salmoqdan ko‘ra intellektual qoniqishga asoslangan yondashuvni afzal ko‘radilar. Bu bosqichda ilmga bo‘lgan ochiqlik va bilishga nisbatan ishtiyoq sezilarli darajada faollik kasb etadi. Shuningdek, darslarda yangi bilimlarni o‘zlashtirish ularda ijobiy emotsiyalar uyg‘otadi, bu esa mustahkam psixologik asos yaratadi. O‘quvchilarning fikrlash, kuzatish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga bo‘lgan intilishlari yuqori darajadagi kognitiv motivatsiyaning belgilaridir. Ushbu ko‘rsatkich o‘quv jarayoniga nisbatan subyektiv yondashuv darajasini ham ifodalaydi, chunki o‘quvchi o‘zini bilishga qodir va munosib deb biladi. Bu esa bilim olish faoliyatining

barqarorligini ta’minlovchi omil sifatida xizmat qiladi. O‘quvchilarning savol berishga, o‘rganayotgan mavzular ustida mustaqil izlanishga tayyorligi ularning kognitiv faoliyatini kuchaytiradi. Bunday motivatsion fon psixopedagogik yondashuvlarni samarali amalga oshirish uchun qulay zamin yaratadi. Shu sababli, aynan kognitiv motivlar asosidagi o‘quv faoliyati, o‘zlashtirmovchilik darajasini pasaytirishga xizmat qiladigan ichki mexanizmlarni faollashtiradi. Bu ko‘rsatkich asosida shakllantirilgan dars dizayni, o‘quvchining aqliy faoliyatini yanada faollashtirishga yordam beradi.

«Ijtimoiy motivlar» omili bo‘yicha, 9-sinf o‘quvchilarida ijobiy natijalar kuzatildi ($t=-2,6$; $p<0,05$). Ijtimoiy motivatsiya – bu shaxsning ijtimoiy baholovchilarning fikriga tayanib, o‘z faoliyatini yo‘naltirishidir. 9-sinf o‘quvchilarida ushbu motivning kuchayishi ularning ijtimoiy identifikatsiyaga intilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon shaxsiy o‘sish va rol o‘zlashtirish orqali kechadi. Ular sinfdoshlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va boshqa ijtimoiy guruhlar oldidagi o‘z qadr-qimmatlarini saqlashga va isbotlashga harakat qiladilar. Bu esa o‘quv faoliyatida ijtimoiy motivlarni asosiy turtki sifatida shakllantiradi. Ijtimoiy tan olinishga intilish, baholash va rag‘batlantirish vositalariga bo‘lgan sezuvchanlikni oshiradi. Bunday o‘quvchilar o‘z faoliyatlarini boshqalar tomonidan qanday baholanishini doimo e’tiborda ushlab turadilar. Bu esa o‘z navbatida, ularning o‘zini boshqarish qobiliyatini shakllantiradi va darsga mas’uliyatli munosabatni kuchaytiradi. Ijtimoiy motivatsiyaning kuchli bo‘lishi, o‘quvchilarda intizomli, ijtimoiy faol, jamoaga yo‘naltirilgan xulq shakllanishiga olib keladi. Bu omil, shuningdek, guruhdagi rollarni anglash, o‘z vazifasini ado etish va ijtimoiy hamkorlik darajasining ortishida ham namoyon bo‘ladi. 9-sinf o‘quvchilari ta’limiy faoliyat orqali o‘zlarini jamiyatda qadrli his qilishga intiladi. Ularning ijtimoiy pozitsiyasi, ta’limdagi faolligini aniqlovchi kuchli omilga aylanadi. Shu boisdan ijtimoiy motivlar yuqori bo‘lgan o‘quvchilarda darsga mas’uliyatli yondashuv, boshqalarga moslashuvchanlik va ijtimoiy qadriyatlarni ongli qabul qilish ko‘proq kuzatiladi. Bu esa ularning o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi.

«Kommunikativ motivlar» omili bo‘yicha, 9-sinf o‘quvchilarida yuqori natija kuzatildi ($t=-2,4$; $p<0,05$). Bu esa ularning o‘quv jarayonida muloqotga tayyorlik va

ehtiyoj darajasi kuchli ekanligidan darak beradi. Bu yosh davrida o‘quvchilarda tengdoshlari bilan aloqalar, fikr almashish, guruhda ishlashga bo‘lgan ichki ehtiyoj keskin ortadi. Kommunikatsion ehtiyojning kuchayishi darslarda faollik, savol-javoblar, guruhiy topshiriqlarda ishtirok, mulohaza yuritish ko‘rinishida aks etadi. Ular o‘z fikrlarini erkin bayon qilish, o‘zgalar fikriga nisbatan bag‘rikeng bo‘lish, ijtimoiy muhitga ijobiy moslashish orqali o‘qishni davom ettiradilar. Bunday o‘quvchilar uchun muloqot – bu nafaqat ijtimoiy jarayon, balki bilim olishning muhim instrumentidir. Kommunikativ motivlar yuqori bo‘lgan o‘quvchilarda taqdimot qilish, sinf oldida chiqish qilish va fikrini asoslash qobiliyatlari kuchli bo‘ladi. Ularning dars jarayonidagi ishtiroki, shunchaki bilim olish bilan cheklanmay, ijtimoiy interaktivlikni kuchaytirishga qaratilgan bo‘ladi. Bunday o‘quvchilar axborotni og‘zaki va yozma shaklda erkin ifodalashga qodir bo‘lishadi, bu esa ularning o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi. Kommunikativ jihatdan faol o‘quvchilar sinf muhitida liderlik, tashabbuskorlik va ijtimoiy vositachilik rollarini egallashga intiladi. Bu esa ta’limiy muhitda hamkorlik va jamoaviy ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ular muloqot orqali murakkab mavzularni o‘zlashtirishda ko‘proq muvaffaqiyatga erishadi. Bu motivatsion tip ayniqsa kommunikativ kompetensiyalarning shakllanishida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Metodikaning so‘nggi «emotsional motivlar» omili bo‘yicha, 7-sinf o‘quvchilarida yuqori natija aniqlandi ($t=-2,7$; $p<0,05$). Shuningdek, 7-sinf o‘quvchilarida ko‘proq emotsional muvozanat, ijobiy munosabat, o‘qituvchi bilan iliq psixologik aloqa orqali bilim olishga intilishi yuqori darajada erkanligi aniqlandi. Ular o‘quv faoliyatini ko‘pincha ijobiy his-tuyg‘ular bilan bog‘laydilar: qiziqish, hayrat, zavq, o‘yin elementi yoki o‘rgatuvchi shaxsga emotsional yaqinlik bu motivni faollashtiradi. Emotsional jihatdan rag‘batlantirilgan o‘quvchilar bilimlarni faqat intellektual emas, balki hissiy darajada ham idrok etadilar. Ularning o‘qishga bo‘lgan munosabati ko‘proq ruhiy holat va kayfiyat bilan belgilanadi. O‘qituvchi tomonidan bildirilgan rag‘bat, ijobiy kayfiyat, mehrli ohang va samimiy munosabat bu motivatsiyani yanada kuchaytiradi. Bu yoshdagi o‘quvchilar materialni qanchalik emotsional his qilsa, uni shunchalik yaxshi o‘zlashtiradi. Darsda emotsional faollikni

qo‘llab-quvvatlash, ularni o‘quv faoliyatiga ko‘proq jalb etadi. O‘zlashtirmovchilik, ko‘pincha, emotsional sovuqlik va didaktik befarqlik fonida shakllanadi. Shu sababli emotsional motivatsiyaning yuqori bo‘lishi, bu xavfni bartaraf etish imkonini beradi. Bu motivlar bolaning o‘zini dars jarayonida qanday his qilishi, o‘zining subyektiv emotsional tajribasi orqali belgilanadi. Shuningdek, emotsional ijobiylik bola shaxsiyatining kognitiv resurslariga ham musbat ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, darsda emotsional resurslarni faol qo‘llash, ayniqsa boshlang‘ich va o‘rta bo‘g‘inlarda o‘quv muvaffaqiyatining barqarorligini ta’minlovchi omil sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, Y.A.Sherkovinning “Shaxsiy o‘qishga qiziqish strukturasini aniqlash” metodikasi bo‘yicha qizlar hamda yigitlardan olingan natijalar tahliliga diqqatimizni qaratamiz.

2.5-jadval.

Y.A.Sherkovinning “Shaxsiy o‘qishga qiziqish strukturasini aniqlash” metodikasi bo‘yicha qizlar hamda yigitlardan olingan natijalar tahlili (n=380)

| Shkalalar nomi | O‘rtacha(M) | | Farqlar |
|---|---|---|---|
| | Qizlar n=154 | Yigitlar n=226 | t |
| Kognitiv motivlar | 20,7 | 18,4 | -2,6* |
| Ijtimoiy motivlar | 19,8 | 17,2 | -2,3* |
| Kommunikativ motivlar | 18,6 | 17,3 | -1,7 |
| Emotsional motivlar | 20,6 | 18,6 | -2,8* |
| Instrumental motivlar | 19,2 | 21,8 | -2,5* |

Y.A.Sherkovinning “Shaxsiy o‘qishga qiziqish strukturasini aniqlash” metodikasi bo‘yicha qizlar hamda yigitlardan olingan natijalar tahliliga ko‘ra, «kognitiv motivlar» (t=-2,6; p<0,05), «kommunikativ motivlar» (t=-2,3; p<0,05), «emotsional motivlar» (t=-2,8; p<0,05) hamda «instrumental motivlar» (t=-2,5; p<0,05) omillari bo‘yicha ahamiyatli tafovutlar kuzatildi.

Metodikaning dastlabki «kognitiv motivlar» omili bo‘yicha, qizlarda yuqori natija qayd etildi (t=-2,6; p<0,05). Bunday ko‘rsatkich ularning o‘quv materiallariga ongli, izchil va izlanishga asoslangan yondashuvga ega ekanligini anglatadi. Qiz o‘quvchilar bilim olishni shaxsiy intellektual ehtiyoj sifatida qabul qilishga moyildirlar. Ular yangi bilimlarni faqat tashqi talab emas, balki ichki ruhiy ehtiyoj nuqtai nazaridan idrok etadilar. Mazkur motiv ularning mantiqiy fikrlash, savol berish va xulosa chiqarish jarayonida faol bo‘lishiga imkon yaratadi. Qizlar o‘zlashtirish jarayonida bilim olishdan zavqlanishni yuqori darajada namoyon etadilar. Ulardagi bilishga chanqoqlik o‘quv faoliyatining ichki barqarorligini ta’minlaydi. Bu holat ko‘pincha ularning kundalik tayyorgarlikda mustaqil harakat qilishi, darsdan tashqari adabiyotlarga murojaat etish odatlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Kognitiv motivlar yuqori bo‘lgan qizlar o‘z fikrini asoslashga, muammoli vaziyatni tahlil qilishga qiziqadi. Bunday o‘quvchilar o‘quv topshiriqlarini bajarishda nafaqat “to‘g‘ri javob”, balki “mazmunli yechim” izlashadi. Bilimga asoslangan yondashuv, ularning kognitiv strategiyalarni ongli tanlashiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, ularning fikrlash faoliyati shablondan chiqib ketgan, kreativ yo‘nalishga moyil bo‘ladi. Bu omil ularni dars jarayonining passiv emas, faol subyekti sifatida shakllantiradi. Kognitiv motivlarning kuchli rivojlanishi o‘zlashtirmovchilik xavfini keskin kamaytiruvchi psixologik asoslardan biri hisoblanadi. Shu bois, bunday o‘quvchilarga intellektual qiyinchiliklar qoniqarli turtki sifatida ta’sir qiladi.

«Ijtimoiy motivlar» omili bo‘yicha, qizlarda ijobiy natijalar kuzatildi (t=-2,3; p<0,05). Bu esa ularning shaxsiy muvaffaqiyatini ko‘proq ijtimoiy tasdiq orqali baholashga moyilligini anglatadi. Qizlar jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, atrofdagilarning fikriga ko‘ra o‘zini baholashga intilishadi. Ular ko‘proq pedagoglar, ota-onalar, sinfdoshlar va boshqa ijtimoiy subyektlarning munosabatiga sezgirlik bilan yondashadi. Bu sezuvchanlik ularni darsda mas’uliyatli, vazifalarga sadoqatli va faol qatnashuvchi shaxsga aylantiradi. Ijtimoiy motivatsiya – bu faqat baho yoki maqtov olish istagi emas, balki jamiyatda ijobiy maqomga ega bo‘lishga bo‘lgan ongli harakatdir. Qizlar o‘z o‘quv muvaffaqiyatlarini shaxsiy ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘laydilar. Ular guruh oldida xatolardan qo‘rqadi, shuning uchun ham darsga puxta

tayyorlanishga harakat qilishadi. Ijtimoiy bahoni ichki standart sifatida qabul qilish, o‘zini tahlil qilish va xulqini tartibga solishga turtki bo‘ladi. Bunday motivatsiya bilan harakat qiluvchi o‘quvchilar intizomli, ijtimoiy jihatdan moslashuvchan, tengdoshlari bilan yaxshi muloqotga ega bo‘ladi. Ular jamoadagi ijtimoiy rolining ijobiy bo‘lishiga intiladi. Shu sababli ularning darsdagi ishtiroki faqat bilim olishga emas, balki ijtimoiy pozitsiyani mustahkamlashga ham qaratilgan bo‘ladi. Bu turdagi motivatsiya, ayniqsa, kollektiv ichidagi raqobat va ijtimoiy dinamika sharoitida o‘zlashtirmovchilikni bartaraf etishda samarali vosita sifatida qaraladi. Natijalar, qizlarda ijtimoiy aloqalarning o‘quv jarayonidagi o‘rni yuqoriligini ko‘rsatadi. Ular ijtimoiy ahamiyatga ega rollarni bajarishda o‘zlarini ko‘rsatish uchun o‘qish faoliyatiga faol qo‘shilishadi.

«Emotsional motivlar» omili bo‘yicha, qizlarda yuqori natija kuzatildi ($t=-2,8$; $p<0,05$). Olingan natijalar qizlarda dars muhitida o‘zlarini qanday his qilishlariga alohida e’tibor qaratishadi. O‘qituvchining munosabati, sinfdagi atmosfera, muloqot tili va psixologik xavfsizlik darajasi ularning o‘quv motivatsiyasiga bevosita ta’sir etadi. Emotsional jihatdan qo‘llab-quvvatlangan o‘quvchilar bilimlarni yuqori ijobiy fon asosida o‘zlashtiradi. Qizlar ko‘proq darsni ruhiy yaqinlik, do‘stona aloqa va qiziqish asosida baholaydi. Ular uchun o‘quv faoliyatining hissiy qiymati mazmuniy ahamiyatdan kam emas. Bunday o‘quvchilar o‘qishga hissiy bog‘lanishni saqlab qolgan holda, doimiy qatnashuvni namoyon etadilar. Agar darslar emotsional jihatdan sovuq va rasmiy kechsa, qizlar ishtiyoqsizlanadi. Shu bois bu motivatsiya shaklining yuqoriligi, hissiy komponentlarga boy o‘qitish metodikasini talab qiladi. Emotsional barqarorlik, o‘quvchilarning o‘zini qadrlashi va ijtimoiy ishonchni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Qizlar o‘z-o‘zini anglashda emotsional turtkilardan keng foydalanadilar. O‘qituvchining ijobiy kayfiyati, mehrli muomalasi ularda mustahkam darsga jalb bo‘lishni yuzaga keltiradi. Bu esa ularning o‘zlashtirish jarayonini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Bunday sharoitda o‘quvchi o‘zini erkin, xavfsiz va ishonchli his qiladi. Bu esa doimiy o‘rganishga psixologik tayyorgarlikni ta’minlaydi.

Metodikaning so‘nggi «instrumental motivlar» omili bo‘yicha, yigitlarda yuqori natija aniqlandi ($t=-2,5$; $p<0,05$). Bunday natijalar yigitlar bilimni amaliyotga yo‘naltirishga, foydali maqsadlarga erishish vositasi sifatida ko‘rishga ko‘proq moyil

ekanini anglatadi. Ular o‘quv materiallarini kelajakdagi kasbiy faoliyat, moddiy barqarorlik yoki ijtimoiy maqomni egallash vositasi sifatida idrok etadilar. Instrumental motivlar ularni strategik rejalashtirishga, rejalangan harakatlar asosida bilim olishga yo‘naltiradi. Bunday yigitlar o‘qishga maqsadga yo‘naltirilgan yondashuv bilan qaraydi. Ular darsliklar, topshiriqlar yoki fanlar orasidan o‘z hayoti uchun “zarur” deb bilganlarini ajratib oladi. Bu esa ularning bilimga utilitar yondashuvini ko‘rsatadi. Ular ko‘pincha ta’limni maqsadga olib boruvchi vosita sifatida anglaydilar. Shuning uchun ham ularning motivatsiyasi vaqtincha ko‘tarilishi, keyin pasayishi mumkin – bu motiv tashqi omillarga bog‘liq bo‘ladi. Yigitlar bu turdagi motivatsiyadan kelib chiqib, darsga qatnashishdan ko‘ra, natija olishga ustuvorlik beradilar. Ular topshiriqni bajarishda tez, qisqa, lekin amaliy yechimlarga intilishadi. Instrumental motivlar yuqori bo‘lgan o‘quvchilar, agar maqsad aniq bo‘lsa, bilim olishga intiluvchan bo‘ladilar. Bunday yigitlarda aniq rejalilik, foyda-samaradorlikka asoslangan fikrlash tizimi shakllanadi. Bu esa ularni o‘zlashtirishda individual strategiyalar ishlab chiqishga undaydi. Shu bilan birga, ularning bilimni chuqur emas, amaliy maqsad bilan tanlash ehtimoli ham yuqoriroq bo‘ladi. Shu bois, bu motiv turiga asoslangan o‘quvchilarda kognitiv va emotsional yondashuvlarni uyg‘unlashtirish psixopedagogik muhim vazifa hisoblanadi.

Endi, «Ijtimoiy vaziyatga bog‘liq bezovtalik darajalarini aniqlash» metodikasi orqali olingan dastlabki natijalar tahliliga diqqatimizni qaratamiz.

2.6-jadval

«Ijtimoiy vaziyatga bog‘liq bezovtalik darajalarini aniqlash» metodikasi orqali olingan dastlabki natijalar tahlili (n=380)

| Shkalalar nomi | O‘rtacha(M) | | Farqlar | |
|---|---|---|---|---|
| | 7-sinf n=210 | 9-sinf n=170 | t | p |
| Maktabdagi o‘quv jarayoni | 9,8 | 7,6 | -2,6 | 0,05 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| O‘zini o‘zi baholash | 7,2 | 9,5 | -2,4 | 0,05 |
| Shaxslararo munosabat | 7,3 | 9,1 | -2,7 | 0,05 |

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01,***-p<0,001.

«Ijtimoiy vaziyatga bog‘liq bezovtalik darajalarini aniqlash» metodikasi bo‘yicha, olingan dastlabki natijalar tahliliga ko‘ra, “maktabdagi o‘quv jarayoni” (t=-2,6; p≤0,05), “o‘zini o‘zi baholash” (t=-2,4; p≤0,05) hamda “o‘zini o‘zi baholash” (t=-2,7; p≤0,05) omillarida ahamiyatli farqlar kuzatildi.

“Maktabdagi o‘quv jarayoni” omili bo‘yicha 7-sinf o‘quvchilarida yuqori natija qayd etildi (t=-2,6; p≤0,05). Tadqiqot doirasida «maktabdagi o‘quv jarayoni» omili bo‘yicha 7-sinf o‘quvchilarining yuqori natijalar ko‘rsatganligi, bu bosqichda o‘quvchilarda maktab muhiti, fanlar va o‘qituvchilarga nisbatan emotsional sezuvchanlik kuchli ekanini bildiradi. Bunday ko‘rsatkichlar bu yoshdagi bolalarning o‘quv yuklamasi, sinfga moslashuv, va baholash tizimlariga nisbatan ichki bezovtalikni his qilishlarini anglatadi. 7-sinf o‘quvchilari uchun o‘rta maktabga o‘tish jarayoni murakkab moslashuv bosqichidir. Bu davrda ularning akademik yuklamaga tayyorlik darajasi bilan real talablar o‘rtasida nomutanosiblik kuzatiladi. Aynan shu nomuvofiqliklar o‘quv jarayoniga nisbatan xavotir, ichki noaniqlik va o‘ziga ishonchsizlik hissini shakllantiradi. Ular har bir darsni sinov sifatida qabul qiladi, bu esa psixologik bosimni kuchaytiradi. Darslarda ustozlar tomonidan aytilgan har bir mulohaza ularda ichki tahlil, hatto ba’zan o‘ziga nisbatan tanqidga sabab bo‘ladi. Shu sababli 7-sinf o‘quvchilari dars jarayonida shunchaki bilim emas, balki emotsional himoya ham izlaydi. Bu holatda o‘quvchilarning o‘zlashtirish samarasi xavotir darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin. Agar bezovtalik kuchaysa, o‘quvchini bilim olish emas, xatolikdan qochish motivatsiyasi boshqaradi. Natijada, u o‘qishga passiv yondashadi, bu esa o‘zlashtirmovchilikka olib keladi.

“O‘zini o‘zi baholash” omili bo‘yicha, 9-sinf o‘quvchilarida yuqori natijalar aniqlandi (t=-2,4; p≤0,05). Shuningdek, “o‘zini o‘zi baholash” omili bo‘yicha 9-sinf o‘quvchilari yuqori natijalar ko‘rsatgan bo‘lib, bu ularning o‘z shaxsiy sifatlariga, imkoniyatlariga va xatti-harakatlariga nisbatan baholovchi munosabatining

kuchayganligini bildiradi. Bu yosh davri — shaxsiy identitetni izlash, ijtimoiy maqomni aniqlash va oʻzini oqlashga boʻlgan ehtiyojlar bilan toʻyingan bosqichdir. Oʻquvchilar oʻzlarini doimo boshqa tengdoshlari bilan taqqoslaydilar va oʻz baholariga tayanib, oʻz qadr-qimmatlarini shakllantiradilar. Agar bu baholash jarayoni salbiy kechsa, xavotir, tushkunlik va ijtimoiy chetlashish holatlari yuzaga keladi. 9-sinfda oʻz-oʻzini baholash koʻpincha maktabdagi yutuq-yutqazishlar, imtihon natijalari va pedagogik baholar orqali shakllanadi. Oʻquvchilarning oʻziga nisbatan tanqidiy yondashuvi, oʻz-oʻzini past baholashga olib kelishi mumkin. Shuningdek, haddan ortiq talabchanlik yoki mukammallikka intilish hissi ularni ruhiy bosim ostida qoldiradi. Bu esa oʻzlashtirishga salbiy ta’sir etadi, chunki shaxs oʻzini muvaffaqiyatsizlikdan himoyalash uchun oʻquv faoliyatidan chetlashishni boshlaydi. Shu bilan birga, yuqori darajadagi oʻzini baholash, haddan ortiq ishonchlilik, koʻpincha ijtimoiy realiyatdan ajralish, empatiya va tanqidga yopiq boʻlish holatlarini keltirib chiqaradi. 9-sinf oʻquvchilarining oʻz-oʻziga nisbatan fikrlari emotsional reaktivlik bilan kuchli bogʻliqdir. Shuning uchun oʻz-oʻzini baholash omilining barqarorligi shaxsning oʻzlashtirish salohiyati va stressga chidamliligini belgilovchi muhim indikator sifatida baholanadi. Agar bu omil sogʻlom tarzda rivojlanmagan boʻlsa, oʻquvchining ichki motivatsiyasi ham zaiflashadi. Shu sababli psixologik xizmat xodimlari oʻz-oʻzini baholash boʻyicha rivojlantiruvchi treninglar oʻtkazishi maqsadga muvofiq boʻladi.

Metodikaning soʻnggi “shaxslararo munosabat” omili boʻyicha, 9-sinf oʻquvchilarida yuqori natijalar kuzatildi ($t=-2,7$; $p\leq0,05$). Bu esa ularning ijtimoiy munosabatlarga, jamoada oʻzini tutishga va boshqalar fikriga boʻlgan sezuvchanlik darajasining kuchayganligini koʻrsatadi. Oʻsmirlik davri — bu doʻstlik, jamoa, tengdoshlar guruhi ichidagi mavqega yuqori darajada qiziqish paytidir. 9-sinf oʻquvchilari orasida shaxslararo bahslar, munosabat inqirozlari, aloqa va tushunmovchiliklar koʻp uchraydi. Ularning oʻzaro muomala darajasi koʻp hollarda oʻziga boʻlgan ishonch, empatiya, agressivlik yoki tortinchoqlik bilan belgilanadi. Shaxslararo bezovtalik darajasi yuqori boʻlgan oʻquvchi oʻzini jamoa oldida noqulay his qiladi, muloqotdan qochadi yoki konfliktlarga kirib boradi. 9-sinf oʻquvchilari ijtimoiy rollarni izlash bilan birga, oʻz shaxsiyatini tasdiqlashga harakat qiladi. Buning

natijasida ular har bir ijtimoiy munosabatni o‘z “men”-konsepsiyasiga tahdid yoki quvvat sifatida qabul qilishadi. Bunday vaziyatlar psixologik stressni kuchaytiradi va darsdagi faoliyat samaradorligini pasaytiradi. Shu bois ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish, muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlash va ijtimoiy rollarni ongli tanlash kabi psixologik vositalar zarur bo‘ladi. Shaxslararo munosabatlar to‘g‘ri rivojlanmasa, bu izolyatsiya, ijtimoiy yakkalanish yoki destruktiv xatti-harakatlar bilan tugashi mumkin. Bunday holatda o‘quvchini faqat akademik bilimlar emas, balki ijtimoiy-psixologik himoya tizimi ham qo‘llab-quvvatlashi zarur. Ijtimoiy muhitda o‘zini qulay his qilgan o‘quvchi, o‘quv materialini ham ijobiy idrok etadi. Shunday qilib, shaxslararo munosabatlarga oid bezovtalik darajasi, o‘quvchining o‘zlashtirish holatiga kuchli psixologik ta’sir ko‘rsatadigan mezon sifatida e’tirof etiladi.

Navbatdagi «Akademik motivatsiya shkalasi» metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga to‘xtalamiz.

2.7-jadval.

«Akademik motivatsiya shkalasi» metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=420)

| Shkalalar nomi | O‘rtacha(M) | | Farqlar |
|---|---|---|---|
| | 7-sinf n=210 | 9-sinf n=170 | t |
| Kognitiv motivatsiya | 13,7 | 11,8 | -2,7* |
| O‘z-o‘zini shakllantirish | 11,5 | 13,6 | -2,4* |
| O‘z-o‘zini hurmat qilish motivatsiyasi | 13,9 | 11,2 | -2,6* |
| Introyeksiyalash (ichki) motivatsiya | 12,7 | 11,9 | -1,5 |
| Eksternal (tashqi) motivatsiya | 13,9 | 11,4 | -2,8* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Amotivatsiya | 10,3 | 12,6 | -2,1* |

«Talabalarning o‘quv motivasiyasini diagnostika qilish» metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga ko‘ra, «kognitiv motivatsiya» ($t=-2,7$; $p<0,05$), «o‘z-o‘zini shakllantirish» ($t=-2,4$; $p<0,05$), «o‘z-o‘zini hurmat qilish motivatsiyasi» ($t=-2,6$; $p<0,05$), «eksternal (tashqi) motivatsiya» ($t=-2,8$; $p<0,05$) hamda «amotivatsiya» ($t=-2,1$; $p<0,05$) omillari bo‘yicha ahamiyatli tafovutlar qayd etildi.

Metodikaning dastlabki «kognitiv motivatsiya» omili bo‘yicha, 7-sinf o‘quvchilarida ijobiy natijalar kuzatildi ($t=-2,7$; $p<0,05$). Bu shuni anglatadiki, 7-sinf o‘quvchilari bilim olishga nisbatan yuqori darajadagi tabiiy qiziqish va bilishga intilish ehtiyoji bilan ajralib turadilar. Ular uchun o‘quv jarayoni ko‘proq emotsional ijobiy holatga bog‘liq bo‘lib, bu bilish jarayonidan zavqlanishni ta’minlaydi. 7-sinf bosqichida yangi mavzular, atamalar, dars uslublari o‘quvchida hayrat va motivatsiyani uyg‘otadi. Bu yoshdagi kognitiv motivatsiya asosan ichki rag‘batdan, ya’ni bilim olishni o‘z-o‘zidan qadrli deb bilishdan kelib chiqadi. O‘quvchilar murakkab savollarga javob topishga, muammoli vaziyatlarni hal etishga ko‘proq qiziqish bildiradilar. Ularning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi baho yoki mukofot uchun emas, balki bilishni istash ehtiyojiga asoslangan bo‘ladi. Kognitiv faollik o‘z navbatida, ularning fikrlash doirasi kengayishiga olib keladi. Bu esa, o‘zlashtirishda mustahkam asos va faol ishtirokni ta’minlaydi. Mazkur motivatsiya shakli orqali bilim chuqurroq anglanadi va xotirada uzoqroq saqlanadi. Bunday o‘quvchilar nafaqat savollarga javob beradi, balki savollarni yaratishga ham intiladi. Kognitiv ehtiyoj – bu ichki intellektual harakatga asos bo‘ladigan psixik barqarorlik manbaidir. O‘quv muhitida qanchalik ko‘p erkinlik va yangilik bo‘lsa, bu ehtiyoj shunchalik tez faollashadi. O‘qituvchi bu holatdan foydalanib, o‘quvchini chuqur o‘rganishga, mustaqil fikrga yo‘naltirishi mumkin. Demakki, bu motivatsion ustunlik o‘zlashtirmovchilik ehtimolini kamaytiruvchi muhim omil sifatida ko‘riladi.

Metodikaning navbatdagi «o‘z-o‘zini shakllantirish» omili bo‘yicha, 9-sinf o‘quvchilarida yuqori natijalar qayd etildi ($t=-2,4$; $p<0,05$). Bu shundan dalolat beradi, 9-sinf o‘quvchilari o‘zlarini shaxs sifatida anglash va ongli ravishda rivojlantirishga

nisbatan yuqori ehtiyojga ega bo‘lmoqdalar. Ular o‘zining kimligi, ijtimoiy roli va ichki imkoniyatlarini aniqlashga intiladilar. O‘z-o‘zini shakllantirish motivi – bu o‘quvchining o‘z ustida ishlash, o‘zini takomillashtirish, ichki resurslarini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoji sifatida namoyon bo‘ladi. 9-sinf bosqichi – bu shaxsning individuallashuvi, o‘zini anglash va ijtimoiy identifikatsiyasi shakllanadigan davrdir. O‘quvchi bu jarayonda o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rishga, mustaqil qaror qabul qilishga va shaxsiy rejalarga ega bo‘lishga harakat qiladi. O‘zini shakllantirish motivatsiyasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar o‘z xatolarini tan olishga, ularni tahlil qilishga va to‘g‘rilashga intiladilar. Ular bilim olishni hayotdagi muvaffaqiyatga erishish vositasi deb biladilar. Bunday o‘quvchilar doimiy o‘sish, o‘zini rivojlantirish va ijobiy transformatsiyaga ochiq bo‘lishadi. Shuningdek, ularning o‘quvdagi faol ishtiroki shunchaki topshiriqni bajarish emas, balki shaxsiy o‘sishga bo‘lgan ehtiyoj bilan bog‘liq. Ular o‘zini ko‘rsatishga emas, o‘zini shakllantirishga intiladi. Bu holat o‘zlashtirmovchilikdan himoya qiluvchi barqaror ichki turtkini namoyon etadi. Shu sababli, o‘z-o‘zini shakllantirish motivatsiyasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar darsda barqaror, maqsadli va ichki boshqaruvli bo‘ladilar. Bu esa, ularning kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi.

Keyingi «o‘z-o‘zini hurmat qilish motivatsiyasi» omili bo‘yicha, 7-sinf o‘quvchilarida yuqori natija kuzatildi ($t=-2,6$; $p<0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, 7-sinf o‘quvchilarida “o‘z-o‘zini hurmat qilish motivatsiyasi” yuqoriroq darajada ekanligi aniqlandi. Bu o‘quvchilarda o‘z qadrini sezish, baholash va saqlab qolish ehtiyoji erta shakllanayotganini bildiradi. Ular uchun maktabdagi muvaffaqiyat nafaqat baholovchi mezon, balki shaxsiy qoniqish manbaidir. Bu yoshdagi o‘quvchilar atrofdagi baholarga, ayniqsa, o‘qituvchi va ota-onaning munosabatiga nisbatan sezuvchandirlar. O‘zini hurmat qilish motivi – bu o‘quvchining o‘ziga nisbatan samimiy va real baholovchi yondashuvining shakllanishi bilan bog‘liq. Ular o‘z qadr-qimmatini saqlashga harakat qilishar ekan, darsda faol ishtirok etishga, xatolardan qochishga va yutuqlarga erishishga intiladilar. Bu esa ularni yanada intizomli, o‘zini boshqara oladigan va o‘quv faoliyatiga javobgar bo‘lgan shaxs sifatida shakllantiradi. O‘zini hurmat qilish ichki barqarorlikni, o‘ziga ishonchni va o‘quvga nisbatan ijobiy

munosabatni kuchaytiradi. Shuningdek, bu motivatsiya o‘quvchilarni o‘z imkoniyatlariga real qarashga, kuchli va zaif tomonlarini anglashga undaydi. Bu holat ularda emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv va sog‘lom “men”-konsepsiyaning rivojlanishiga olib keladi. O‘zini hurmat qiluvchi o‘quvchi darsni o‘zini ifodalash maydoni sifatida qabul qiladi. Shu sababli u har qanday vazifani o‘z obro‘siga putur yetkazmaydigan yo‘l bilan hal etishga harakat qiladi. Bunday o‘quvchilarda o‘zlashtirmovchilik kuzatilgan taqdirda ham, bu holat vaqtinchalik bo‘lib, o‘zini anglash jarayoni orqali tezda bartaraf etiladi. Ularning shaxsiy fazilatlari o‘qishdagi muvaffaqiyat bilan chambarchas bog‘liqdir.

«Eksternal (tashqi) motivatsiya» omili bo‘yicha, 7-sinf o‘quvchilarida yuqori natija kuzatildi ($t=-2,8$; $p<0,05$). Bu shuni anglatadiki, 7-sinf o‘quvchilari bilim olishga ko‘proq tashqi omillar, ya’ni mukofot, maqtov, baho yoki jazo orqali rag‘batlantiriladilar. Eksternal (tashqi) motivatsiyaning ustunligi bu bosqichda o‘quv faoliyatining ko‘proq pedagogik nazorat va tashqi stimullar orqali boshqarilayotganini ko‘rsatadi. O‘quvchilar bu davrda o‘zlarini mustaqil emas, balki ustoz va ota-onalar tomonidan boshqariladigan subyekt sifatida his qilishadi. Ular uchun darsda faol qatnashishning asosiy sababi – yuqori baho olish, maqtovga sazovor bo‘lish yoki tanbehdan qochishdir. Tashqi motivatsiya ularni qisqa muddatli harakatga undaydi, biroq chuqur bilim olishga emas, balki topshiriqni bajarishga qaratiladi. Bu turdagi motivatsiya o‘quvchining ichki turtkilarini shakllantirishga imkon bermaydi. Shunday bo‘lsa-da, boshlang‘ich va o‘rta maktabda bu turdagi motivatsiya kerakli muvofiqlikni ta’minlaydi. O‘qituvchi tomonidan qo‘llanilgan baholovchi tizim, sovrinlar, rag‘batlantiruvchi so‘zlar bu motivni mustahkamlaydi. Ammo uzoq muddatli ta’lim jarayonida eksternal motivatsiyani ichki (intrinsik) motivatsiyaga aylantirish pedagogik mahoratni talab qiladi. Tashqi motivlar ustun bo‘lgan o‘quvchilar ko‘pincha o‘z-o‘zini boshqarishda qiyinchilikka duch keladilar. Bu holat, ayniqsa, nazorat kuchsiz bo‘lganda, o‘quv faoliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bu motivatsiya bosqichi o‘zlashtirmovchilikka qarshi vaqtinchalik, biroq samarali psixopedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Metodikaning so‘nggi «amotivatsiya» omili bo‘yicha ham 9-sinf o‘quvchilarida yuqori natija kuzatildi (t=-2,1; p<0,05). Natijalar tahliliga ko‘ra, amotivatsiya omilining 9-sinf o‘quvchilarida yuqoriligi ularning bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyojlarining pasayganini yoki yo‘qligini ko‘rsatadi. Bu holat o‘quvchilarning o‘z-o‘zidan rag‘batlanmasligi, darsga nisbatan loqaydlik va maqsadsizlik holatlarining kuchayganligini bildiradi. Amotivatsiyali o‘quvchilar topshiriqni bajarishda ishtiyoq sezmaydi, darsga befarqlik bilan qaraydi va o‘z faoliyatini boshqarishda passiv bo‘ladi. Bu bosqichda o‘quvchi bilim olishning ma’nosini yo‘qotgan, ya’ni «nega o‘qish kerak?» degan savolga javob topa olmay qolgan bo‘ladi. 9-sinf o‘quvchilarida bu holat, odatda, kelajakdagi noaniqlik, kuchli ijtimoiy bosim yoki o‘zini yo‘qotish hissi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, bu bosqichda o‘z-o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, ichki konfliktlar, motivatsion charchoq singari holatlar kuchayadi. Amotivatsiya o‘zlashtirmovchilikning eng xavfli psixologik asosidir. Chunki o‘quvchi dars jarayonida mavjud bo‘lsa-da, ruhiy jihatdan unda qatnashmaydi. Ushbu o‘quvchilar bilan alohida yondashuv, ma’naviy va hissiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, motivatsion treninglar o‘tkazish muhim hisoblanadi. O‘qituvchilar bu o‘quvchilarga ma’no, ijtimoiy ahamiyat va shaxsiy manfaat keltiruvchi ta’limiy vazifalarni taklif qilishlari lozim. Shunda ularning ichki turtkilari asta-sekin faollashadi va o‘zlashtirish darajasi ijobiy tomonga o‘zgaradi.

Shuningdek, «O‘quv motivasiyasini diagnostika qilish» metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga diqqatimizni qaratamiz.

2.8-jadval.

«O‘quv motivasiyasini diagnostika qilish» metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=420)

| Shkalalar nomi | O‘rtacha(M) | | Farqlar |
|---|---|---|---|
| | 7-sinf n=210 | 9-sinf n=170 | t |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Kommunikativ motivlar | 16,8 | 18,9 | -2,4* |
| O‘zini olib qochish motivlari | 17,5 | 19,3 | -2,8* |
| Obro‘-e’tibor motivlari | 21,8 | 20,4 | -1,5 |
| Kasbiy motivlar | 23,7 | 25,8 | -2,7* |
| O‘z-o‘zini ijodiy namoyon qilish motivlari | 6,9 | 7,8 | -1,3 |
| Bilishga va o‘qishga oid motivlar | 25,2 | 23,4 | -2,6* |
| Ijtimoiy motivlar | 20,6 | 22,8 | -2,9* |

«O‘quv motivasiyasini diagnostika qilish» metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga ko‘ra, «kommunikativ motivlar» (t=-2,4; p<0,05), «o‘zini olib qochish motivlari» (t=-2,4; p<0,05), «kasbiy motivlar» (t=-2,7; p<0,05), «bilishga va o‘qishga oid motivlar» (t=-2,6; p<0,05) hamda «ijtimoiy motivlar» (t=-2,9; p<0,05) omillari bo‘yicha ahamiyatli tafovutlar aniqlandi.

Metodikaning dastlabki «kommunikativ motivlar» omili bo‘yicha, 9-sinf o‘quvchilarida yuqori natija qayd etildi (t=-2,4; p<0,05). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, “kommunikativ motivlar” omili bo‘yicha 9-sinf o‘quvchilari yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi. Bu holat o‘quvchilarning dars jarayonida o‘zaro muloqotga, fikr almashishga va ijtimoiy faollikka bo‘lgan ehtiyoji ortganini anglatadi. 9-sinf bosqichida tengdoshlari bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatish, fikrini omma oldida bayon qilish, sinfdagi ijtimoiy mavqeni mustahkamlash kabi psixologik jarayonlar kuchayadi. O‘quvchilar o‘zlarini nutqiy va ijtimoiy jihatdan erkin ifoda etishga intiladilar. Ular uchun o‘quv faoliyati – bu nafaqat bilim olish, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni sinab ko‘rish maydonidir. Kommunikatsion faollik ularning o‘zlashtirish strategiyalarini ham belgilaydi. O‘quvchi darsda o‘z fikrini ifodalash, boshqalarni tinglash va bahslashish orqali o‘rganishni chuqurlashtiradi. Bu motiv

o‘zaro muloqotni qadrlash, faol fikr almashish va ijtimoiy moslashuvni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bunday o‘quvchilar guruhiy ishlarda ilg‘or tashabbus ko‘rsatadilar. Ularda ijtimoiy muhitdagi o‘z rolini his etish orqali o‘rganishga nisbatan ishtiyoq kuchayadi. Muloqotga tayyorlik darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar darsda ko‘proq ishtirok etadi va bilimni ko‘proq eslab qoladi. Bu ko‘nikmalar kelajakdagi kasbiy faoliyatda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, 9-sinf bosqichida kommunikativ motivatsiyaning kuchayishi o‘zlashtirish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan psixologik faktor sifatida e’tirof etiladi. Bu esa ta’limiy muhitda ijtimoiy muloqotni kuchaytirish zaruratini ko‘rsatadi.

Metodikaning navbatdagi «o‘zini olib qochish motivlari» omili bo‘yicha ham ahamyatli tafovutlar qayd etilgan bo‘lib, 9-sinf o‘quvchilari yuqori natijani qayd etdi ($t=-2,8$; $p<0,05$). Bu shuni anglatadiki, “o‘zini olib qochish motivlari” bo‘yicha ham 9-sinf o‘quvchilarida yuqori darajadagi tafovutlar kuzatilgan bo‘lib, bu o‘smirlar orasida ichki konfliktlar, shaxsiy chalkashliklar va ijtimoiy moslashuvdagi muammolar ortganini ko‘rsatadi. O‘zini chetga olish ehtiyoji, asosan, psixologik yuklama, xavotir yoki noaniq o‘zlik hissi natijasida shakllanadi. 9-sinfda o‘quvchilar ko‘proq introversiyaga moyil bo‘lib, o‘z fikrlarini yashirish, jamoaviy ishtirokdan chetlashish holatlari ko‘p uchraydi. Bu motivlar ba’zan o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik, baholanishdan qo‘rquv va ijtimoiy chekinishga olib keladi. O‘quvchi darsdan qochmasligi mumkin, ammo ichki emotsional ishtiroki susaygan bo‘ladi. Bu holat uning bilim olish jarayoniga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chekinishga moyillik o‘quvchining darsdagi qatnashuv darajasini pasaytiradi. O‘zini ajratish xatti-harakati, ayniqsa, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov kuchsiz bo‘lgan muhitda kuchayadi. Ushbu motivatsion holatga ega bo‘lgan o‘quvchilar ko‘pincha passiv, ichki qiziqishsiz va befarq bo‘lib qoladilar. Bu esa o‘zlashtirmovchilik darajasining ortishiga olib kelishi mumkin. O‘qituvchi tomonidan individual yondashuv, ishonchli aloqa va hissiy qo‘llab-quvvatlash bu holatni yumshatadi. Shu sababli, bu omil o‘quvchining ijtimoiy-emotsional salomatligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Navbatdagi «kasbiy motivlar» omili bo‘yicha, 9-sinf o‘quvchilarida ijobiy natijalar kuzatildi ($t=-2,7$; $p<0,05$). Ma’lum bo‘lishicha, “kasbiy motivlar” ham 9-sinf

o‘quvchilari orasida sezilarli darajada kuchaygan. Bu yosh bosqichida o‘quvchilar kelajakdagi kasbiy yo‘nalishini tanlash, hayotiy pozitsiyasini belgilash haqida jiddiy o‘ylay boshlaydilar. Ular bilim olishni amaliy, foydali va kelajakka yo‘naltirilgan vosita sifatida baholaydilar. Kasbiy motivatsiya kuchli bo‘lgan o‘quvchilar darsni shunchaki majburiyat emas, balki shaxsiy muvaffaqiyat sari qadam deb biladilar. Bu o‘quvchilar bilimlarni strategik tarzda o‘zlashtiradilar, ularni keyingi bosqichlarda qo‘llashga tayyor bo‘ladilar. Kasbiy rejalarning shakllanishi ularning o‘quv faoliyatini maqsadli, ichki rag‘bat asosida boshqarishga imkon beradi. Bunday o‘quvchilar bilimlarni ijtimoiy ehtiyoj, kasbiy moslashuv va hayotiy rejalar bilan bog‘laydilar. Shu sababli ularning o‘rganishga bo‘lgan motivi mustahkam va barqaror bo‘ladi. Kasbiy yo‘nalishga ega o‘quvchi o‘z-o‘zini tahlil qiladi, qiziqishlarini aniqlaydi va fanlar orasidagi bog‘liqlikni o‘rnatishga harakat qiladi. Bu esa bilimlarni izchil va chuqur o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Kasbiy motivatsiya darsdagi faollikni oshiradi, ayniqsa, kasb bilan bog‘liq topshiriqlarda ularning ishtiroki kuchliroq bo‘ladi. O‘quvchilar bu bosqichda ustozlar, mutaxassislar, ota-onalarning fikrini inobatga olgan holda kasb tanlaydi. Shu sababli o‘quv rejasi va darslar real hayot bilan bog‘liq bo‘lishi ularning motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi. 9-sinfda kasbiy motivatsiyaning ortishi, o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirish tamoyiliga asos bo‘ladi.

«Bilishga va o‘qishga oid motivlar» omili bo‘yicha ham 7-sinf o‘quvchilarida yuqori natija kuzatildi ($t=-2,6$; $p<0,05$). Mazkur natijalar, “bilishga va o‘qishga oid motivlar” omili bo‘yicha 7-sinf o‘quvchilarining yuqori darajadagi faolligini ko‘rsatdi. Bu yoshdagi o‘quvchilar uchun o‘rganish – bu kashfiyot, o‘yin, hayrat va qiziqish manbaidir. Ular bilim olishni ichki ehtiyoj, qiziqish va zavq bilan bajaradilar. Ushbu motivlar o‘quvchilarda savol berish, izlanish, izchil fikrlash va o‘z fikrini asoslashga intilish kabi faoliyatlarni kuchaytiradi. 7-sinf bosqichi yangi fanlar, o‘qituvchilar va murakkab mavzular bilan tanishish davri bo‘lganligi sababli, ularning bilimga bo‘lgan ishtiyoqi kuchli bo‘ladi. O‘qituvchining shaxsiyati, taqdimot uslubi va dars muhitidagi emotsional iqlim ham bu motivatsiyani mustahkamlaydi. Bilishga oid motivatsiyaning kuchliligi o‘zlashtirmovchilikka barqaror psixologik to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchi bilimni o‘zlashtirishni vazifa emas, qiziqarli faoliyat deb qabul qilganda, u

nafaqat passiv tinglovchi, balki faol ishtirokchiga aylanadi. Bu holat darsda yuqori konsentratsiya, mustahkam xotira va ijodiy fikrni shakllantiradi. Ular bilimlarni faqat baho uchun emas, balki anglash va tushunish ehtiyoji asosida oʻzlashtiradilar. Shu sababli, 7-sinf oʻquvchilarida bilishga boʻlgan motivatsiya yuqoriligi, ularning ongli, izchil va qiziqarli oʻquv faoliyatini koʻrsatadi. Bu esa oʻquvchining uzoq muddatli akademik muvaffaqiyatiga xizmat qiladigan muhim poydevordir.

Metodikaning soʻnggi «ijtimoiy motivlar» omili boʻyicha, 9-sinf oʻquvchilarida yuqori natija aniqlandi ($t=-2,9$; $p<0,05$). Jumladan, “ijtimoiy motivlar” boʻyicha 9-sinf oʻquvchilari eng yuqori natijalarni koʻrsatdi. Bu bosqichda oʻquvchilarning oʻziga nisbatan emas, balki jamoa oldidagi oʻz mavqeini anglashga boʻlgan ehtiyoji kuchayadi. Ular bilim olishni ijtimoiy qabul qilinish, jamiyatda oʻz oʻrnini topish va obroʻ orttirish vositasi deb qabul qiladilar. Bunday motivatsiya, koʻpincha, pedagoglar, ota-onalar, doʻstlar va boshqa ijtimoiy subyektlar fikri bilan bogʻliq boʻladi. Oʻquvchilar ijtimoiy standartlarga mos kelish, jamoada qadrlanish, oʻz ijtimoiy roli bilan faxrlanishga intiladilar. Bu esa ularni darsga qat’iyat bilan tayyorlanishga, vazifalarni oʻz vaqtida bajarishga va faol qatnashishga undaydi. Ijtimoiy tan olinish istagi oʻquv faoliyatiga nisbatan mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Bu motivatsiya koʻproq tashqi stimullarga asoslangan boʻlsa-da, ichki oʻzgarishlar uchun muhim zamin yaratadi. Ular ijtimoiy ehtiyojlarni ongli ravishda oʻzlashtirib, shaxsiy rivojlanish jarayoniga integratsiyalashadi. Ijtimoiy motivatsiyaning kuchliligi oʻquvchining sinfda, maktabda va kengroq jamiyatda faollik darajasiga ijobiy ta’sir koʻrsatadi. Bu motivlar asosida harakat qiluvchi oʻquvchilar koʻproq ijtimoiy loyihalarda, tadbirlarda va musobaqalarda faollik koʻrsatadi. Shu sababli ijtimoiy motivatsiya, shaxsni faqat bilimli emas, balki ijtimoiy jihatdan barqaror shaxsga aylantiruvchi psixologik omil sifatida qaraladi.

Jumladan, «Oʻquv faoliyatida muvaffaqiyatsizlik sabablarini aniqlash metodikasi» boʻyicha olingan dastlabki natijalar tahliliga oʻtamiz.

2.9-jadval.

«O‘quv faoliyatida muvaffaqiyatsizlik sabablarini aniqlash metodikasi» bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=380)

| Shkalalar nomi | O‘rtacha(M) | | Farqlar |
|---|---|---|---|
| | 7-sinf n=210 | 9-sinf n=170 | t |
| Bilimlarni idrok etishdagi qiyinchiliklar | 23,8 | 21,2 | -2,4* |
| Motivatsion pasayish | 21,7 | 23,8 | -2,7* |
| Diqqat va xotira bilan bog‘liq buzilishlar | 22,6 | 20,1 | -2,9* |
| O‘z-o‘zini boshqarish va intizom muammolari | 23,7 | 25,8 | -2,1* |
| Shaxslararo munosabatlardagi qiyinchiliklar | 21,8 | 22,3 | -1,7 |

«O‘quv faoliyatida muvaffaqiyatsizlik sabablarini aniqlash metodikasi» bo‘yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga ko‘ra, «bilimlarni idrok etishdagi qiyinchiliklar» ($t=-2,4$; $p<0,05$), «motivatsion pasayish» ($t=-2,7$; $p<0,05$), «diqqat va xotira bilan bog‘liq buzilishlar» ($t=-2,9$; $p<0,05$) hamda «o‘z-o‘zini boshqarish va intizom muammolari» ($t=-2,1$; $p<0,05$) omillari bo‘yicha ahamiyatli tafovutlar aniqlandi.

Metodikaning dastlabki «bilimlarni idrok etishdagi qiyinchiliklar» omili bo‘yicha, 7-sinf o‘quvchilarida yuqori natija qayd etildi ($t=-2,4$; $p<0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko‘ra, “bilimlarni idrok etishdagi qiyinchiliklar” omili bo‘yicha 7-sinf o‘quvchilarida yuqori ko‘rsatkichlar kuzatildi. Bu holat o‘quvchilarning yangi

o‘quv muhitiga moslashish jarayonida kognitiv qiyinchiliklarga duch kelayotganini anglatadi. Ayniqsa, boshlang‘ich bosqichdan o‘rta ta’limga o‘tishda fanlar soni va murakkablik darajasining ortishi ularning bilish faoliyatiga psixologik yuklama sifatida ta’sir qiladi. O‘quvchilar bu bosqichda ko‘proq tushunishda qiynaladi, bilimlarni umumlashtirish va ulardan foydalanishda sustkashlik seziladi. Ko‘pincha bu qiyinchiliklar konsentratsiya yetishmasligi, bilimlarni tahlil qilishdagi zaiflik yoki so‘z boyligi kamligi bilan bog‘liq bo‘ladi. 7-sinf o‘quvchilarining bu omilda yuqori ko‘rsatkich qayd etishi, ularda hali mustaqil o‘rganish malakalari to‘liq shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Bilimlarni idrok etishdagi qiyinchiliklar shaxsiy ishonchsizlik, o‘z kuchiga ishonch yo‘qligi va baholardan qo‘rqish kabi hissiy holatlar bilan ham bog‘liq. Bu esa o‘quvchilarda o‘quv topshiriqlarini kechikib bajarish, darsga sust tayyorgarlik ko‘rish va tushunmaslik holatlarini kuchaytiradi. Bu yosh bosqichida bilimlarni idrok etishdagi qiyinchiliklar, albatta, vaqtinchalik bo‘lib, to‘g‘ri pedagogik yondashuv bilan ijobiy hal etilishi mumkin. Ularning barqaror bilim olishiga sharoit yaratish orqali bu muammoni yengillashtirish mumkin. Bu jihat o‘quvchilarda bilimga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish va o‘zlashtirishni faollashtirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Metodikaning navbatdagi «motivatsion pasayish» omili bo‘yicha ham ahamyatli tafovutlar qayd etilgan bo‘lib, 9-sinf o‘quvchilari yuqori natijani qayd etdi ($t=-2,7$; $p<0,05$). Bu shuni anglatadiki, “motivatsion pasayish” omili bo‘yicha 9-sinf o‘quvchilarida yuqori natijalarning kuzatilishi, ushbu bosqichda ichki rag‘batning susayganini bildiradi. Ta’lim jarayoniga nisbatan ishtiyoqning pasayishi, ko‘pincha o‘quvchining shaxsiy o‘zgarishlari, emotsional fonining beqarorligi va tashqi omillar ta’sirida yuzaga keladi. 9-sinf davrida o‘quvchilarda o‘ziga nisbatan talablari ortadi, ammo o‘z kuchiga ishonchsizlik, sinovlardan qo‘rquv yoki kasb tanlashdagi noaniqlik ularni ruhiy jihatdan charchatadi. Shuningdek, baholash tizimining kuchayishi va ota-onalarning yuqori kutishlari bu pasayishga turtki bo‘lishi mumkin. Motivatsiyaning susayishi darsga bo‘lgan e’tiborni kamaytiradi, ixtiyoriy harakatlarni boshqarishni zaiflashtiradi va intizomda pasayish keltirib chiqaradi. Bu holatda o‘quvchi ta’limni foydali emas, majburiy vazifa sifatida qabul qiladi. Ichki qiziqishlar o‘rnini tashqi

rag‘batlar oladi, bu esa yuzaki o‘zlashtirishga olib keladi. Psixologik yordam, emotsional rag‘batlantirish, kasbiy yo‘naltirish va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash motivatsion tiklanishda muhim omil sanaladi. Ushbu omil bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar motivatsiyaviy sohada profilaktik va korreksion choralarni amalga oshirish ehtiyojini ko‘rsatadi. Ularni faol va ichki rag‘bat bilan ta’limga jalb etish metodikasi ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Shu tarzda, motivatsion pasayishni aniqlash – o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy moslashuvida hal qiluvchi tahliliy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Navbatdagi «diqqat va xotira bilan bog‘liq buzilishlar» omili bo‘yicha, 7-sinf o‘quvchilarida ijobiy natijalar kuzatildi ($t=-2,9$; $p<0,05$). Ma’lum bo‘lishicha, “diqqat va xotira bilan bog‘liq buzilishlar” omili bo‘yicha 7-sinf o‘quvchilarida sezilarli darajada salbiy natijalar qayd etilgan. Bu yoshdagi o‘quvchilarda o‘quv yuklamasi ortgani sari konsentratsiyaning pasayishi, tez chalg‘ish, ma’lumotni eslab qolishdagi zaiflik holatlari kuchayadi. Diqqatning beqarorligi, o‘qituvchining topshiriqlarini to‘liq anglamaslik, uzoq vaqt davomida e’tibor qaratmaslik hollari tez-tez uchraydi. Bu holat ularning fikrlash jarayonlarini, eslab qolish mexanizmini va bilimlarni tahlil qilishni murakkablashtiradi. Ko‘p hollarda bu buzilishlar ijtimoiy omillar – telefon, kompyuter, o‘yinlar ta’siri ostida paydo bo‘ladi. Xotira zaifligi o‘quv topshiriqlarini takrorlash, yodda saqlash va testlarga tayyorgarlikda muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu buzilishlar – vaqtincha va rivojlanish psixologiyasi nuqtai nazaridan tipik bo‘lsa-da, bartaraf etish uchun muayyan didaktik yondashuvlar talab etiladi. O‘yin orqali mashqlar, vizual eslatmalar, qisqa muddatli vazifalar berish orqali bu holatni yumshatish mumkin. Shuningdek, psixologik treninglar, aqliy mashqlar va mnemotexnika uslublaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu muammo bartaraf etilmasa, u o‘zlashtirishda barqaror qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, bu omil o‘quvchilarni kuzatish, diagnostika va rivojlantiruvchi dasturlar joriy etishda muhim ahamiyatga ega. 7-sinf — bu diqqat va xotirani faollashtirishning eng qulay davridir. Psixologik-pedagogik muhitning barqarorligi, o‘qituvchining didaktik uslublari va ota-onalar yordami bu yo‘nalishda ijobiy natijalarga olib keladi.

